1. Otli birikmalarda - hokim so`z ot va otlashgan so`zlar, harakat nomi bilan ifodalanadi. Otli birikmalarda hokim so`zning ifodalanishi:

**ot bilan** – go`zal o`lka, shahar ko`chalari, maktab bolalari, fakul'tet o`qituvchilari.
**sifat bilan -** asalning shirini, talabalarning a'lochisi, hammadan katta
**olmosh bilan** – qizlarning har biri, o`tirganlarning hammasi, shularning barchasi.
**son bilan** – olmaning yarmi, topshiriqning uchdan biri, talabalarning uchtasi...

**taqlid so`z bilan** – shamolning g`uv-g`uvi, mashinaning pat-pati, yulduzning yalt-yulti
**harakat nomi bilan**: maktabda o`qish, piyoda yurish, ko`chada sayr qilish
**Fe'lli birikmada** – hokim so`z fe'lning vazifadosh shakllari (sof fe'l, sifatdosh, ravishdosh) shakllari bilan ifodalanadi:
**Sof fe'l bilan** – daftarga yozmoq, stulda o`tirmoq, o`rnidan turmoq
Ravishdosh shakli bilan – tez-tez yurib, darsdan qaytguncha, ko`chada yura-yura
Sifatdosh shakli bilan – mehnatda sinalgan, oftobda toblangan, umid bilan yashayotgan

## SO`Z BIRIKMASI VA UNGA YONDOSH HOLATLAR

Quyida berilgan birliklarni so`z birikmalaridan farqlash lozim.

- Qo`shma so`zlardan: Yangiyo`l, Navro`z bayrami, Amerika Qo`shma Shtatlari, Buyuk Britaniya , O`zbekiston Respublikasi, G`arbiy Yevropa, Birlashgan Arab Amirligi, havorang. So`z birikmasi va qo`shma so`zda qismlar birikuvi shakliy jihatdan o`xshash bo`ladi. Lekin so`z birikmasidagi qismlar ma'no mustaqilligini saqlagan bo`ladi. Qo`shma so`z qismlari esa ma'no mustaqilligini saqlamaydi, bitta umumiy lug`aviy ma'no anglatadi. So`z birikmasidagi qismlar orasida grammatik aloqa sezilib turadi, qo`shma so`z qismlari orasida esa grammatik aloqa bo`lmaydi, bita urg`u bilan aytiladi. Qiyos qiling: Yangiyo`l (qayer?) – yangi (qanday?) yo`l; bilakuzuk (nima) – xatni (nimani) oldim.
- Iboralardan: kapalagini uchirmoq, tarvuzi qo`ltig`idan tushmoq, qulog`iga quymoq, boshiga yetmoq.So`z birikmasi qismlari o`zaro erkin bog`langan bo`ladi – tushuncha anglatadi; iboralar esa turg`un bog`lanmalar bo`lib, ular yaxlit bitta lug`aviy ma'no anglatadi. Masalan: Bola qushlarga qarata tosh otdi. – Yutuqlarini ko`rolmasdan do`stiga ham tosh otdi.
- So`z birikmasi va turg`un bog`lanma gapda ayni shaklda qo`llanishi mumkin: boshiga yetmoq, yaxshi ko`rmoq, qulog`iga quymoq, o`z yog`ida qovurmoq, po`stagini qoqmoq, to`nini teskari kiymoq, bo`yniga qo`ymoq, tarvuzi qo`ltig`idan tushmoq, kapalagi uchib ketmoq kabi birliklar erkin birikma bo`lganda tushuncha, turg`un bog`lanma bo`lganda bitta lug`aviy ma'no anglatadi.
- Ko`makchili qurilmalardan: mehnatiga yarasha, hunari tufayli, ko`cha bo`ylab, yorug`lik tomon, uyga qarab, qilmishiga yarasha. Bu birliklarning ikkinchi qismi vazifadosh ko`makchilardan tashkil topgan bo`lib, so`z birikmasi ikkita mustaqil so`zning birikuvidan tuzilishi lozim.
- Gaplardan: Atrof go`zal. Kitob qiziqarli. Bolalar uchta. So`z birikmasi ham, gap ham so`zlarning grammatik aloqaga kirishuvidan yuzaga keladi. So`z birikmasi narsa-buyum, belgi, ish-harakatni aniqlashtirgan holda ifodalab, so`z kabi gap tuzish, uni kengaytirish uchun xizmat qiladi: baland bino, tez yurmoq. Gap esa ma'lum fikr ifodalab, tugallangan ohang bilan aytiladi: Bino baland. Mashina tez yuradi.

## SO`Z BIRIKMASIDA SO`ZLARNING O`ZARO BIRIKISH USULLARI

So`z birikmasida so`zlarning o`zaro 3 xil birikuv usullari bor: ***moslashuv; boshqaruv; bitishuv.***

Tobe so`zning hokim so`zga qaratqich kelishigi yordamida, hokim so`zning esa tobe so`zga egalik qo`shimchasi orqali birikuvi **moslashuv** deyiladi: sizning ukangiz, xonaning yorug`i. Ba'zan egalik yoki qaratqich kelishigi shakli belgisiz qo`llanilishi mumkin: yoz yomg`iri (yozning yomg`iri), cho`l havosi, qor jilvasi; bizning uy, sizning o`g`il. Moslashuvda asosan otli birikmalar hosil bo`ladi.

Tobe so`z hokim so`zga tushum, jo`nalish, o`rin-payt, chiqish kelishiklari yoki ko`makchilar bilan birikuvi **boshqaruv** deyiladi. Boshqaruvda otli va fe'lli birikmalar hosil bo`ladi: olma termoq, gul uzmoq, yoshlarga g`amxo`rlik, uydan chiqmoq, g`alaba uchun kurashmoq, maktab tomon ketmoq.

Kelishikli va ko`makchili boshqaruv farqlanadi. Kelishikli boshqaruvda tobe so`z hokim so`zga tushum va o`rin kelishiklari vositasida birikadi: do`stini uchratmoq, bog`dan chiqmoq, chelakka solmoq, qarmoqda tutish. Ko`makchili boshqaruvda tobe so`z hokim so`zga ko`makchilar vositasida birikadi: tinchlik uchun kurash, qarmoq bilan tutish, aybiga yarasha jazolanmoq, uy sari yurmoq.

Tobe so`z va hokim so`z xech qanday vositalarsiz faqat tartib va ohang yordamida birikuv usuli **bitishuv** deyiladi: tez yurmoq, keng ko`cha, kelgan odam, chiroyli gapirmoq, mehribon enaga. Tezda qaytmoq, qo`qqisdan burilmoq, chindan (yolg`ondan) gapirmoq, uzunasiga kesmoq, zimdan kuzatmoq kabi birikmalar ham bitishuv usuli bilan hosil bo`lgan. Ravishlar tobe so`z vazifasida kelganda bitishuv usli bilan hokim so`zga birikadi, ularning tarkibidagi egalik va kelishik qo`shimchalari yaxlitlanib qolgan.

## SO`Z BIRIKMALARI ZANJIRI

So`z birikmalarining tuzilishiga ko`ra **sodda va murakkab** turlari mavjud.

Sodda so`z birikmalari - ikkita mustaqil so`zdan iborat so`zlarning birikuvidir.

Quyida berilgan holatlar sodda so`z birikmalari hisoblanadi.

-  Mehnatiga1 yarasha0 olmoq1, hammaga1 qaraganda0 chiroyli1 (bu yerda so`zlar soni uchta bo`lsa ham mustaqil ma'no anglatuvchi so`zlarning soni ikkita).
-  Qo`li ochiq1 yigit1, tarvuzi qo`ltig`idan tushgan1 odam1, qulog`iga quyib1 uqtirmoq1. Bu birikmalar ham sodda so`z birikmalari bo`lib hisoblanadi, chunki bu yerda turg`un birikma qatnashgan. Turg`un birikma xuddi so`zlar kabi bitta so`roqqa javob bo`ladi va bitta lug`aviy birlik hisoblanadi.
-  G`arbiy YeBropada1 yashamoq1, vazirlar Mahkamasida1 ko`rilmoq1, kichik korxonada1 ishlamoq1, O`rta Chirchiqda1 yashamoq1, besh qavatli1 bino1 – bir qismi qo`shma so`z shaklida kelganligi sababli bular ham sodda so`z birikmalaridir.
-  Kitobni o`qib1 chiqmoq1, mehmonlarni1 taklif qilmoq1 – birikmaning bir qismi qo`shma yoki ko`makchi fe'lli so`z qo`shilmasi bo`lganligi sababli bular ham sodda so`z birmasidir.
-  Shoda-shoda1 duru gavharlar1, uyum-uyum1 arpa-bug`doylar1 – bir qismi juft so`zli birikmalar ham sodda so`z birikmalari bo`lib hisoblanadi.

Murakkab so`z birikmalarida – tobe so`z o`ziga qarashli bo`laklar bilan kengayib keladi va gapda so`z birikmalari zanjirini hosil qiladi. So`z birikmasidagi hokim

so`z boshqa bir so`zga tobelangan, bir hokim so`z bir necha tobe so`zlarga aloqador bo`lganda yoki bitta tobe so`z bir necha hokim so`zlarga aloqador bo`lganda so`z birikmalari zanjiri hosil qilinadi. Ular bitta so`roqqa javob bo`ladi. Bunday birikmalar tarkibida mustaqil so`zlar soni uch yoki undan ortiq bo`ladi va ular o`zaro tobelanadi.

***Zumrad ko`zli uzukhokim so`z***

***Cho`ldan esgan mayin shamolhokim so`z***

So`z birikmalari zanjiri turli gap bo`laklari bo`lib kelishi mumkin. Masalan: DarBeshalining zindonda yotishi Alisherning yuragida dushmanlik olovini to`ldirdi gapida so`z birikmalari zanjiri ega vazifasida kelgan.

**TENGLANISH VA TOBELANISH**

So`z qo`shilmasida so`zlar teng va tobe bog`lanadi. Bog`imizda olma va o`rik pishdi.- gapida bog`imizda pishdi, olma pishdi, o`rik pishdi – tobelanish; olma va o`rik – tenglanishusuli bilan bog`langan.

Tenglanishda – ikkita teng huquqli so`z biri ikkinchisiga bo`ysunmay bog`lanadi. Ular quyidagicha hosil bo`ladi:

- Ohang yordamida: Olma, o`rik, shaftoli, gilos pishdi.
- Teng bog`lovchilar yordamida:
- Biriktiruv bog`lovchilari yordamida – o`qituvchi hamda o`quvchilar kelishdi.
- Zidlov bog`lovchilari yordamida – o`qidi, biroq yozmadi;
- Ayiruv bog`lovchilari yordamida – kitob yoki daftar, ba’zan qor, ba’zan yomg`ir;
- Inkor bog`lovchisi yrdamida – na sen, na men;
- Ko`makchi-bog`lovchilar bilan – Karim bilan Salim, olma bilan nok;
- Yuklama-bog`lovchilar bilan – yer-u osmon, keldi-yu, indamadi.

So`zlarning teng bog`lanishi so`z qo`shilmalarini hosil qiladi. So`z qo`shimalarida har bir so`z alohida narsalarni nomlab keladi va ma’no mustaqilligini saqlab qoladi: Opam va men, o`qidi lekin yozmadi.

So`zlarning tobe bog`lanishida bir so`z boshqa so`zga tobe va hokim munosabatida bog`lanadi. Tobe bog`lanishdan so`z birikmasi va gap hosil qilinadi.

Tobelanishdagi birliklardan so`z birikmasi ikki yoki undan ortiq so`zdan iborat bo`lishiga qaramay bitta tushunchani ifodalaydi: mening do`stim, uyga kirmoq. Gap esa fikr ifodalaydi: Mening do`stim – Karim. Bola uyga kirdi.

So`z birikmalarida tobe so`z vazifasiga ko`ra uch turga bo`linadi.

1. ***Aniqlovchili birikma***
2. ***To`ldiruvchili birikma***
3. ***Holli birikma***

Aniqlovchili birikma – tobe so`z sifatlovchi yoki qaratqichli aniqlovchi vazifasida keladi: vatan beshiging1 izlari chizilgan2 zamindir.

To`ldiruvchili birikma – tobe so`z vositali yoki vositasiz to`ldiruvchi shaklda keladi.

Birinchi bor vahorni tanigan, birinchi varrakni uchirgan, birinchi marta xayitlik olgan,

birinchi o`qituvchi, birinchi muhabvatingni tanigan zamin - vatandir.
Holli birikma – tobe so`z hol vazifasida keladi:

Uyga shoshib kirdi (ikkita holli birikma) uyga kirdi, shoshib kirdi.

Maktabga piyoda jo`nadik (ikkita holli birikma) maktabga jo`nadik, piyoda jo`nadik.

## 3-Mavzu:Gap, uning xususiyatlari. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari. His-hayajonli va his-hayajonsiz gaplar.

| | |
|---|---|
| **Ma'ruzaga ajratilgan vaqt**– 2 | **Talabalar soni** – ta |
| **O'quv mashg'ulotining shakli** | Ma'ruza |
| **O'quv mashg'ulotining tuzilishi** | 1. Ma'ruzaga kirish.<br>2. Ma'ruzani amalga oshirish tartibi bilan tanishtirish.<br>3. Ma'ruzalar bilan tanishish.<br>4. Ma'ruza yuzasidan muhokamalarni tashkil etish.<br>5. Ma'ruzalar yuzasidan umumiy xulosalarga kelish.<br>6. Ma'ruzani yakunlash. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi** | Talabalarda fanning rivojlanishi haqidagi bilimlarni tarkib toptirish |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>2) Ma'ruzaning maqsad va vazifasini tushuntirish;<br>2) Ma'ruzani amalga oshirish tartibini bayon etish;<br>3) ma'ruzalarni tinglash jarayonini tashkil etish;<br>4) ma'ruza yuzasidan muhokamalar jarayonini boshqarish;<br>5) ma'ruzalar yuzasidan umumiy xulosalar qabul qilish. | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>6)ma'ruzalarni taqdim etishadi va tinglab borishadi;<br>7)ma'ruzalardagi eng asosiy jihatlarni ajratib olib, o'z daftarlariga qayd etadilar;<br>8)ma'ruzalar yuzasidan savollar bilan murojaat etishadi;<br>9)ma'ruza yuzasidan muhokama uchun so'zga chiqadilar;<br>10) ma'ruzalar yuzasidan umumiy xulosalar qabul qilishda o'z munosabatlarini bildirishadi. |
| **Ta'lim metodi** | Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, munozara, dasturlashtirilgan topshiriqlar |
| **Ta'limni tashkil etish** | Ma'ruza, ommaviy |

| | |
|---|---|
| **shakli** | |
| **Didaktik vositalar** | Ma’ruza matni, slayd-prezentatsiya, tarqatma materiallar |
| **Ta’limni tashkil etish sharoiti** | Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat** | O’z-o’zini nazorat qilish. |

## Ma’ruzaning texnologik kartasi

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O’qituvchi** | **Talaba** |
| **Tayyorgarlik bosqichi** | (11) Ma’ruza mavzulari, ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro’yxatini beradi.<br>(12) Ma’ruzachilarga mavzularni berishni, taqrizchilarni aniqlashlashtirishni tashkillashtiradi.<br>(13) Ma’ruzachilarga tanlangan mavzu bo’yicha referat mavzusini batafsil tuzish topshirig’ini beradi, maslahat beradi.<br>(14) Barcha talabalarga ma’ruza va qo’shimcha materiallar mazmunini o’rganib chiqish va savollar tayyorlab kelish topshirig’ini beradi.<br>(15) Ma’ruzachilar bilan ma’ruza qilish metodikasi va tuzilishini muhokama qiladi, ma’ruza mazmuniga o’zgartirishlar kiritadi. | Ma’ruzachilar mavzuni tanlaydilar va uning rejasini tuzadilar. Qolganlari ma’ruza va qo’shimcha materiallar mazmunini o’rganadilar, ma’ruzachilarga savollar tuzadilar. Ma’ruzachilar referat yozishadi va ko’rgazmali materiallar tayyorlashadi. |
| **1-bosqich. O’quv mashg’ulotiga kirish (Da’vat bosqichi) (20 minut)** | 1.1. O’quv mashg’ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni o’tkazish rejasini ma’lum qiladi.<br>1.2. Talabalar diqqatini jalb etuvchi dasturlashtirilgan | Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar va javob beradilar.<br>Ishga ajratilgan vaqt, munozara o’tkazish qoidalari, |

| | | |
|---|---|---|
| | topshiriqlar beradi.<br>1.3. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o’tkazish qoidalari, baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. | baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar. |
| **2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut)** | 2.1. Talabalarni o’zlari tayyorlagan ma’ruza va ma’lumotlar bilan tanishtirishlarini tashkil etadi. Material mazmunining mantiqan yoritib berilishini diqqat bilan kuzatadi.<br>2.2. Taqrizchilarga so’zga chiqishni va savollar berishni taklif etadi.<br>2.3. Ma’ruza mazmunini jamoa bo’lib muhokama qilish jarayonini tashkil etadi:<br>- taqrizchilarga o’z fikrlarini bildirishlarini, qo’shimcha savollar berishni taklif etadi;<br>- savollar beradi;<br>- ma’ruzaning asosiy mohiyatini aniqlashtiradi.<br>2.4. Har bir ma’ruzaniqisqacha umumlashtirish bilan yakunlaydi. | Ma’ruzachilar o’zlari tayyorlagan ma’lumotlarini taqdim etishadi.<br>Taqrizchilar ma’ruzaning ijobiy va kuchsiz jihatlarini aytib berishadi.<br>Savollar beradilar.<br>Munozarada ishtirok etadilar.<br>Munozara ishtirokchilari jamoaviy ravishda ma’ruza mazmunini muhokama qiladilar. |
| **3-bosqich. YAkuniy (fikrlash bosqichi) (10 minut)** | 3.1. Ma’ruza jarayonida olingan ma’lumotlarni guruhlash maqsadida talabalarga LTQ ko’rinishidagi tarqatma materialni beradi.<br>3.2. O’quv faoliyati natijalariga yakun yasaydi. Ma’ruza ma’ruzachilari va ishtirokchilari tayyorgarligini, talabalarning munozaralardagi faolligini baholaydi.<br>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi. | Tinglaydilar, aniqlashtiradilar va vazifani yozib oladilar. |

**1-ilova. Dasturlashtirilgan topshiriq savollari:**

1. Gapning qanday belgilari mavjud?
2. Gaplar qaysi xususiyatlariga ko'ra turlarga bo'linadi?
3. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra qanday turlari mavjud?
4. Gapning his-hayajon ifodalashiga ko'ra qanday turlari mavjud??

2-ilova. Ma'ruza mashg'uloti dokladlari mavzulari:

1. Darak gap haqida to'liq ma'lumot bering.
2. So'roq gap haqida to'liq ma'lumot bering.
3. Buyruq gap haqida to'liq ma'lumot bering.
4. His-hayajon gap haqida to'liq ma'lumot bering.

3-ilova. Xulosani shakllantirish uchun savollar:

1. Darak gapning qanday turlari mavjud?
2. So'roq gapning qanday turlari mavjud?
3. Buyruq gapning qanday turlari mavjud?
4. His-hayajon gapning qanday turlari mavjud?

**Dasturlashtirilgan topshiriq natijalari:**

| Savol № | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|---|
| Javob № | | | | | |
| Natija | | | | | |

Talaba F.I.O.

**Baho** **O'qituvchi imzosi**

**5-ilova.**Tarqatma material

1. Men o'z baxtimni, quvonchimni, boyligimni uzoqda, olis tog'lardan topib keltirdim. (M.Q.)
2. –Onang qandoq xotin edi! Qandoq xotin edi! (S.Ahm.)
3. Bahromov bilan birga chizadigan loyihalaring Bo'zsuv bo'ylarini ham xunuk qilib qo'yadigan bo'lsa, uni qaytadan obod qilguncha, qancha kuch ketadi, qancha vaqt ketadi! (P.Q.)
4. – Vazmin bo'ling, SHovvoz! – Men vazmin bo'lay?! – dedi SHovvoz hansirab. (O.YO.)
5. Bas qiling! – dedi Nigora. – Hozir bas qiling yo...(O.YO.)
6. Pulni olmaganimni, vijdonim pokligini kim bilib o'tiribdi? (T.Malik)
7. Axir ular mardikor emas, hasharchi hisoblansa... mehnatidan azob topib, norozi bo'lib ketishi kerakmi? (T.Malik)
8. Bu ahvolda suvga tushgan bo'lka nonga o'xshab cho'kib o'tirganingdan ruhi ranjimaydimi? (S.Ahm.)
9. O'sha lim-lim daryoni ayyuhannos solgan bilan orqaga qayirib bo'larkanmi? (O'.Usm.)
10. Mayli, tanasi boshqa dard bilmas, deganlaridek, uning dardu hasratlarini bilmaganlar nimalar demaydi? (O.YO.)
11. Qani endi, A'zamjon ham shunaqa bo'la qolsa edi. (S.Ahm.)

12. Zelixon shunday deb soatiga qaradi: - Televizorni qo'y. «Vremya" ni ko'raylik-chi? (T.Malik)
13. SHirin yuzingdan shirin so'zing yaxshi, degan eskilar. SHirin so'zingni ayama bulardan, bolam. (O.YO.)
14. Qani endi o'sha kunlar qaytib kelsa.(S.Ahm.)
15. Bo'lmasa, sizdan iltimos, - viloyat rahbari SHukurovga yuzlandi, - shaxsan o'zingiz o'sha ayolni chaqirib, bir gaplashsangiz. (O.YO.)
16. Qanday bebaho xotin edi qaynonasi Oysuluv! (O.YO.)
17. – Namozboyni qutqarmaguncha egan nonimiz harom bo'lsin, oblohu akbar! - barobariga yuzlariga fotiha tortishdi do'stlar.(X.To'xt.)
18. Vaqt erta bo'lishiga qaramay, qatnovchilar siyrak.(O.)
19. Nahot odamlar orasida g'imirlab qolgan bu mudhish mishmishlar chin bo'lsa? Yo'q, buni o'ylash, buni xayolga keltirishning o'zi dahshat! Unda bu hayotning sariq chaqalik qadri qolmaydi unga! (O.YO.)
20. Majlisda o'qituvchining yuziga sapchib, uni behurmat qilganing - menimcha ham odobsizlik! (P.Q.)

## 6-ilova. Ma'ruza matnidan parchalar

## Gap va uning asosiy belgilari

Muomala vositasining eng kichik birligi **gapdir.**

Gap orqali tugallangan fikr ifodalanadi: *Paxta terimi qizg'in davom etyapti. Oltin kuz qanday go'zal!*

Gap hosil qilish uchun so'z va so'z birikmalarini grammatik jihatdan bog'lash kerak: *Xatni qalam bilan yozdi* gapida *-ni* va *bilan* bog'lovchi vositalar hisoblanadi. Bu gapning grammatik jihatdan shakllanganligidir.

Gap ohang jihatdan tugallangan bo'lishi kerak: *Kuz. Hamma yoqdaish qaynayapti.* Bu gapdagi *Kuz* so'zi tugallangan ohang bilan aytilgani uchun gap hisoblanadi.

SHunday qilib, gapning quyidagi belgilari mavjud:

1. Muomalaning eng kichik birligidir. 2. Nisbiy tugallangan fikrni ifodalaydi. 3. Grammatik jihatdan shakllangan bo'ladi.
4. Tugallangan ohang bilan aytiladi.

YUqoridagi belgilarga tayangan holda gapning quyidagi ta'rifini keltirib chiqarish mumkin:

**Tugallangan ohang va fikrga ega bo'lib, kesimlik shakllari vositasida grammatik jihatdan shakllangan, muomalaning eng kichik vositasi hisoblangan yakka so'z yoki so'zlar yig'indisi gap deb ataladi.**

## Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari

**1. Darak gap** orqali biror narsa haqida ma'lum qilinadi, xabar beriladi, uning oxiriga doimo nuqta qo'yiladi: *Ertaga maktabga boraman.*

Darak gaplar darak-xabar, orzu-umid, ishonch, ta'kid, g'urur, maslahat, tashviq, sevinch, taajjub, gumon, achinish tashvish, g'azab, norozilik, kinoya kabi mazmun turlarini ifodalaydi.

**2. So'roq gap** orqali so'zlovchi o'zi bayon qilgan fikrga suhbatdoshini fikr bildirishga undaydi, tasdiqlash yoki inkor qilishga undaydi: *Bugun keldingizmi?*

YOzuvda so'roq gapning oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi. Bu gaplar ko'proq **dialogik**nutqda uchraydi.

So'roq gaplar so'roq olmoshlari *(kim? nima? qanday? qancha? necha? qaysi? –* bunday gaplar so'roqqa javob bo'luvchi so'zni talab qiladi), so'roq yuklamalari (*-mi, -chi, -a, -ya)* yoki so'roq ohangi bilan hosil bo'ladi. Bunday gaplar *ha* yoki *yo'q* degan javobni talab qiladi. Quyidagi misolda so'roq ohangi qatnashgan: *Soat ikki bo'ldi. Ikki bo'ldi?*

So'roq gaplar ikki guruhga bo'linadi: 1) **sof so'roq gaplar** javob talab qiladigan gaplardir: *Siz ertaga kelasizmi?*
2) **ritorik so'roq gaplar** so'roq gaplarning javob talab qilmaydigan turi bo'lib, javobi o'z ichida yashiringan va barcha uchun ma'lum bo'ladi: *Men uning to'satdan kelib qolishini qaydan bilay?* Ritorik so'roq gaplar quyidagi ma'nolarni ma'nolarini ifodalashi mumkin: *Bu Vatanda nimalar yo'q* (tasdiq). *O'zingdan chiqqan baloga, qayga borasan davoga* (inkor). *Bu nimasi?!* (taajjub) *Meni tashlab ketmaysanmi?!* (tashvish) *Maqsad nima, maqsad?!* (g'azab) *Paxtalar ham yaxshi ochilmagandir?* (gumon) *Tokaygacha ezilamiz, ota?!* (kuchli hayajon)
**3. Buyruq gaplarda**suhbatdoshni nimadir qilishga undash maqsad qilib qo'yiladi. Bunday gaplarda iltimos, buyruq, taklif, maslahat, hayratlanish, tashviq, gumon, tashvish, hayajon, g'azab, yalinish tarzida bo'lishi mumkin: *Avval o'yla, keyin so'yla* (maslahat). *Dadil harakat qil!* (buyruq) *Ashuladan yana bo'lsin* (iltimos). *Qani hamma odamlar sizday bo'lsa!* (orzu) *Nahotki, bu siz bo'lsangiz!* (hayratlanish) *Sovqotib qolma, issiqroq yot* (g'amxo'rlik). *Kunning tig'ida nima qilasan, bu erga kelib, salqinda o'tirsang-chi!* (tashviq) *Qo'rqqan bo'lsa kerak!* (gumon) *Xatdan o'chir o'g'limni hozir!* (g'azab, do'q) YOzuvda buyruq gaplarning oxiriga ko'pincha nuqta, ohangiga qarab esa undov belgisi ham qo'yilishi mumkin.

Ayrim darsliklarda (23; 34) gaplar ifoda maqsadiga ko'ra to'rt turga ajratiladi: darak gaplar, so'roq gaplar, buyruq gaplar, istak gaplar. **Istak gaplarga** quyidagicha ta'rif berilgan: "Kesimi *–**sa*** shaklidagi fe'llar bilan ifodalangan gaplar istak gap hisoblanadi. *Qani endi xohlagan o'qishimga kirsam*. Istak gaplar oxiriga nuqta (.) qo'yiladi." (23; 34) Istak gaplar buyruq gaplarning ichidan ajralib chiqqanligi misoldan ko'rinib turibdi.

## Gaplarning his-hayajon ishtirokiga ko'ra turlari

Gaplar ohangiga, his-tuyg'uni ifodalashiga ko'ra 2 xildir:
**1. His-hayajonli gap**. **2. His-hayajonsiz gap**. His-hayajon gaplar (ba'zan **undov gaplar** deb ham yuritiladi) *eh, oh, uh, o, uf, obbo* kabi undovlar, *qanday, qancha, naqadar,shunday* kabi so'zlar yoki faqat his-hayajon ohangi bilan hosil bo'ladi: *Eh, bahorning gashtiga nima etsin! Farg'ona vodiysi naqadar go'zal! Paxta terimi boshlandi!* His-hayajon ohangi bilan aytilgan darak, so'roq, buyruq gaplar his-hayajon gapga aylanadi: *Dalada qancha odam bor? Dalada qancha odam bor!*

Kundalik turmushda odamlarning o'zaro salomlashishi, xayrlashishi kabi vaziyatlarda qo'llanadigan gaplar ham undov gaplar hisoblanadi: *Assalomu alaykum, hurmatli talabalar! Xayr, jonajon shahrim!*

His-hayajon gap so'roq gapdan hosil bo'lgan bo'lsa, tinish belgilari quyidagicha qo'yiladi:

1) so'roq mazmuni kuchli bo'lsa, oldin so'roq, keyin undov belgisi qo'yiladi: *Nima bo'ldi, gapirsangiz-chi?!*

2) his-hayajon kuchli bo'lsa, oldin undov, keyin so'roq belgisi qo'yiladi: *Farzand qanday oqlar ona haqqini!?*

3) ayrim hollarda his-hayajonning o'ta kuchliligini ifodalash uchun uchta katta undov belgisi ketma-ket qo'yiladi: *O'lim yovga!!!*

4) biror sabab bilan uzilib qolgan his-hayajon gapning oxiriga undov belgisi va undan keyin ketma-ket ikkita nuqta qo'yiladi: *Men etim o'sganman, oh, u etimlik!.. (G'.G'.)*

Ma'ruza ta'lim texnologiyasi modeli

| | |
|---|---|
| **Ma'ruzaga ajratilgan vaqt**– 2 s | **Talabalar soni** – 90ta |
| **O'quv mashg'ulotining shakli** | Ma'ruza |
| **O'quv mashg'ulotining tuzilishi** | 1. Ma'ruzaga kirish.<br>2. Ma'ruzani amalga oshirish tartibi bilan tanishtirish.<br>3. Ma'ruzalar bilan tanishish.<br>4. Ma'ruza yuzasidan muhokamalarni tashkil etish.<br>5. Ma'ruzalar yuzasidan umumiy xulosalarga kelish.<br>6. Ma'ruzani yakunlash. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi** | Talabalarda fanning rivojlanishi haqidagi bilimlarni tarkib toptirish |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>3) Ma'ruzaning maqsad va vazifasini tushuntirish;<br>2) Ma'ruzani amalga oshirish tartibini bayon etish;<br>3) ma'ruzalarni tinglash jarayonini tashkil etish;<br>4) ma'ruza yuzasidan muhokamalar jarayonini boshqarish;<br>5) ma'ruzalar yuzasidan umumiy xulosalar qabul qilish. | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>11) ma'ruzalarni taqdim etishadi va tinglab borishadi;<br>12) ma'ruzalardagi eng asosiy jihatlarni ajratib olib, o'z daftarlariga qayd etadilar;<br>13) ma'ruzalar yuzasidan savollar bilan murojaat etishadi;<br>14) ma'ruza yuzasidan muhokama uchun so'zga chiqadilar;<br>15) ma'ruzalar yuzasidan umumiy xulosalar qabul qilishda o'z munosabatlarini bildirishadi. |
| **Ta'lim metodi** | Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, |

4-

| | |
|---|---|
| | munozara, dasturlashtirilgan topshiriqlar |
| **Ta'limni tashkil etish shakli** | Ma'ruza, ommaviy |
| **Didaktik vositalar** | Ma'ruza matni, slayd-prezentatsiya, tarqatma materiallar |
| **Ta'limni tashkil etish sharoiti** | Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat** | O'z-o'zini nazorat qilish. |

**Mavzu:Gap bo'laklari. Bosh bo'laklar. Ega va uning ifodalanishi.**

**Ma'ruzaning texnologik kartasi**

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| **Tayyorgarlik bosqichi** | (16) Ma'ruza mavzulari, ma'ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi.<br>(17) Ma'ruzachilarga mavzularni berishni, taqrizchilarni aniqlashlashtirishni tashkillashtiradi.<br>(18) Ma'ruzachilarga tanlangan mavzu bo'yicha referat mavzusini batafsil tuzish topshirig'ini beradi, maslahat beradi.<br>(19) Barcha talabalarga ma'ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganib chiqish va savollar tayyorlab kelish topshirig'ini beradi.<br>(20) Ma'ruzachilar bilan ma'ruza qilish metodikasi va tuzilishini muhokama qiladi, ma'ruza mazmuniga o'zgartirishlar kiritadi. | Ma'ruzachilar mavzuni tanlaydilar va uning rejasini tuzadilar. Qolganlari ma'ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganadilar, ma'ruzachilarga savollar tuzadilar. Ma'ruzachilar referat yozishadi va ko'rgazmali materiallar tayyorlashadi. |
| **1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat** | 1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni o'tkazish rejasini ma'lum | Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar va javob beradilar. |

| | | |
|---|---|---|
| **bosqichi)**<br>**(20 minut)** | qiladi.<br>1.2. Talabalar diqqatini jalb etuvchi dasturlashtirilgan topshiriqlar beradi.<br>1.3. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. | Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar. |
| **2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi)**<br>**(50 minut)** | 2.1. Talabalarni o'zlari tayyorlagan ma'ruza va ma'lumotlar bilan tanishtirishlarini tashkil etadi. Material mazmunining mantiqan yoritib berilishini diqqat bilan kuzatadi.<br>2.2. Taqrizchilarga so'zga chiqishni va savollar berishni taklif etadi.<br>2.3. Ma'ruza mazmunini jamoa bo'lib muhokama qilish jarayonini tashkil etadi:<br>- taqrizchilarga o'z fikrlarini bildirishlarini, qo'shimcha savollar berishni taklif etadi;<br>- savollar beradi;<br>- ma'ruzaning asosiy mohiyatini aniqlashtiradi.<br>2.4. Har bir ma'ruzaniqisqacha umumlashtirish bilan yakunlaydi. | Ma'ruzachilar o'zlari tayyorlagan ma'lumotlarini taqdim etishadi.<br>Taqrizchilar ma'ruzaning ijobiy va kuchsiz jihatlarini aytib berishadi.<br>Savollar beradilar.<br>Munozarada ishtirok etadilar.<br>Munozara ishtirokchilari jamoaviy ravishda ma'ruza mazmunini muhokama qiladilar. |
| **3-bosqich. YAkuniy (fikrlash bosqichi)**<br>**(10 minut)** | 3.1. Ma'ruza jarayonida olingan ma'lumotlarni guruhlash maqsadida talabalarga LTQ ko'rinishidagi tarqatma materialni beradi.<br>3.2. O'quv faoliyati natijalariga yakun yasaydi. Ma'ruza ma'ruzachilari va ishtirokchilari tayyorgarligini, talabalarning munozaralardagi faolligini | Tinglaydilar, aniqlashtiradilar va vazifani yozib oladilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | baholaydi.<br>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi. | |

**1-ilova.Dasturlashtirilgan topshiriq savollari:**

1. Gap bo'laklarining asosiy belgisi nimada?
2. Nega bosh va ikkinchi darajali bo'laklar deb ataladi?
3. Ega qanday so'z turkumlari bilan ifodalanadi?
4. Ega nega shunday nomlangan?

**2-ilova. Ma'ruza mashg'uloti dokladlari mavzulari**:

1. Gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot.
2. Ega va uning xususiyatlari. haqida ma'lumot.
3. Eganing ifodalanishi haqida ma'lumot.
4. Eganing o'ziga xos tomonlari haqida ma'lumot.

**3-ilova. Xulosani shakllantirish uchun savollar:**

1. Gap bo'laklari qanday aniqlanadi?
2. Ega qanday aniqlanadi?
3. Eganing mustaqil so'zlar bilan ifodalanishi bo'yicha qanday holatlarni bilasiz?
4. Eganing yordamchi so'zlar bilan ifodalanishi bo'yicha qanday holatlarni bilasiz?

**Dasturlashtirilgan topshiriq natijalari:**

| Savol № | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|---|
| Javob № | | | | |
| Natija | | | | |

Talaba F.I.O.

**Baho** **O'qituvchi imzosi**

5-ilova. Tarqatma material

1. Men o'sha gazetani hamon saqlayman. (H.G'.)
2. Shu orada tramvay to'xtagan edi. (O.)
3. Qilichning tig'i go'yo taxtaga aylanib qolgan edi. (G'.G'.)
4. Keng dala yo'lida qatnovchilar siyrak. (O.)
5. SHu vaqtda qadrdon agronom olisdan ko'rinib qoldi. (O.)
6. Nafasi qisadigan dardi bor u kishining. (S.An.)
7. Bu to'polonlardan bezgan qancha hind beklari qochib kelib mendan panoh topganlar. (P.Q.)
8. Yillar mana shu xilda osoyishta o'tar edi. (A.Q.)
9. Bu soyda, bu orolchalarda qanchadan-qancha sho'xliklari qolgan uning. (S.Ahm.)
10. Saltanat yo'lning pastidagi hu anavi baland imoratda turadi. (O'.Usm.)
11. Uyqu arslonni ham yiqitar. (Maqol)

12. Mening nimam bor, kimim bor. (S.Ahm.)

**6-ilova. Ma'ruza matnidan parchalar**

**Gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot**

Gapda biror so'roqqa javob bo'lgan va o'zaro tobe bog'langan so'z yoki so'z birikmasi **gap bo'lagi** deyiladi. Gap bo'laklarini belgilashda asosiy xususiyat ular orasidagi sintaktik aloqadir. So'zlarga so'roq berish, ularning qaysi turkumga mansubligi, ularning gap ichida joylashish tartibi, ularning qanday qo'shimchalar olishi tom ma'noda ularning turlarini belgilashda asos bo'la olmaydi. Gap bo'laklarining turi odatda bir-biriga nisbatan aniqlanadi: ega kesimga nisbatan, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan, hol hollanmishga nisbatan, to'ldiruvchi to'ldirilmishga nisbatan aniqlanadi. Nisbat beriluvchi bo'lak bo'lmas ekan, u yoki bu gap bo'lagi haqida gapirish mumkin emas. Gap bo'laklari ikki turli bo'ladi: **bosh bo'laklar** va **ikkinchi darajali bo'laklar**. **Ega** va **kesim** gapning **bosh bo'laklaridir**. Ular o'zaro faqat tobe bog'lanadi. Bosh bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil etadi.

Gap bo'laklarini tuzilishiga ko'ra ham ikki turga bo'lishadi:

**1. Oddiy bo'laklar** yakka so'z bilan ifodalanadi (qo'shma, juft so'zlar bilan ifodalansa ham, oddiy bo'lak hisoblanadi): *Dars boshlandi*.

**2. Murakkab bo'laklar** turg'un bog'lanmalar (to'g'ri ma'noli va ko'chma ma'noli), erkin bog'lanmalar bilan ifodalangan bo'laklardir: *Aravani quruq olib qochish (nima?) sizga yarashmaydi* (turg'un bog'lanma). *Uch og'ayni (kim?) shirin suhbat qurishyapti* (erkin bog'lanma).

**Bosh bo'laklar**

**1. Ega va uning ifodalanishi**

Gapda kesim bilan bog'lanib, shu kesimdagi qo'shimchalar ifodalagan shaxs-sonni bildiruvchi va *kim?nima? qaer?* so'roqlariga javob bo'ladigan bo'lak **ega** deb ataladi. ***Odam****(kim?) ko'p,* ***ish*** *(nima?) kam.* ***Atrof*** *(qaer?) jimjit.*

Ega bosh kelishikda bo'lib, odatda, quyidagicha ifodalanadi:

**1. Ot bilan**: ***SHamol*** *gul hidlarini atrofga taratdi.*

**2. Olmosh bilan**:***Ular*** *to'garak mashg'ulotlariga muntazam qatnashadilar.*

**3. Harakat nomi bilan:** ***O'qish****tugadi.*

**4. Otlashgan so'zlar bilan:**

**a) sifat bilan:** ***YAxshilar*** *ko'paysin,* ***yomon****qolmasin.*

**b)son bilan:** ***Ikkovimiz*** *dala aylandik.*

**v)sifatdosh bilan:** ***O'qigan*** *o'zar,* ***o'qimagan*** *to'zar.*

**g) ravish bilan:** ***Ko'plar*** *qatnashdi.*

**d)taqlid so'z bilan:** *To'plarning* ***gumbur-gumburi*** *eshitilardi.*

**e) modal so'zlar bilan**:***Bor*** *boricha,* ***yo'q*** *holicha.*

**5. Ibora bilan:*****Uning yuziga oyoq qo'yish*** *axloqimizga zid.*

**6. Sintaktik birliklar bilan:*****Otlarning otxonaga olib o'tilmagani****Ziyodillani taajjublantirdi.*

Ayrim paytlarda teng aloqadagi bir necha so'z ham butunicha yoki bo'lak-bo'lak ravishda ega bo'lib kelishi mumkin: ***Otam bilan akam*** *bozorga ketishdi.*

Ba'zan ega chiqish kelishigidagi so'zlar bilan ham ifodalanishi mumkin. Bunday paytlarda haqiqiy ega tushirilgan bo'lib, undan oldin kelayotgan chiqish kelishigidagi

so'z ega vazifasini ifodalaydigan bo'lib qoladi: *Undaham bu **kitoblardan** bor*. Bu gapdagi haqiqiy egani tiklash mumkin: *Unda hambu kitoblardan **biri** bor*.

## 5-Mavzu:Kesim, uning ifodalanishi, turlari. Bog`lama haqida ma'lumot. Kesimning ega bilan shaxs va sonda mosligi. Ega bilan kesim orasida tire (-)ning ishlatilishi.

### Ma'ruzaning texnologik kartasi

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O'qituvchi | Talaba |
| **Tayyorgarlik bosqichi** | (21) Ma'ruza mavzulari, ma'ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi.<br>(22) Ma'ruzachilarga mavzularni berishni, taqrizchilarni aniqlashlashtirishni tashkillashtiradi.<br>(23) Ma'ruzachilarga tanlangan mavzu bo'yicha referat mavzusini batafsil tuzish topshirig'ini beradi, maslahat beradi.<br>(24) Barcha talabalarga ma'ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganib chiqish va savollar tayyorlab kelish topshirig'ini beradi.<br>(25) Ma'ruzachilar bilan ma'ruza qilish metodikasi va tuzilishini muhokama qiladi, ma'ruza mazmuniga o'zgartirishlar kiritadi. | Ma'ruzachilar mavzuni tanlaydilar va uning rejasini tuzadilar. Qolganlari ma'ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganadilar, ma'ruzachilarga savollar tuzadilar. Ma'ruzachilar referat yozishadi va ko'rgazmali materiallar tayyorlashadi. |
| **1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (20 minut)** | 1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni o'tkazish rejasini ma'lum qiladi.<br>1.2. Talabalar diqqatini jalb | Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar va javob beradilar.<br>Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish |

| | | |
|---|---|---|
| | etuvchi dasturlashtirilgan topshiriqlar beradi.<br>1.3. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o’tkazish qoidalari, baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. | qoidalari, baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar. |
| **2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut)** | 2.1. Talabalarni o’zlari tayyorlagan ma’ruza va ma’lumotlar bilan tanishtirishlarini tashkil etadi. Material mazmunining mantiqan yoritib berilishini diqqat bilan kuzatadi.<br>2.2. Taqrizchilarga so’zga chiqishni va savollar berishni taklif etadi.<br>2.3. Ma’ruza mazmunini jamoa bo’lib muhokama qilish jarayonini tashkil etadi:<br>- taqrizchilarga o’z fikrlarini bildirishlarini, qo’shimcha savollar berishni taklif etadi;<br>- savollar beradi;<br>- ma’ruzaning asosiy mohiyatini aniqlashtiradi.<br>2.4. Har bir ma’ruzaniqisqacha umumlashtirish bilan yakunlaydi. | Ma’ruzachilar o’zlari tayyorlagan ma’lumotlarini taqdim etishadi.<br>Taqrizchilar ma’ruzaning ijobiy va kuchsiz jihatlarini aytib berishadi. Savollar beradilar. Munozarada ishtirok etadilar.<br>Munozara ishtirokchilari jamoaviy ravishda ma’ruza mazmunini muhokama qiladilar. |
| **3-bosqich. YAkuniy (fikrlash bosqichi) (10 minut)** | 3.1. Ma’ruza jarayonida olingan ma’lumotlarni guruhlash maqsadida talabalarga LTQ ko’rinishidagi tarqatma materialni beradi.<br>3.2. O’quv faoliyati natijalariga yakun yasaydi. Ma’ruza ma’ruzachilari va ishtirokchilari tayyorgarligini, talabalarning munozaralardagi faolligini | Tinglaydilar, aniqlashtiradilar va vazifani yozib oladilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | baholaydi.<br>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi. | |

**1-ilova.Dasturlashtirilgan topshiriq savollari:**

1. Nega kesim deb ataladi?
2. Kesim qanday turlarga bo'linadi?
3. Fe'l kesim qanday ifodalanadi?
4. Ot kesim qanday ifodalanadi?

**2-ilova. Ma'ruza mashg'uloti dokladlari mavzulari:**

1. Kesimning ta'rifi va xususiyatlari haqida ma'lumot.
2. Fe'l kesim haqida ma'lumot.
3. Ot kesim haqida ma'lumot.
4. Ega va kesim ortasida tirening ishlatilishi haqida ma'lumot.

**3-ilova. Xulosani shakllantirish uchun savollar:**

1. Kesim qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
2. Ega bilan kesim shaxsda qanday moslashadi?
3. Ega bilan kesim sonda qanday moslashadi?
4. Qay holatlarda ega bilan kesim o'rtasida tire qo'yilmaydi?

**Dasturlashtirilgan topshiriq natijalari:**

| Savol № | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|---|
| Javob № | | | | |
| Natija | | | | |

Talaba F.I.O.

**Baho** **O'qituvchi imzosi**

5-ilova. Tarqatma material

1. Kengash daragi Ahmadjonni ham umidlantirdi. (H.G'.)
2. Yer yorig'idan bir bochka neftga o't ketganday tim qora, quyuq tutun osmonga o'rlab chiqibdi. (G'.G'.)
3. Mana endi sahroda suv uchun kurashga bosh qo'shmoqda u. (E.Abd.)
4. Ziyod SHermatovich, mana, bosh agronom ham tasdiqlayapti. (T.Malik)
5. Bir tomonda «chars-churs"bilan gulxan yonadi. (O.)
6. Mo'ylovi endigina sabza urgan amakim, ikki ammam shu erda. ("SHarq yulduzi" jurnalidan)
7. Bizning uchastkada kamrog'u, boshqa uchastkalarda urug'i mo'l. (J.Abd.)
8. Uning bu gapida qancha-qancha alam, iztirob bor edi. (S.Ahm.)
9. U so'zidan qaytmaydigan odam. (SH.R.)

10. Dunyoda suyangan birdan-bir odami – men. (S.Ahm.)
11. Men u uchun kimman? (T.Malik)
12. Suv o'ralgan joyda baliq zoti ko'p bo'ladi. (SH.)
13. Menga qolsa, Obid ketmon qishlog'imizning obro'sidir. (A.Qod.) 14. Siz Tolstoy nazariyasiga amal qiladigan kishilardansiz. (S.Ahm.)
15. O'z uyida qoyil bo'lish mag'lub bo'lishdan-da yomon bo'ladi. (T.Murod)
16. Birpasda lohas tortib ketasan kishi. (J.Abd.)
17. Men bunaqa voqealar to'g'risida qancha-qancha kitoblar o'qiganman. (O.YO.)
18. ...qarab tursa, qo'rqib ketasan kishi. (J.Abd.)
19. Kuta-kuta asablaring qo'zg'ab, jig'ibiyron bo'lasan kishi. (J.Abd.)
20. Haydar gapirganiga pushaymon bo'lib, cho'rt burilib ketarkan, qorovul xotinning: - Zamonaning qizlarigayam hayronsan kishi! – deganini eshitdi. (O.YO.)

## 6-ilova. Ma'ruza matnidan parchalar

## Kesim va uning ifodalanishi, turlari

Gapning markazini tashkil etib, tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ifodalab, hukm bildiradigan va gapning boshqa bo'laklarini (ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol) o'z atrofiga birlashtirib keladigan bo'lak **kesim** deb ataladi. Kesim *nima qildi? nima qiladi? nima qilar? qandaydir? (u) kim? (u) nima? (u) nechta?* singari so'roqlarga javob bo'ladi. *Safarov aytgan gaplarni hammamiz* ***tushundik****. Havo* ***mayin****, osmon* ***tip-tiniq****.*

Kesim gapning mazmuniy markazini tashkil etadi, shu sababli boshqa bo'laklar qatnashmasdan ham kesim orqali gap hosil qilish mumkin: *Kelyapti. Boramiz.*

Kesim ifodalagan hukm ikki xil (tasdiq va inkor) bo'lganligi uchun kesim ham t a s d i q kesim va i n k o r kesimga ajraladi: *Men bordim. Men bormadim.* Agar gap tarkibida *sira, aslo, hech, zinhor, birorta ham* so'zlari ishtirok etgan bo'lsa, kesim ham inkor shaklida bo'ladi. Kesimlar mustaqil va nomustaqil turlarga bo'linadi. SHart maylidagi fe'llar, ravishdosh shakllari bilan ifodalanib, qo'shma gap qismlaridan birining kesimi bo'lib kelgan shakllar **nomustaqil kesimlar** deb ataladi: *Dovul* ***ko'tarilib****, yomg'ir yog'adigan bo'lib qoldi. U* ***kelsa****, men ketaman.* Har doim alohida qo'llana oladigan gaplar tarkibida qatnashadigan kesimlar esa **mustaqil kesimlar** hisoblanadi: *Dars boshlandi.*

Kesimlar qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga qarab 2 xil bo'ladi:

**1. Fe'l-kesim** quyidagicha ifodalanadi:

**1) sof fe'l** bilan: *Karimjon maktabdan* ***keldi****.*

**2) sifatdosh** bilan: *Bu kitoblarning barchasi* ***o'qilgan****.*

**3)ravishdosh** bilan: *Bolta* ***tushguncha****, to'nka dam oladi. (Maqol)*

**2. Ot-kesim** quyidagicha ifodalanadi:

**1) bosh, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigidagi otlar** bilan: *O'zbekistonning poytaxti -* ***Toshkent****. Bu sovg'a* ***ukamga****. Uyning kaliti* ***onamda****. Bularning hammasi* ***sevinchdan****.*

**2) sifat** bilan**:** *SHahar* ***go'zal.***

3) olmosh bilan: *Bu narsa**o'z-o'zimniki.***
4) otlashgan son bilan: *Ikki o'n besh - **bir o'ttiz.***
5) ravish bilan: *Dangasaning vaji **ko'p**.*
6) undov so'z bilan: *Buyruqni bajarmaganning holi **voy**.*
7) modal so'z bilan: *Uning ezgu niyatlari **bor**.*
Kesimlar tuzilishiga ko'ra ham ikki turga bo'linadi:
1. Sodda kesim bir so'zdan iborat bo'ladi:
**1) soddafe'l-kesim**: *Men **keldim**.*
**2) sodda ot-kesim**: *Uyat o'limdan **qattiq**.*
**2. Murakkab kesim** kamida ikkita so'zdan tuzilgan bo'ladi:
**1) murakkab fe'l-kesim** quyidagicha tuziladi:
a) ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasidan iborat bo'ladi: *Odamlar **tarqalaboshladi.***
b) sifatdosh va to'liqsiz fe'ldan iborat bo'ladi. *Mashg'ulot haftada bir marta **o'tadigan bo'ldi**. U **kelgan edi.***
v) ibora bilan ifodalanadi: *Sobir **so'zining ustidan chiqdi.***
**2) murakkab ot-kesim** quyidagicha tuziladi: a) ot, sifat, son, olmosh, ravish hamda "*bo'lmoq*" fe'li yoki to'liqsiz fe'ldan iborat bo'ladi: *Mehnat qancha **qiyin bo'lsa**, noni shuncha **shirin bo'ladi.***
b) *yo'q, bor, oz, ko'p, zarur, lozim, kerak, darkor* kabi so'zlar hamda *bo'lmoq* fe'li yoki to'liqsiz fe'ldan iborat bo'ladi: *Uzoqda ko'ringan sharpa bir zumda **yo'q bo'ldi.***
v) harakat nomi hamda *kerak, lozim* kabi so'zlardan iborat bo'ladi, bunda kesimni ega bilan moslashtiruvchi shaxs-son qo'shimchalari harakat nomiga qo'shiladi: *CHoyxona yangi solingan qishki binoga ko'chib kirishi va bayramda ochilishi kerak edi.*

## 3-§. Bog'lama

Ot-kesimni ega bilan bog'lovchi vosita **bog'lama** deb ataladi. Bog'lama ***-dir*** kesimlik qo'shimchasi *( Mehnatning noni shirindir)*, shu qo'shimchaga sinonim bo'lgan *bo'lmoq, hisoblanadi, sanaladi* fe'llari *(U kishi mening ustozim **hisoblanadi**.),* to'liqsiz fe'llar *(U mening do'stim **edi.**),* shuningdek, ot-kesimlarga qo'shilgan shaxs-son qo'shimchalari *(Men o'quvchi**man.)*** bilan ifodalanadi.

### Kesimlik so'zlari

Ayrim mustaqil so'z turkumiga mansub bo'lgan so'zlar *–moq,* *–sh(-ish)*qo'shimchali harakat nomlari bilan kelib kesim tarkibida qatnashadi. Bunday o'z mustaqil ma'nosidan uzoqlashib, gapning fikriy markazi vazifasida kelgan so'zlar **kesimlik so'zlari** deb ataladi (17; 96). Ular ot (*shart*), sifat (*kerak, zarur, lozim, darkor, mumkin, muhim*) turkumlariga tegishli bo'lishi mumkin: *Bu ishni bajarish kerak (lozim, zarur…)*

### Ega bilan kesimning shaxs va sonda o'zaro mosligi

### 1. Shaxsda mosligi

Ega va kesim bir-biri bilan shaxsda hamma vaqt mos bo'ladi: ***Biz** maktab jamoat ishlarida faol **qatnashamiz**.*

**D i q q a t !** Nutqda "*Hayron bo'lasan **kishi***" tarzidagi gaplar qo'llanadi. Bu gapda ega va kesim shaxsda moslashmagan: ega ***(kishi)*** 3 -shaxsda, kesim esa 2-shaxsdadir.

## 2. Sonda mosligi

I. Fe'l-kesim I va II shaxsda ega bilan hamma vaqt sonda mos bo'ladi. ***Biz yordam berdik***.

II. Kesim III shaxsda ega bilan hamma vaqt sonda moslashavermaydi:

1. Kimsani bildirgan III shaxsdagi ega bilan fe'l-kesim sonda mos bo'ladi: ***Dehqonlar*** *ishni* ***boshlab yubordilar***.

2. Ko'plikdagi kimsani emas, narsa-buyumni bildirsa, fe'l-kesim, odatda, ega bilan sonda moslashmay, birlikda ishlatiladi: ***Kitoblar****olindi.*

3. Ot-kesim ko'plikdagi ega bilan ko'pincha moslashmaydi: *Uyda* ***akam, opam va singlim****bor edi*.

4. Gapda eganing aniqlovchisi miqdor son bilan ifodalansa, kesim va ega birlik shaklida bo'ladi: ***Uchta qiz****keldi***.**

## Ega bilan kesim orasida tirening ishlatilishi

I. Quyidagi holatlarda ega bilan kesim orasiga tire qo'yiladi:

1. Gapning kesimi bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanib, bog'lama yoki kesimlik qo'shimchasi bo'lmasa, egadan keyin tire qo'yiladi: *Toshkent – go'zal shahar.*

2. Gapning egasi yoki kesimi yoxud ularning har ikkalasi harakat nomi bilan ifodalansa va bog'lama bo'lmasa, egadan so'ng tire qo'yiladi: *Kulish – umrni uzaytirish vositasi.*

3. Gapning egasi yoki kesimi birikmalar bilan ifodalanib, tenglik, o'xshatish, kabi ma'nolarni bildirsa va bog'lama bo'lmasa, egadan keyin tire qo'yiladi: *YAxshi qiz– yoqadagi qunduz.*

4. Ega yoki kesim ko'rsatish olmoshi yoxud miqdor son bilan ifodalanib, alohida ajratib ko'rsatilsa, bog'lama yoki kesimlik qo'shimchasi bo'lmasa, egadan keyin tire qo'yiladi: *Ana shu– mening uyim.Uch karra uch – to'qqiz.*

5. Ega bilan kesim ***bu, u, mana bu*** so'zlari bilan ajratilgan holatlarda tire shu so'zlardan oldin qo'yiladi: *Istiqlol –* ***bu*** *o'zbek xalqining azaliy orzusi.*

II. Quyidagi holatlarda ega bilan kesim orasiga tire qo'yilmaydi:

1. Ega kishilik olmoshi bilan ifodalangan bo'lsa, bog'lama bo'lmasa ham, tire qo'yilmaydi: *U tajribali iqtisodchi.*

2. Kesim kelishik qo'shimchasini olgan bo'lsa: *Butun umidimiz* ***sendan*.**

3. Ega bilan kesim o'rtasida *ham* yordamchi so'zi bo'lsa: *Men* ***ham*** *kichik paxtakor*.

4. Kesim sifat, son (miqdor sondan tashqari), ravish bilan ifodalansa: *SHahrimiz* ***go'zal****. Kitoblar soni* ***beshta****. Mening orzularim* ***ko'p****.*

| |
|---|
| **D i q q a t !** Ba'zan ta'kidlash ma'nosini kuchaytirish uchun kesimlik qo'shimchasi bo'lishiga qaramay, egadan keyin tire qo'yilishi mumkin: *Adabiyot – hayotning in'ikosidir.* |

| | |
|---|---|
| **Ma’ruzaga ajratilgan vaqt**– 2 s | **Talabalar soni** – ta |
| **O’quv mashg’ulotining shakli** | Ma’ruza |
| **O’quv mashg’ulotining tuzilishi** | 1. Ma’ruzaga kirish.<br>2. Ma’ruzani amalga oshirish tartibi bilan tanishtirish.<br>3. Ma’ruzalar bilan tanishish.<br>4. Ma’ruza yuzasidan muhokamalarni tashkil etish.<br>5. Ma’ruzalar yuzasidan umumiy xulosalarga kelish.<br>6. Ma’ruzani yakunlash. |
| **O’quv mashg’ulotining maqsadi** | Talabalarda fanning rivojlanishi haqidagi bilimlarni tarkib toptirish |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>4) Ma’ruzaning maqsad va vazifasini tushuntirish;<br>2) Ma’ruzani amalga oshirish tartibini bayon etish;<br>3) ma’ruzalarni tinglash | **O’quv faoliyati natijalari:**<br>16) ma’ruzalarni taqdim etishadi va tinglab borishadi;<br>17) ma’ruzalardagi eng asosiy jihatlarni ajratib olib, o’z daftarlariga qayd etadilar;<br>18) ma’ruzalar yuzasidan savollar bilan murojaat etishadi; |

Ma’ruza ta’lim texnologiyasi modeli

| | |
|---|---|
| jarayonini tashkil etish;<br>4) ma'ruza yuzasidan muhokamalar jarayonini boshqarish;<br>5) ma'ruzalar yuzasidan umumiy xulosalar qabul qilish. | 19) ma'ruza yuzasidan muhokama uchun so'zga chiqadilar;<br>20) ma'ruzalar yuzasidan umumiy xulosalar qabul qilishda o'z munosabatlarini bildirishadi. |
| **Ta'lim metodi** | Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, munozara, dasturlashtirilgan topshiriqlar |
| **Ta'limni tashkil etish shakli** | Ma'ruza, ommaviy |
| **Didaktik vositalar** | Ma'ruza matni, slayd-prezentatsiya, tarqatma materiallar |
| **Ta'limni tashkil etish sharoiti** | Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat** | O'z-o'zini nazorat qilish. |

**6-Mavzu: EGALI VA EGASIZ GAPLAR**

**Ma'ruzaning texnologik kartasi**

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| **Tayyorgarlik bosqichi** | (1) Ma'ruza mavzulari, ma'ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi.<br>(2) Ma'ruzachilarga mavzularni berishni, taqrizchilarni aniqlashlashtirishni tashkillashtiradi.<br>(3) Ma'ruzachilarga tanlangan mavzu bo'yicha referat mavzusini batafsil tuzish topshirig'ini beradi, maslahat beradi.<br>(4) Barcha talabalarga ma'ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganib chiqish va savollar tayyorlab kelish topshirig'ini beradi.<br>(5) Ma'ruzachilar bilan ma'ruza qilish metodikasi va tuzilishini muhokama qiladi, ma'ruza | Ma'ruzachilar mavzuni tanlaydilar va uning rejasini tuzadilar. Qolganlari ma'ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganadilar, ma'ruzachilarga savollar tuzadilar. Ma'ruzachilar referat yozishadi va ko'rgazmali materiallar tayyorlashadi. |

| | | |
|---|---|---|
| | mazmuniga o'zgartirishlar kiritadi. | |
| **1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (20 minut)** | 1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni o'tkazish rejasini ma'lum qiladi.<br>1.2. Talabalar diqqatini jalb etuvchi dasturlashtirilgan topshiriqlar beradi.<br>1.3. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. | Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar va javob beradilar.<br>Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar. |
| **2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut)** | 2.1. Talabalarni o'zlari tayyorlagan ma'ruza va ma'lumotlar bilan tanishtirishlarini tashkil etadi. Material mazmunining mantiqan yoritib berilishini diqqat bilan kuzatadi.<br>2.2. Taqrizchilarga so'zga chiqishni va savollar berishni taklif etadi.<br>2.3. Ma'ruza mazmunini jamoa bo'lib muhokama qilish jarayonini tashkil etadi:<br>- taqrizchilarga o'z fikrlarini bildirishlarini, qo'shimcha savollar berishni taklif etadi;<br>- savollar beradi;<br>- ma'ruzaning asosiy mohiyatini aniqlashtiradi.<br>2.4. Har bir ma'ruzaniqisqacha umumlashtirish bilan yakunlaydi. | Ma'ruzachilar o'zlari tayyorlagan ma'lumotlarini taqdim etishadi.<br>Taqrizchilar ma'ruzaning ijobiy va kuchsiz jihatlarini aytib berishadi.<br>Savollar beradilar.<br>Munozarada ishtirok etadilar.<br>Munozara ishtirokchilari jamoaviy ravishda ma'ruza mazmunini muhokama qiladilar. |
| **3-bosqich. YAkuniy (fikrlash** | 3.1. Ma'ruza jarayonida olingan ma'lumotlarni guruhlash maqsadida | Tinglaydilar, aniqlashtiradilar va vazifani yozib |

| | | |
|---|---|---|
| **bosqichi)**<br>**(10 minut)** | talabalarga LTQ ko'rinishidagi tarqatma materialni beradi.<br>3.2. O'quv faoliyati natijalariga yakun yasaydi. Ma'ruza ma'ruzachilari va ishtirokchilari tayyorgarligini, talabalarning munozaralardagi faolligini baholaydi.<br>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi. | oladilar. |

**1-ilova.Dasturlashtirilgan topshiriq savollari:**

1. Nega bu bo'lak hol deb atalgan?
2. Turli darsliklarda holning turlari miqdori qancha deb berilgan?
3. Holni sifatlovchi aniqlovchidan qanday farqlash mumkin?
4. Gap bo'laklarining o'rni deganda nimani tushunasiz?

**2-ilova. Ma'ruza mashg'uloti dokladlari mavzulari:**

1. egali va egasiz gap haqida ma'lumot.
2. Atov gap nima
3. So'z-gap haqida ma'lumot.
4. Gap bo'laklarining joylashuvi haqida ma'lumot.

**3-ilova. Xulosani shakllantirish uchun savollar:**

1. Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gapni farqlang.
2. Egasi yashirin gapning turlari.

4. Gap bo'laklarining o'zgargan tartibi haqida nimalarni bilasiz? Misollar bilan fikringizni isbotlang.

**Dasturlashtirilgan topshiriq natijalari:**

| Savol № | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|---|
| Javob № | | | | |
| Natija | | | | |

Talaba F.I.O.

**Baho** **O'qituvchi imzosi**

4-ilova. Tarqatma material

1. Qaysi gapda egasi yashiringan gap berilgan?

A. Xonaga kirgan avval salom beradi

B. Manzilga mana shu yo`ldan boriladi

C. Topshiriqni o`z vaqtida bajarish kerak
D. Hurmat qilsang, hurmat ko`rasan
2. Qaysi qatorda egasiz gaplar berilgan?
A. Murojaat matni yozildi, imzolar chekildi
B. Eshik ochiq bo`lsa ham, so`rab kir
C. Dam olish kuni kitobxonlar yig`iniga borish kerak
D. Bugun to`garakka borishimiz lozim edi.
3. Qaysi qatorda o`tov gap qo`llanmagan?
A. Hovli zim-ziyo. Ariqdagi suv mildirab oqadi
B. Yam-yashil o`tov. Hulkar bu yerga kelsa qanday quvonadi.
C. Qip-qizil saraton quyoshi. Muloyim jilmayib saxovat bilan nur socha boshladi.
D. Barcha gapda atov gap qo`llangan.
4. Qaysi gapda ega qo`llangan?
A. O`zboshimchalikka yo`l qo`yilmaslik
B. O`quvchi yo`q har qadamda qoqiladi
C. Tarbiyachi va o`qituvchi bo`lish uchun chidam bilan o`qiladi
D. O`zinigina o`ylovchi kishini yaxshi odam deb bo`lmaydi.
5. Shaxsi umumlashgan gapni toping.
A. Aruz vaznining ohangini yurak urishiga o`xshataman
B. Birovning izidan gapirma, o`ziga gapir
C. Zo`r quvonchga faqat katta mehnat bilan erishish mumkin
D. Farzandni gulga, onani bo`stonga o`hshatadilar
E. Bahor. Atrof go`zal.
6. Shaxsi topilmas gapni toping.
A. Kiyimni bo`yga qarab bichadilar
B. Umr bo`yi bilimni boyitib borish lozim
C. Xalqimning baxtu-saodati yo`lida xizmat qilishga tayyorman
D. Do`stini yomonlagandan qoch
E. Orqadan gapirgan do`st emas.
7. Atov gapni toping.
A. Haqiqatni yashirib bo`lmaydi
B. Ko`p yig`lasang, ko`zdan ajraysan
C. Bu yerda bemorni musiqa bilan davolaydilar
D. Bahor. Tog`lar, qirlar yashnab ko`rinadi
E. Ishing oldinga surilishini istasang, tabassumda bo`l.
8. To`liqsiz gapni toping.
A. Shundaymi? - yoqasini ushladi chol
B. – Familyangiz nima? –A’zamxonava.
C. Sabr – umr xazinasi
D. Ertaga Qorabuloqqa borar ekansizda?
E. Bo`ka tumanida istiqomat qilayotgan Ozodaxon Abdullaxonovani taniysizmi?
9. Imtixonlarga puxta tayyorgarlik ko`rdingmi? Ha, tayyorgarlik ko`rdim. Ushbu gapdagi ha so`zini qanday izohlaysiz?
A. gap
B. so`z gap

C. kirish so`z
D. atov gap
E. to`liqsiz gap.
10. Qaysi qatorda bir bosh bo`lakli gap berilgan?
A. Bu yil olma bilan o`rik hosili mo`l bo`ldi
B. Sochilgan urug` tez unib chiqdi
C. Bir tup tok eksang, bir tup tol ek
D. Suvlar tiniq, yaproqlar oltin
E. Gullab yotgan o`rikzor xira pardaga o`raldi
11. Bir bosh bo`lakli gap qo`llangan qatorni toping.
A. Qo`rqoq hamma narsadan mahrum
B. Elni ixtilof buzadi
C. O`tgan narsa hamisha totli
D. Yetmish go`zallikning biri mehnat
E. Toshdan gavharni farq qilish kerak.
12. Bir bosh bo`lakli gapni toping.
A. Insonni bilish uchun uni sevish kerak
B. Nahotki, bugun yomg`ir yog`sa?
C. Hayotning go`zalligi ham xalqlarning rang-barangligida emasmi?
D. Sayida bu suhbatni diqqat bilan kuzatdi
E. Ko`p bilgan oz so`zlar.
13. Gap bo`laklari grammatik jihatdan bog`lanmaydigan bo`lak qaysi qatorda qatnashgan?
A. Qaro ko`zim, kelu mardumlig` emdi fan qilg`il
B. Uni tanib bilib keyin so`ray boshladi.
C. Kecha desangiz qor yog`ib qoldi
D. A va C
E. barcha javoblar.
14. Qiziq, anavi kim? Ushbu gapdagi qiziq so`zi qanday gap bo`lagi vazifasini bajargan?
A. kesim
B. sifatlovchi-aniqlovchi
C. ega
D. undalma
E. kirish so`z
15. Bir bosh bo`lakli gap qaysi qatorda berilgan?
A. Saiyda shuni tezroq bilgisi kelardi
B. Hozir soat o`n bir.
C. Saida shuni tezroq bilmoqchi edi
D. Soat o`n birdan qirq besh minut o`tdi
E. Bo`ldiradigan ham xotin, o`ldiradigan ham xotin!
16. Sodda yig`iq gap berilgan gapni toping.
A. Alisher o`ylanib qoldi
B. Yigit ham shunaqa bo`ladimi?
C. Siz farg`onalikmisiz?
D. Sen shermisan?!... Sen beburd yaramassan

E. Barcha javoblar to`g`ri.
1. Ikki bosh bo`lakli gap qaysi qatorda berilgan?
A. Aqqli yoshlar fursatlarini bekorga sochmaydilar, g`ayrat bilan o`qiydilar, ishlaydilar
B. Har kuni sport bilan shug`ullaning
C. Paxtakorlik kasbini ulug`layapmiz
D. Sharqda hamma keksalarni shoir hisoblashadi
E. Vaqtni orqaga qaytarib bo`lmaydi.
2. Bir bosh bo`lakli gapni toping.
A. Ra'no oyoq uchlarini sariq atlas ko`ylagi bilan yashirdi.
B. Aql odamning ko`rki
C. Inson qalbi bilan hazillashmang siz.
D. Yoshlik go`zallik
E. Doim yaxshi niyat tilab yashash kerak.
3. To`liqsiz gapni aniqlang.
A. Bolalik uyda sir yotmas
B. Bolalik uyda g`iybat yo`q
C. Bol shirin boldan bola shirin
D. Qochoqqa shafqat yo`q qo`rqoqqa hurmat.
E. O`ziga boqma so`ziga boq.
4. Siz ham shunday o`ylaysizmi? Aksincha! Ikkinchi qatordagi gap qaysi javobda to`g`ri izohlangan?
A. to`liqsiz gap
B. tasdiq bildiruvchi so`z gap
C. inkor so`z gap
D. bir bosh bo`lakli gap
E. Gap emas, undov so`z.
5. Qaysi qatorda ikki bosh bo`lakli gap berilgan?
A. Siz bilan bu haqda gaplashishga to`g`ri keladi
B. Ertalabki salqinda yetib borish kerak
C. Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo`l
D. Katta qizi bir choynak va ikkita piyola olib kirdi.
E.Endi astoydil o`qishga to`g`ri keladi.
6. Qaysi qatorda so'z - gaplar qo'llangan?
A. -- Sening bundan xabaring bormi, Ali? -- Yo'q, ustod.
B. -- Ulardan xat keladimi? -- Keladi, keladi.
C. -- Shu voqeadan so'ng kuyovingiz aniq kelganmi edi? -- Kelgan edi, qizim.
D. -- Siz qayerdan, mehmon? -- Toshkentdan

**6-ilova. Ma'ruza matnidan parchalar**

## EGALI VA EGASIZ GAPLAR

Gapning grammatik asosi ega va kesimdan iborat bo`lsa egali gaplar, faqat kesim qismidan iborat bo`lsa egasiz gaplar deyiladi. Masalan: ***Men*** *gullarni yaxshi* ***parvarish qilyapman.****Derazadan ko`chaga* ***tikilaman.***

Egali (ikki bosh bo`lakli) gaplarda ega ham kesim ham qatnashadi: *Uquvi yo`q har joyda qoqiladi.Chumchuqdan qo`rqqan tariq ekmaydi.*




Egasiz gaplar shaxs tushunchasi ifodalanishiga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi: Egasi yashiringan gaplar va egasiz gaplar. Egasi yashiringan gaplarda gapning kesimi orqali uning bajaruvchisiga - shaxsiga ishora qilinadi: *Katta tanaffusda zalga to`plandik. Sanamay sakkiz dema.*

Egasi yashiringan gaplar ikki turli bo`ladi: egasi (shaxsi) ma'lum gaplar va egasi (shaxsi) umumlashgan gaplar.

**Egasi (shaxsi) ma'lum gap**larda gapning egasi matndan, nutq sharoitidan, kesimning shas-son shaklidan ma'lum bo`lib turadi. Bunday gaplarning kesimi 1- yoki 2-shaxs shaklida bo`ladi: *Ota-onalarga yordam berdik.* Otlarga qara, qarindosh.

**Egasi (shaxsi) umumlashgan gap**da kesimi 2-shaxs shaklida bo`lsa ham, ega real ifodalanmaydi, ko`pincha maqollarda qo`llaniladi, mazmunan uchala shaxsga taalluqli bo`ladi: Ye*r haydasang, kuz hayda. .Avval o`yla, keyin so`yla.*

**Egasiz gaplarda** ega umuman bo`lmaydi**.** Kesimdagi shaxs-son qo`shimchalari orqali egani tiklab bo`lmaydi. *To`nni bo`yga qarab bichadilar. Xom mevani yeb bo`lmaydi.*

Egasiz gaplar 3 turga: shaxsi noma'lum gaplar, atov gaplar, so`z gaplarga bo`linadi.

**Shaxsi noma'lum gap**larda kesim fe'l bilan ifodalanadi va ish-harakatni bajarishga imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak kabi ma'nolarni ifodalab keladi. Bunday gaplar kesimining eng muhim belgisi uning tarkibida egalik qo`shimchasining yo`qligidir. Bu gaplarda mantiqan ish-harakat bajaruvchisi mavjud bo`ladi, lekin uni gapda ifodalab bo`lmaydi. Masalan: *Zalda chekib bo`lmaydi. Majlisda qatnashish kerak. Xonada shovqin qilinmasin.*

**Atov gaplar**da narsa buyumning mavjudligi yoki voqea-hodisa atash yo`li bilan ifodalanadi. Atov gaplar so`zlovchi ko`z o`ngida biror voqea-hodisani, narsa-buyum, davr yoki joyni gavdalantirishga xizmat qiladi. Atov gapdan keyin uning mazmunini izohlovchi gap beriladi: *Qish. Sovuq shamol esyapti.* Atov gap yig`iq va yoyiq shaklda bo`ladi. Yig`iq atov gaplar bitta so`zdan iborat bo`ladi: *vahor. Dalalarda ish qizg`in.* Yoyiq atov gaplar aniqlovchi bilan kengayib keladi: *Karimlarning uyi. Hech kim ko`rinmaydi.*

Yoyiq atov gaplar kengaygan harakat nomli birikmalar bilan ham ifodalanishi mumkin: Sokin qishloq ko`chalarida sayr qilish. Bu mening bolalikdan seBimli mashg`ulotim.

Atov gaplar asosan badiiy va publitsistik (ommabop) uslublarda qo`llaniladi. *Qip-qizil saraton quyoshi. Muloyim jilmayib saxovat bilan nur socha boshladi.*

## SO`Z – GAPLAR

Bir so`zdan iborat bo`lib, tarkibga ajrala olmaydigan, boshqa so`zlar bilan kengaya olish imkoniyatiga ega bo`lmagan gaplar so`z – gaplardir. So`z – gaplar sodda gapning alohida bir ko`rinishi sanaladi. Ular tasdiq, inkor, so`roq, taajjub, his-hayajon kabilarni ifoda etib, asosan dialogli matnlarda qo`llanadi. Masalan:

- *Sog`ligingiz yaxshimi?* -*Qabulga birga kiramizmi?*
- ***Rahmat, bolam*.** –***Ha.***

Kishilar o`rtasidagi oddiy muomalada tez-tez ishlatilib turadigan bir so`z yoki iboralar so`z-gaplar vazifasida qo`llanadi: *assalomu alaykum, marhamat, hormang, xush kelibsiz, labbay, qulluq, yoqimli ishtaha* kabi.

## TO`LIQ VA TO`LIQSIZ GAPLAR

Gaplar o`z bo`laklarining to`la ifodalangani yoki ifodalanmay qolganiga ko`ra ikki turga bo`linadi: to`liq gaplar va to`liqsiz gaplar.

Biror bo`lagining ifodalanmaganligi sezilmaydigan, fikr ifodasi uchun zarur barcha bo`laklari saqlangan gaplar to`liq gaplar deyiladi: *Oqsoqol yalt etib menga qaradi. Samarqandga bugun jo`naymiz.*

Nutq vaziyatidan ma'lum bo`lgan ayrim bo`laklari tushirilgan gap to`liqsiz gap deyiladi. Masalan: -*Yig`in qachon bo`ladi*? - ***Ertalab.***

To`liqsiz gapda qaysi bo`lakning qo`llanilishi, qaysi bo`lakning tushirilishi faqat nutq sharoitiga ko`ra yuz beradi. To`liqsiz gaplar dialoglarda, so`zlashuv nutqida va badiiy uslubda keng qo`llanadi. To`liqsiz gaplarda quyidagi gap bo`laklari tushib qolishi mumkin:

- kesim: -*Kim keldi?* ***-Onam.***
- *ega:- Siz qayerdan, mehmon?* ***-Toshkentdan****.*
- ega va kesim: -*Biz hozir qayerdan o`tamiz?* ***-Ko`prikdan.***
- to`ldiruvchi: -*Karimni ko`rdingmi?* ***-Ko`rdim.***
- hol: -*Darsdan chiqdingmi?* ***Chiqdim.***

- To`liqsiz gaplar – ko`pincha dialoglarda qo`llaniladi. Nutq talabi bilan ularda biror bo`lak yoki bo`laklar ifodalanmaydi: Sizning ismingiz nima? – **Ra'no.** – to`liqsiz gap. Demak to`liqsiz gap nutq jarayonida mazmunan to`lishi mumkin bo`lgan va bo`laklarga ajrala oladigan gapdir.

To`liqsiz gapning yana bir turi qo`shma gap shaklida bo`ladi. Bunda qo`shma gapning bir qismi to`liqsiz gap bo`ladi: *Na xat bor, na xabar. Na sen gapirding, na men.Kattaga hurmatda bo`l, kichikka izzatda.*

Ma’ruza ta’lim texnologiyasi modeli

**7-Mavzu:Ikkinchi darajali bo’laklar. Hol, uning turlari: ravish, payt, o‘rin, sabab va maqsad hollari. Miqdor-daraja, shart va to‘siqsizlik hollari, ularning ifodalanishi. Gap bo’laklarining joylashish tartibi.**

## Ma’ruzaning texnologik kartasi

| | |
|---|---|
| **Ma’ruzaga ajratilgan vaqt**– 2 s | **Talabalar soni** – 90ta |
| **O’quv mashg’ulotining shakli** | Ma’ruza |
| **O’quv mashg’ulotining tuzilishi** | 1. Ma’ruzaga kirish.<br>2. Ma’ruzani amalga oshirish tartibi bilan tanishtirish.<br>3. Ma’ruzalar bilan tanishish.<br>4. Ma’ruza yuzasidan muhokamalarni tashkil etish.<br>5. Ma’ruzalar yuzasidan umumiy xulosalarga kelish.<br>6. Ma’ruzani yakunlash. |
| **O’quv mashg’ulotining maqsadi** | Talabalarda fanning rivojlanishi haqidagi bilimlarni tarkib toptirish |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>5) Ma’ruzaning maqsad va vazifasini tushuntirish;<br>2) Ma’ruzani amalga oshirish tartibini bayon etish;<br>3) ma’ruzalarni tinglash jarayonini tashkil etish;<br>4) ma’ruza yuzasidan muhokamalar jarayonini boshqarish;<br>5) ma’ruzalar yuzasidan umumiy xulosalar qabul qilish. | **O’quv faoliyati natijalari:**<br>21) ma’ruzalarni taqdim etishadi va tinglab borishadi;<br>22) ma’ruzalardagi eng asosiy jihatlarni ajratib olib, o’z daftarlariga qayd etadilar;<br>23) ma’ruzalar yuzasidan savollar bilan murojaat etishadi;<br>24) ma’ruza yuzasidan muhokama uchun so’zga chiqadilar;<br>25) ma’ruzalar yuzasidan umumiy xulosalar qabul qilishda o’z munosabatlarini bildirishadi. |
| **Ta’lim metodi** | Ma’ruza, tushuntirish, suhbat, munozara, dasturlashtirilgan topshiriqlar |
| **Ta’limni tashkil etish shakli** | Ma’ruza, ommaviy |
| **Didaktik vositalar** | Ma’ruza matni, slayd-prezentatsiya, tarqatma materiallar |
| **Ta’limni tashkil etish sharoiti** | Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat** | O’z-o’zini nazorat qilish. |

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O’qituvchi** | **Talaba** |
| **Tayyorgarlik bosqichi** | (6) Ma’ruza mavzulari, ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro’yxatini beradi.<br>(7) Ma’ruzachilarga mavzularni berishni, taqrizchilarni aniqlashlashtirishni tashkillashtiradi.<br>(8) Ma’ruzachilarga tanlangan mavzu bo’yicha referat mavzusini batafsil tuzish topshirig’ini beradi, maslahat beradi.<br>(9) Barcha talabalarga ma’ruza va qo’shimcha materiallar mazmunini o’rganib chiqish va savollar tayyorlab kelish topshirig’ini beradi.<br>(10) Ma’ruzachilar bilan ma’ruza qilish metodikasi va tuzilishini muhokama qiladi, ma’ruza mazmuniga o’zgartirishlar kiritadi. | Ma’ruzachilar mavzuni tanlaydilar va uning rejasini tuzadilar. Qolganlari ma’ruza va qo’shimcha materiallar mazmunini o’rganadilar, ma’ruzachilarga savollar tuzadilar. Ma’ruzachilar referat yozishadi va ko’rgazmali materiallar tayyorlashadi. |
| **1-bosqich. O’quv mashg’ulotiga kirish (Da’vat bosqichi) (20 minut)** | 1.1. O’quv mashg’ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni o’tkazish rejasini ma’lum qiladi.<br>1.2. Talabalar diqqatini jalb etuvchi dasturlashtirilgan topshiriqlar beradi.<br>1.3. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o’tkazish qoidalari, baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. | Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar va javob beradilar.<br>Ishga ajratilgan vaqt, munozara o’tkazish qoidalari, baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar. |
| **2-bosqich. Asosiy** | 2.1. Talabalarni o’zlari tayyorlagan ma’ruza va | Ma’ruzachilar o’zlari tayyorlagan |

| | | |
|---|---|---|
| **(Anglash bosqichi) (50 minut)** | ma'lumotlar bilan tanishtirishlarini tashkil etadi. Material mazmunining mantiqan yoritib berilishini diqqat bilan kuzatadi.<br>2.2. Taqrizchilarga so'zga chiqishni va savollar berishni taklif etadi.<br>2.3. Ma'ruza mazmunini jamoa bo'lib muhokama qilish jarayonini tashkil etadi:<br>- taqrizchilarga o'z fikrlarini bildirishlarini, qo'shimcha savollar berishni taklif etadi;<br>- savollar beradi;<br>- ma'ruzaning asosiy mohiyatini aniqlashtiradi.<br>2.4. Har bir ma'ruzaniqisqacha umumlashtirish bilan yakunlaydi. | ma'lumotlarini taqdim etishadi. Taqrizchilar ma'ruzaning ijobiy va kuchsiz jihatlarini aytib berishadi. Savollar beradilar. Munozarada ishtirok etadilar. Munozara ishtirokchilari jamoaviy ravishda ma'ruza mazmunini muhokama qiladilar. |
| **3-bosqich. YAkuniy (fikrlash bosqichi) (10 minut)** | 3.1. Ma'ruza jarayonida olingan ma'lumotlarni guruhlash maqsadida talabalarga LTQ ko'rinishidagi tarqatma materialni beradi.<br>3.2. O'quv faoliyati natijalariga yakun yasaydi. Ma'ruza ma'ruzachilari va ishtirokchilari tayyorgarligini, talabalarning munozaralardagi faolligini baholaydi.<br>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi. | Tinglaydilar, aniqlashtiradilar va vazifani yozib oladilar. |

**1-ilova.Dasturlashtirilgan topshiriq savollari:**

1. Nega bu bo'lak hol deb atalgan?
2. Turli darsliklarda holning turlari miqdori qancha deb berilgan?
3. Holni sifatlovchi aniqlovchidan qanday farqlash mumkin?
4. Gap bo'laklarining o'rni deganda nimani tushunasiz?

**2-ilova. Ma'ruza mashg'uloti dokladlari mavzulari:**

1. Holning ta’rifi va so’roqlari haqida ma’lumot.
2. Ravish, payt, o‘rin, sabab va maqsad hollarihaqida ma’lumot.
3. Miqdor-daraja, shart va to‘siqsizlik hollari haqida ma’lumot.
4. Gap bo’laklarining joylashuvi haqida ma’lumot.

## 3-ilova. Xulosani shakllantirish uchun savollar:

1. Hol qanday so’roqlarga javob bo’ladi? Misollar keltiring.
2. Ravish, payt, o‘rin, sabab va maqsad hollari qanday ifodalanadi? Misollar keltiring.
3. Miqdor-daraja, shart va to‘siqsizlik hollari qanday ifodalanadi?Misollar keltiring.
4. Gap bo’laklarining o’zgargan tartibi haqida nimalarni bilasiz? Misollar bilan fikringizni isbotlang.

## Dasturlashtirilgan topshiriq natijalari:

| Savol № | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|---|
| Javob № | | | | |
| Natija | | | | |

Talaba F.I.O.

**Baho** **O’qituvchi imzosi**

4-ilova. Tarqatma material

1. Namozgar paytida ko’chada qiy-chuv, dod-faryod bo’lib qoldi. (A.Q.) 2. – U kishini qaerdan topsa bo’ladi? – Ulgursangiz uyidan topasiz. (T.Malik)
3. Erta bilan hamma ish sari oqmoqda, quyosh esa asta-sekin qizib, nurlarini har tomon sochmoqda edi. (H.O.)
4. Muharrir chuqur uf tortdi, peshonasini ishqaladi, keyin mumkin qadar sovuqqonlik bilan so’radi. (A.Q.)
5. U o’zini qanchalik beg’am tutmasin, bari bir ota-ona hasrati ahyon-ahyonda qalbini asta tirnab o’tardi. (J.Abd.)
6. Nizomjon ularning suhbatiga xalal bermaslik uchun vaqtlikkina chaylasiga qarab ketdi. (S.Ahm.)
7. SHu choq leytenant Steklovning shamollagan xirqi ovozi gurilladi. (O.)
8. Mahallada Nazir olifta degan nom chiqardi. (O’.Umarbekov)
9. Nima qilay, Nuri opa, tong qorong’isidan beri menga tinim yo’q. (O.)
10. YOsh bo’lsangiz ham katta bar tumanga rahnamosiz, Abrorjon. (O.YO.)
11. Otasiga aytadigan gapmi shu? Yo’q, otasiga emas, Mehrinisoga aytadigan gap-ku bu! (O.YO.)
12. Dasht azobiga dosh berolmay, ko’pchilik quyon bo’lganida ham er-xotin bilan oshpaz xola chekinishmagan edi o’z ahdlaridan! (O.YO.)
13. Mana endi sahroda suv uchun kurashga bosh qo’shmoqda u.(J.Abd.)
14. Nima sir bor ekan bunda? YOki meni yana sinash uchun topshirishdimi bu ishni? (T.Malik)

15. Qancha ko'p kitob o'qimasin, shuncha ko'p mushkullik tug'ilib qolardi uning oldida.(J.Abd.)
16. Biroq berilgan topshiriqlarni bajarishi bilan yana yangi vazifa yuklardi unga. (J.Abd.)
17. Jannatmakon ustodning yaxshiliklariga mislsiz yomonlik qilgan edi bu amir.(O.YO.)
18. – Ana xolos, gap qopi ochilib ketdi-ku buning. (J.Abd.)
19. - ...Nomusga o'ldirdi bu meni. (S.Ahm.)
20. Bu yillarda afg'on xalqi ingliz hukmdorlariga qarshi ikki bor qo'zg'aldi. (Mirm.)

## 6-ilova. Ma'ruza matnidan parchalar
## IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLAR

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari bosh bo'laklarga tobe bo'lib, ularni to'ldirib, aniqlab, izohlab keladi. Ikkinchi darajali bo'laklar 3 xil: **to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol.**

### Hol, uning turlari va ifodalanishi

Ko'pincha fe'l-kesimga bog'lanib, uning belgisini bildirgan bo'lak **hol** deb ataladi: *Yomg'ir to'xtovsiz yog'yapti.*

Hol ba'zan ot-kesimga ham bog'lanadi: *Ko'chada odam ko'p.*

Hol ma'nosiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

**1) vaziyat (ravish, tarz) holi***qanday? qay holda? qay tarzda?*kabi so'roqlarga javob bo'ladi va har doim **fe'lga** bog'lanadi. Vaziyat hollari ravish, ravishdosh, ot, sifat, olmosh, taqlidiy so'zlar, ibora bilan ifodalanadi: *U diqqat bilan tingladi. Ukam chiroyli yozadi. U shoshmasdan jo'nadi. Rais bilan ikkisi do'stlarcha xayrlashdi. U qorovul bo'lib turdi. Daraxt barglari duv to'kildi. Buni qanday bajarasiz? Boshini eggan holda kelardi.*

Ko'makchilar yordamida shakllangan vositali to'ldiruvchilar bilan xuddi shu ko'rinishda shakllangan vaziyat hollari savollariga qarab farqlanadi: *Paxta mashina bilan terildi* (nima bilan? - to'ld.). *Paxta havas bilan terildi* (qanday? - hol).

Ravishdosh bilan ifodalangan vaziyat holi o'ziga tobe bo'lgan bo'laklar bilan so'z birikmasini hosil qilishi mumkin: *Eshikni sekin ochib, ichkariga qaradi.* Bu **yoyiq vaziyat holi** deb ataladi.

**2) o'rin holi***qayerga? qayerda? qayoqqa? qayerdan?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi va ko'pincha o'rin ravishi, ot, olmoshlar bilan ifodalanadi: *Bolalar ko'chaga chiqib ketishdi. U orqadan qochdi. Bunda bulbul kitob o'qiydi...(h.O.)* Jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigidagi so'zlar ham hol, ham to'ldiruvchi bo'lib keladi, bunda ular savolga qarab farqlanadi: *U maktabga bordi* (qayerga? - hol). *Menga gapirdi* (kimga? - to'ld.).

**3) payt holi***qachon? qachongacha? qachondan beri? qayvaqt?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi va ko'pincha ot, payt ravishi, olmosh, payt ravishdoshi, sifatdosh, harakat nomi, son, sifat bilan ifodalanadi: *Imtihonlar yozda bo'ladi. Bugun maktabim yonidan o'tdim. Shunda men bir sapchib tushganman. Nafasimni rostlagach, tikilibroq*

*qaradim. O'qiyotganimda buni sezib qoldim. Qaytishda siznikiga kirib o'tamiz. Qo'lim bo'shida o'qiyman. Yig'ilish uchda bo'ladi.*

**4) miqdor holi***qancha?, qanchalab?, nechalab?, necha marta?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi va ko'pincha miqdor-daraja ravishlari, son, sifat va miqdor-daraja ma'nosini bildirgan so'z birikmalari bilan ifodalanadi: *Men juda ko'p qayg'urdim. O'n marta eshitgandan, bir marta ko'rgan afzal. Bir onda o'z kuchining o'lchovsiz darajada o'sga-nini sezdi. Siz qancha terdingiz? Bular qop-qop terib qo'yishdi. Men o'ylagan darajada qilisharmikan?*

**5) sabab holi***nima sababdan? nima sababli? nima uchun? nimaga? nega?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

a) sabab ravishi bilan: *Otasi noiloj ko'ndi.*

b) *-lik, -siz+lik, -gan+lik* qo'shimchali chiqish kelishigidagi otlar, sifatdoshdan keyin *-dan* qo'shimchasini keltirish bilan: *Salima opa quvonganidan hech gapira olmas edi.*

d) *-gani, -ganligi* qo'shimchali so'zlardan keyin *sababli, tufayli, uchun* so'zlaridan birini keltirish bilan: *U o'qimagani uchun bilmadi.*

**6) maqsad holi***nima maqsadda? nima uchun? nima qilgani? nima qilgali? nega?* so'roqlariga javob bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

a) maqsad ravishi bilan: *Men ataýin gapirmadim.*

b) jo'nalish kelishigidagi harakat nomi yoki harakat nomidan keyin ***uchun*** ko'makchisini keltirish bilan: *U o'qish uchun keldi.*

d) maqsad ravishdoshi bilan: U o'qigani keldi.

e) fe'ldan so'ng *uchun, deb* so'zlarini keltirish bilan: *O'qiyman deb keldi.*

f) harakat nomidan keyin ***maqsadida, maqsadda, maqsadi bilan*** so'zlarini keltirish yordamida: *Gulnor opa bafurja gaplashish maqsadida keldi.*

**7) shart holi***nima qilsa(-m , -ng, -k , -ngiz*) so'rog'iga javob bo'ladi va bir harakatning bajarilishi uchun shart bo'lgan ish-harakatni bildiradi: *Eksang o'rasan. Qaytarish sharti bilan oldi..*

**8) to'siqsizlik holi***nima qilsa (-m, -ng, -k , -ngiz) ham//-da?* so'roqlariga javob bo'lib, bir ish-harakatning bajarilishi uchun to'siq bo'la olmaydigan ish-harakatni bildiradi va *shart fe'li+ham//-da),* ravishdosh, sifatdosh+***bilan*** ko'makchisi, ***qaramay, qaramasdan*** so'zlari qatnashgan qurilma orqali ifodalanadi: *Chaqirilmasa ham qatnashdi. Kichik bo'lgani bilan ancha og'ir edi. Shoshganiga qaramay kutib turdi.*

Ayrim darsliklarda holning yana bir turi ajratiladi: **qurol-vosita holi**. Bu hol *nima bilan? qanday usul bilan?* degan so'roqlarga javob bo'ladi: *Xat qalamda (qalam bilan) yozilgan edi*

**7-ilova. Slaydlar**


Mavzu: Hol va uning turlari
1. Holning ma`nosiga ko'ra turlarga ajratish.
2. Holning ifodalanishi.
A) So'z turkumlari bo'yicha.
3. Holning ravish bilan bog`liqligi.


Sabab
Vaziyat
O'rin
Maqsad
Hol
Payt
Shart
To'siqsizlik
Miqdor


Holning ifodalanishi
Vaziyat holi
Ravish bilan
Vaziyat
Ravishdosh bilan
Vaziyat
Taqlid so'z bilan
Vaziyat
Ibora bilan
Vaziyat
Sifatdosh+holda
Vaziyat
Sifat bilan
Vaziyat


O'rin holi
O'rin ravishi bilan
O'rin
Ot bilan
O'rin
Olmosh bilan
O'rin
Ot, jo'nalish,o'rin – payt, chiqish yoki ko'makchilar bilan birga
O'rin


Payt holi
Payt ravishi bilan
Ot bilan
Olmosh bilan
Payt ravishdoshi bilan
Payt
Sifat bilan
Harakat nomi bilan
Son bilan
Sifatdosh bilan


Sabab holi
Sabab ravishi bilan
Sabab
-lik, -siz +lik,
-gan+lik qo'shimchali
chiqish kelishigidagi
otlar,sifatdosh+dan bilan
Sabab
-gani,
-ganligi+sababli,
tufayli,uchun
Sabab

**8-Mavzu: To'ldiruvchi, uning turlari, ifodalanishi.**

**Ma'ruzaning texnologik kartasi**

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| **Tayyorgarlik bosqichi** | (11) Ma'ruza mavzulari, ma'ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi.<br>(12) Ma'ruzachilarga mavzularni berishni, taqrizchilarni aniqlashlashtirishni tashkillashtiradi.<br>(13) Ma'ruzachilarga tanlangan mavzu bo'yicha referat mavzusini batafsil tuzish topshirig'ini beradi, maslahat beradi.<br>(14) Barcha talabalarga ma'ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganib chiqish va savollar tayyorlab kelish topshirig'ini beradi.<br>(15) Ma'ruzachilar bilan ma'ruza qilish metodikasi va tuzilishini muhokama qiladi, ma'ruza mazmuniga o'zgartirishlar kiritadi. | Ma'ruzachilar mavzuni tanlaydilar va uning rejasini tuzadilar. Qolganlari ma'ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganadilar, ma'ruzachilarga savollar tuzadilar. Ma'ruzachilar referat yozishadi va ko'rgazmali materiallar tayyorlashadi. |
| **1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (20 minut)** | 1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni o'tkazish rejasini ma'lum qiladi.<br>1.2. Talabalar diqqatini jalb etuvchi dasturlashtirilgan topshiriqlar beradi.<br>1.3. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari | Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar va javob beradilar.<br>Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | bilan tanishtiradi. | |
| **2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut)** | 2.1. Talabalarni o'zlari tayyorlagan ma'ruza va ma'lumotlar bilan tanishtirishlarini tashkil etadi. Material mazmunining mantiqan yoritib berilishini diqqat bilan kuzatadi.<br>2.2. Taqrizchilarga so'zga chiqishni va savollar berishni taklif etadi.<br>2.3. Ma'ruza mazmunini jamoa bo'lib muhokama qilish jarayonini tashkil etadi:<br>- taqrizchilarga o'z fikrlarini bildirishlarini, qo'shimcha savollar berishni taklif etadi;<br>- savollar beradi;<br>- ma'ruzaning asosiy mohiyatini aniqlashtiradi.<br>2.4. Har bir ma'ruzaniqisqacha umumlashtirish bilan yakunlaydi. | Ma'ruzachilar o'zlari tayyorlagan ma'lumotlarini taqdim etishadi.<br>Taqrizchilar ma'ruzaning ijobiy va kuchsiz jihatlarini aytib berishadi.<br>Savollar beradilar.<br>Munozarada ishtirok etadilar.<br>Munozara ishtirokchilari jamoaviy ravishda ma'ruza mazmunini muhokama qiladilar. |
| **3-bosqich. YAkuniy (fikrlash bosqichi) (10 minut)** | 3.1. Ma'ruza jarayonida olingan ma'lumotlarni guruhlash maqsadida talabalarga LTQ ko'rinishidagi tarqatma materialni beradi.<br>3.2. O'quv faoliyati natijalariga yakun yasaydi. Ma'ruza ma'ruzachilari va ishtirokchilari tayyorgarligini, talabalarning munozaralardagi faolligini baholaydi.<br>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi. | Tinglaydilar, aniqlashtiradilar va vazifani yozib oladilar. |

**1-ilova.Dasturlashtirilgan topshiriq savollari:**

1. Nega ikkinchi darajali bo'lak deyiladi?
2. To'ldiruvchi qanday aniqlanadi?
3. To'ldiruvchining qanday turlari bor?
4. To'ldiruvchi qanday ifodalanadi?

**2-ilova. Ma'ruza mashg'uloti dokladlari mavzulari:**

1. Ikkinchi darajali bo'laklar haqida umumiy ma'lumot.
2. To'ldiruvchi va uning xususiyatlari. haqida ma'lumot.
3. To'ldiruvchining ifodalanishi haqida ma'lumot.
4. To'ldiruvchining ifodalanishi haqida ma'lumot.

**3-ilova. Xulosani shakllantirish uchun savollar:**

1. Vositali to'ldiruvchi qanday so'roqlarga javob bo'ladi va qanday ifodalanadi?
2. Vositasiz to'ldiruvchi qanday so'roqlarga javob bo'ladi va qanday ifodalanadi??
3. Qay holatlarda vositasiz to'ldiruvchi belgisiz qo'llanadi?
4. Qay holatlarda vositasiz to'ldiruvchi belgili qo'llanadi?

**Dasturlashtirilgan topshiriq natijalari:**

| Savol № | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|---|
| Javob № | | | | |
| Natija | | | | |

Talaba F.I.O.

**Baho** **O'qituvchi imzosi**

4-ilova. Tarqatma material

1. Uning g'amdan ado bo'lgan yuragiga quloq solgan kishi shunday nido eshitardi. (S.Ahm.)
2. Komiljon ochiq chehra bilan Manzuraga qo'l uzatdi. (J.Abd.)
3. Ikki xil fikr bir-biri bilan olishar va qaysinisi g'olib chiqishini o'zi ham bilmay qiynalardi. (J.Abd.)
4. Uning ketidan yana bir necha xotin bolasini mingboshining oyog'i ostiga tashladi. (A.Q.)
5. Kechki shamol g'irillab, dimoqqa xushbo'y hidlar olib keladi. (I.R.)
6. Manzura injenerlikning mas'uliyatini yana bir bor his qildi. (J.Abd.)
7. Bu mahallada ham yangi og'aynilar orttirganman. (G'.G'.)
8. Bahorning shamoli ularni uchirib qaysi bir ovloqlarga tiqib keldi. (T. Malik)
9. Odatdagiday bu kun erta bilan ham Bo'ronboyning xizmatchisi eski qarzlarini so'rab keldi. (H.O.)
10. Xalq asta-sekin qomatini rostladi. (A.Q.)
11. Nihoyat, shang'i samovarchi jo'mragi uchiga jez qoplangan choynakni va bir ola pes piyolani yigitning oldiga do'q etib qo'yib ketdi. (O.)
12. Ko'klamda Nafisadan durustgina dashnom eshitganidan buyon u hayot haqida boshqacharoq, chuqurroq o'ylaydigan bo'lib qoldi.(H.G'.)
13. U ham tog'asi bilan ertaga bo'ladigan marosim to'g'risida, Vohid Mirobidov rahbarligida o'tadigan himoya to'g'risida gaplashishi kerak. (O.YO.)
14. Ko'rsatkich barmog'i bilan shipni ko'rsatdi. – Bari yuqoridan, bizda gap yo'q, - dedi. (T.Murod)
15. Boisi, davra uchun olib kelingan mollar sovuqqa chidayolmay qochib keta berdi. (T.Murod)

16. Ziyo shohichining kulib aytgan so'zlariga qutidor sira ham tushunmas va kutilmagan mehmon-larning kelish sababiniso'ramoqdan iymanar edi. (A.Qod.)
17. U Sanobar bilan yigirma yil yashadi. (S.Ahm.)
18. Tog'am qancha nasihat qildi, men bilan qancha gaplashdi. (O.)
19. Bu kimsasiz, xilvat xaroba qanchadan- qancha yo'lovchilarning mol-joniga zavol bo'lmagan. (K.YAshin)
20. Yo'l-yo'lakay u Nizomjon haqida, alam o'tida qolgan Dildor haqida o'ylab borardi. (S.Ahm.)

## 6-ilova. Ma'ruza matnidan parchalar

## To'ldiruvchi, uning turlari va ifodalanishi

Gapdagi biror bo'lakni to'ldirib, unga boshqaruv yo'li bilan tobe holatda bog'langan bo'lak **to'ldiruvchi** deyiladi. To'ldiruvchi asosan fe'l-kesimga bog'lanadi: *Men bu gapni **ukamdan**eshitdim.*

To'ldiruvchi ikki xil bo'ladi:

**1. Vositasiz to'ldiruvchi** harakatni o'ziga qabul qilgan, harakat bevosita o'ziga o'tgan predmetni bildiradi va *kimni? nimani? qaerni?* so'roqlariga javob bo'ladi. Bu to'ldiruvchi ko'pincha tushum kelishigi shaklidagi so'z bilan ifodalanadi, bunda u harakatni butunlay o'ziga qabul qilgan predmetni ifodalaydi:
1) ot bilan: *YOsh havaskorlar **ashulani** zavq bilan aytdilar.*
2) olmosh bilan: ***Sizni** chaqirishyapti.*
3) otlashgan so'zlar bilan:
a) otlashgan sifat bilan: ***YAxshini** maqtasang yarashadi.*
b) otlashgan son bilan: ***Uchni** uchga ko'paytiring.*
v) otlashgan sifatdosh bilan: ***Bo'linganni** bo'ri er.*
g) otlashgan ravish bilan: ***Ko'pini** sizdan o'rgangan.*
d) otlashgan taqlid so'z bilan: *Etigining **g'arch-g'urchini** eshitdi.*
e) otlashgan undov so'z bilan: ***Oh-vohini** hech kim sezmasin.*
yo) otlashgan modal so'z bilan: ***Borini** sarfladi.*
4) ibora bilan: *O'ziga birovning oz-moz **til teqizishini** ko'tarmasdi.*
5) so'z birikmasi bilan: ***Sen ko'rganni** u ham ko'rgan.*

Vositasiz to'ldiruvchi tushum kelishik qo'shimchasiz ham qo'llanadi*: O'quvchilar hozir **kitob** o'qishyapti.*

Vositasiz to'ldiruvchi ba'zan chiqish kelishigidagi so'z bilan ham ifodalanadi, bunda u harakatni qisman o'ziga qabul qilgan predmetni ifodalaydi: *Qani **oshdan** oling!*

**2. Vositali to'ldiruvchi** *kimga? nimaga? kimda? nimada? kimdan? nimadan? kim bilan? nima bilan? kim haqida?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:
1) ot bilan: *Xatni **qalam bilan** yozdi.*
2) olmosh bilan: *Ravshan **sen bilan** boradi.*
3) otlashgan so'zlar bilan:
a) otlashgan sifat bilan: ***YAxshiga** yondash, **yomondan** qoch.*
b) otlashgan son bilan: ***Beshdan** ikkini ayirish kerak.*
v) otlashgan sifatdosh bilan: ***Aytganimga** ko'nishmadi.*

g) otlashgan ravish bilan: ***Kamiga*** *uzr so'raymiz.*

d) otlashgan taqlid so'z bilan: *Zambaraklarning* ***gumbur-gumburiga*** *quloq soldi.*

e) otlashgan undov so'z bilan: *Uning* ***dod-voyiga*** *quloq solmadi*.

yo) otlashgan modal so'z bilan: ***Boriga*** *shukur qilish kerak.*

4) ibora bilan: ***Og'zi bo'shga*** *ishonib bo'lmaydi.*

5) so'z birikmasi bilan: ***Kecha kelmaganlarga*** *xabar berish kerak.*

Ko'makchilar yordamida shakllangan vositali to'ldiruvchilar bilan xuddi shu ko'rinishda shakllangan vaziyat hollari savollariga qarab farqlanadi: *Paxta* ***mashinabilan*** *terildi (nima bilan?* - to'ld.). *Paxta* ***zavqbilan*** *terildi (qanday?* - hol). Jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigidagi so'zlar doimo to'ldiruvchi bo'lib kelavermaydi, ular hol vazifasini ham bajaradi, bunda ham ular savolga qarab farqlanadi: *U* ***yolg'ondan***(yolg'ondakamiga, jo'rttaga) *hayron bo'ldi (qanday?* - hol*).* *U* ***akasidan*** *eshitdi (kimdan?* - to'ld.*). U* ***maktabga*** *bordi (qaerga?* - hol*).* ***Menga*** *gapirdi (kimga?* - to'ld.*).*

**Mashg`ulot mavzusi:**

**Ikkinchi darajali bo`laklar.**

**To`ldiruvchi, uning turlari va ifodalanishi.**

## TAYANCH ATAMALAR

- **Ikkinchi darajali bo`laklar**
- **Hol**
- **Aniqlovchi**
- **To`ldiruvchi**
- **Vositali to`ldiruvchi**
- **Vositali to`ldiruvchi**
- **Obyekt**

## Ikkinchi darajali bo`1laklarning ta'rifi

Bosh bo`laklardan biriga tobe bog`lanib, ularning ma'nolarini to`ldiradigan, belgilarini aniqlaydigan bo`laklar ikkinchi darajali bo`laklar deb ataladi: ***Buyuk asarlar har doim kitobxonni hayajonlantiradi.***

## To`ldiruvchining ta’rifi

Gapdagi biror bo`lakni to`ldirib, unga boshqaruv yo`li bilan tobe holatda bog`langan bo`lak **toldiruvchi** deyiladi. To`ldiruvchi asosan fe’l kesimga bog`lanadi: ***Men bu gapni ukamdan eshitdim.***

## Vositali to`ldiruvchining ifodalanishi

- ot bilan: ***Xatni qalam bilan yozdi.***
- olmosh bilan: ***Ravshan sen bilan boradi.***
- ibora bilan: ***Og`zi bo`shga ishonib bo`lmaydi.***
- so`z birikmasi bilan: ***Kecha kelmaganlarga xabar berish kerak.***

## Vositali to`ldiruvchining otlashgan so`zlar bilan ifodalanishi

- otlashgan sifat bilan: ***Yaxshiga yondash, yomondan*** *qoch.*
- otlashgan son bilan: ***Beshdan ikkini ayirish kerak.***
- otlashgan sifatdosh bilan: ***Aytganimga ko`nishmadi.***
- otlashgan ravish bilan: ***Kamiga uzr so`raymiz.***
- otlashgan taqlid so`z bilan**:** ***Zambaraklarning gumbur-gumburiga g`ulog` soldi.***
- otlashgan undov so`z bilan**:** ***Uning dod-voyiga g`ulog` solmadi.***
- otlashgan modal so`z bilan**:** ***Boriga shukur g`ilish kerak*****.**

## Vositasiz to`ldiruvchining ifodalanishi

- ot bilan: ***Yosh havaskorlar ashulani zavq bilan aytdilar.***
- olmosh bilan: ***Sizni chaqirishyapti.***
- ibora bilan: ***O`ziga birovning oz-moz til tegizishini ko`tarmasdi.***
- so`z birikmasi bilan: ***Sen ko`rganni u ham ko`rgan.***

## Vositasiz to`ldiruvchining otlashgan so`zlar bilan ifodalanishi

- otlashgan sifat bilan**:** ***Yaxshini maqtasang yarashadi.***
- otlashgan son bilan**:** ***Uchni uchga ko`paytiring.***
- otlashgan sifatdosh bilan: ***Bo`linganni bo`ri yer.***
- otlashgan ravish bilan**:** ***Ko`pini sizdan o`rgangan.***
- otlashgan tag`lid so`z bilan**:** ***Etigining g`arch-g`urchini eshitdi.***
- otlashgan undov so`z bilan**:** ***Oh-vohini hech kim sezmasin.***
- otlashgan modal so`z bilan**:** ***Borini sarfladi.***

## Vositasiz to`ldiruvchining belgili qo`llanish holatlari

- vositasiz to`ldiruvchi atoqli ot hamda kishilik olmoshlari bilan ifodalanganda**:** ***Alijonni ishga taklif qilishdi. Uni yangi lavozimga tayinlashdi.***
- vositasiz to`ldiruvchining o`z aniqlovchisi bo`lsa: ***Kechagi kitobni berib tur.***
- vositasiz to`ldiruvchi bilan kesim o`rtasiga so`z kiritilsa**:** ***She'rni ifodali o`g`ing.***
- vositasiz to`ldiruvchi otlashgan so`zlar bilan ifodalansa**:** ***Ayrilganni ayig` yer.***
- vositasiz to`ldiruvchi egalik qo`shimchasini olgan bo`lsa**:** ***Vazifasini puxta bajardi.***

Ma’ruza ta’lim texnologiyasi modeli

**9-Mavzu:Aniqlovchi, uning turlari, ifodalanishi.**

**Ma’ruzaning texnologik kartasi**

| | |
|---|---|
| **Ma’ruzaga ajratilgan vaqt**– 2 s | **Talabalar soni** – ta |
| **O’quv mashg’ulotining shakli** | Ma’ruza |
| **O’quv mashg’ulotining tuzilishi** | 1. Ma’ruzaga kirish.<br>2. Ma’ruzani amalga oshirish tartibi bilan tanishtirish.<br>3. Ma’ruzalar bilan tanishish.<br>4. Ma’ruza yuzasidan muhokamalarni tashkil etish.<br>5. Ma’ruzalar yuzasidan umumiy xulosalarga kelish.<br>6. Ma’ruzani yakunlash. |
| **O’quv mashg’ulotining maqsadi** | Talabalarda fanning rivojlanishi haqidagi bilimlarni tarkib toptirish |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>6) Ma’ruzaning maqsad va vazifasini tushuntirish;<br>2) Ma’ruzani amalga oshirish tartibini bayon etish;<br>3) ma’ruzalarni tinglash jarayonini tashkil etish;<br>4) ma’ruza yuzasidan muhokamalar jarayonini boshqarish;<br>5) ma’ruzalar yuzasidan umumiy xulosalar qabul qilish. | **O’quv faoliyati natijalari:**<br>26) ma’ruzalarni taqdim etishadi va tinglab borishadi;<br>27) ma’ruzalardagi eng asosiy jihatlarni ajratib olib, o’z daftarlariga qayd etadilar;<br>28) ma’ruzalar yuzasidan savollar bilan murojaat etishadi;<br>29) ma’ruza yuzasidan muhokama uchun so’zga chiqadilar;<br>30) ma’ruzalar yuzasidan umumiy xulosalar qabul qilishda o’z munosabatlarini bildirishadi. |
| **Ta’lim metodi** | Ma’ruza, tushuntirish, suhbat, munozara, dasturlashtirilgan topshiriqlar |
| **Ta’limni tashkil etish shakli** | Ma’ruza, ommaviy |
| **Didaktik vositalar** | Ma’ruza matni, slayd-prezentatsiya, tarqatma materiallar |
| **Ta’limni tashkil etish sharoiti** | Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat** | O’z-o’zini nazorat qilish. |

| **Ish bosqichlari va** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O’qituvchi** | **Talaba** |

| vaqti | | |
|---|---|---|
| **Tayyorgarlik bosqichi** | (26) Ma’ruza mavzulari, ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro’yxatini beradi.<br>(27) Ma’ruzachilarga mavzularni berishni, taqrizchilarni aniqlashlashtirishni tashkillashtiradi.<br>(28) Ma’ruzachilarga tanlangan mavzu bo’yicha referat mavzusini batafsil tuzish topshirig’ini beradi, maslahat beradi.<br>(29) Barcha talabalarga ma’ruza va qo’shimcha materiallar mazmunini o’rganib chiqish va savollar tayyorlab kelish topshirig’ini beradi.<br>(30) Ma’ruzachilar bilan ma’ruza qilish metodikasi va tuzilishini muhokama qiladi, ma’ruza mazmuniga o’zgartirishlar kiritadi. | Ma’ruzachilar mavzuni tanlaydilar va uning rejasini tuzadilar. Qolganlari ma’ruza va qo’shimcha materiallar mazmunini o’rganadilar, ma’ruzachilarga savollar tuzadilar. Ma’ruzachilar referat yozishadi va ko’rgazmali materiallar tayyorlashadi. |
| **1-bosqich. O’quv mashg’ulotiga kirish (Da’vat bosqichi) (20 minut)** | 1.1. O’quv mashg’ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni o’tkazish rejasini ma’lum qiladi.<br>1.2. Talabalar diqqatini jalb etuvchi dasturlashtirilgan topshiriqlar beradi.<br>1.3. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o’tkazish qoidalari, baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. | Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar va javob beradilar.<br>Ishga ajratilgan vaqt, munozara o’tkazish qoidalari, baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar. |
| **2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut)** | 2.1. Talabalarni o’zlari tayyorlagan ma’ruza va ma’lumotlar bilan tanishtirishlarini tashkil etadi. Material | Ma’ruzachilar o’zlari tayyorlagan ma’lumotlarini taqdim etishadi. Taqrizchilar |

| | | |
|---|---|---|
| | mazmuniningmantiqan yoritib berilishini diqqat bilan kuzatadi.<br>2.2. Taqrizchilarga so'zga chiqishni va savollar berishni taklif etadi.<br>2.3. Ma'ruza mazmunini jamoa bo'lib muhokama qilish jarayonini tashkil etadi:<br>- taqrizchilarga o'z fikrlarini bildirishlarini, qo'shimcha savollar berishni taklif etadi;<br>- savollar beradi;<br>- ma'ruzaning asosiy mohiyatini aniqlashtiradi.<br>2.4. Har bir ma'ruzaniqisqacha umumlashtirish bilan yakunlaydi. | ma'ruzaning ijobiy va kuchsiz jihatlarini aytib berishadi.<br>Savollar beradilar.<br>Munozarada ishtirok etadilar.<br>Munozara ishtirokchilari jamoaviy ravishda ma'ruza mazmunini muhokama qiladilar. |
| **3-bosqich. YAkuniy (fikrlash bosqichi) (10 minut)** | 3.1. Ma'ruza jarayonida olingan ma'lumotlarni guruhlash maqsadida talabalarga LTQ ko'rinishidagi tarqatma materialni beradi.<br>3.2. O'quv faoliyati natijalariga yakun yasaydi. Ma'ruza ma'ruzachilari va ishtirokchilari tayyorgarligini, talabalarning munozaralardagi faolligini baholaydi.<br>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi. | Tinglaydilar, aniqlashtiradilar va vazifani yozib oladilar. |

**1-ilova. Dasturlashtirilgan topshiriq savollari:**

1. Aniqlovchining eng asosiy belgisi qanday?
2. Aniqlovchining ifodalanishi haqida nimalarni bilasiz?
3. Aniqlovchining turlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Aniqlovchining so'roqlari haqida nimalarni bilasiz?

**2-ilova. Ma'ruza mashg'uloti dokladlari mavzulari:**

1. Aniqlovchining ta'rifi va xususiyatlari haqida ma'lumot.
2. Sifatlovchi aniqlovchi haqida ma'lumot.
3. Qaratqich aniqlovchi haqida ma'lumot.

4. Izohlovchi haqida ma’lumot.

**3-ilova. Xulosani shakllantirish uchun savollar:**

1. Aniqlovchi qanday so’roqlarga javob bo’ladi?

2. Sifatlovchi aniqlovchi qanday turkumlar bilan ifodalanadi?
3. Qaratqich aniqlovchi qanday turkumlar bilan ifodalanadi?
4. Izohlovchi qanday ma’nolarni ifodalaydi?

**Dasturlashtirilgan topshiriq natijalari:**

| Savol № | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|---|
| Javob № | | | | |
| Natija | | | | |

Talaba F.I.O.

**Baho** **O’qituvchi imzosi**

## ANIQLOVCHI BO’YICHA TAHLIL QOLIPLARI
## 4-ilova. Tarqatma material

1. Eskiroq yo’l-yo’l pijamasining kengligidanmi, u juda baquvvat, miqti ko’rinar, yaltiroq katta boshi, ayniqsa, do’ng peshonasi uni suratlardagi qadimgi yunon faylasuflariga o’xshatar, yirik go’shtdor burni esa yonoqlari turtib chiqqan keng yuziga shiddatli bir ifoda baxsh etar edi. (O.YO.)
2. Keluvchi daroz, yalang’och ko’krakli, oriq yuz, qirra burun, botiq ko’zli, hakkari etikli bir yigit edi. (G’.G’.)
3. ...uning ko’kimtir beretka ostidan toshgan, jingalak to’lqinli ko’rkam sochlari qariyb butun peshonasini qoplagan edi. (O.)
4. Normurod SHomurodov kirtaygan ko’zlarini undan uzib, kalta guldor ko’ylak kiygan, qop-qora silliq sochlari elkasiga shaloladay quyilgan, nozikkina, xushsurat qizga yuzlandi. (O.YO.)
5. Uyning ayvonida egniga ko’k shoyi ko’ylak, oyog’iga qoshiqdekkina kavush kiygan, boshiga ohori to’kilmagan oppoq doka ro’mol o’ragan, ko’zlari tegrasiga surma tortgan nozik-nimjongina bir kampir shosha-pisha ko’rpacha yozmoqda edi. (O.YO.)
6. Birvarakayiga shuncha alam – otasining tiragi, yolg’iz akasining qo’llari bog’lanib, olib chiqib ketilishi... (Mirm.)
7. SHu asnoda dala yo’lidan chang va suron bilan paxta karvoni chiqib, katta yo’lga qo’shildi. (O.)
8. SHundan beri sizning boshingizga qancha kulfatlar tushdi. (P.Q.) 9. Qaysi hovli, qaysi xonadonga Oriyat buvi kirmasin, uy bekalari uni ikki bukilib kutib olishar, uy to’ridan joy ko’rsatishar, topgan-tupganlarini to’kib solishar edi. (J.Abd.)

10. Arslonovaning qo'llab-quvvatlashi, Nazirjon Nabijonovichning xayrihohligi uning yuragiga o't yoqib turardi. (J.Abd.)
11. Nurmat tog'a hayron bo'ladi. (S.Ahm.)
12. SHoshmang, Musa aka, bu gapni a'zolar o'rtasida tashlab olaylik, axir, qani, umumiy majlis nima deydi. (S.Ahm.)
13. Avaz nima desin, Sanam xola bilan Hulkarning orasi bunaqa...(P.Q.)
14. Mana, Musaxon pochchaning nimaligi ham bilinib qoldi. (O.)
15. ...professor Salimxon Obidiy paxtadan ko'ra ko'proq mol-mulkni gapirardi, o'zining qimmatbaho narsalari bilan faxrlanardi. (Mirm.)

## 6-ilova. Ma'ruza matnidan parchalar

## Aniqlovchi

Gapdagi biror bo'lakning belgisini yoki bir narsa-buyumning boshqasiga qarashli ekanligini bildirgan bo'lak **aniqlovchi** deyiladi. Aniqlovchi gap ichida har doim otga yoki otlashgan so'zga bog'lanadi: ***Mayda*** *qor yog'yapti.* ***Qovunning*** *og'iri,* ***tarvuzning*** *engili shirin bo'ladi.*

Aniqlovchi gap ichida egaga ham, kesimga ham, to'ldiruvchiga ham, holga ham tobe bo'la oladi. ***Oppoq*** *mashina* ***keng*** *ko'chada* ***navbatdagi*** *chorrahani kesib o'tmoqda edi. Toshkent* ***juda chiroyli*** *shahar.*

Aniqlovchi ikki xil bo'ladi:

### 1. Sifatlovchi-aniqlovchi

**Sifatlovchi-aniqlovchi** predmetning belgisini, miqdorini, tartibini bildiradi va *qanday? qanaqa? qaysi? qancha? nechanchi? necha? qaerdagi?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Sifatlovchi-aniqlovchi tomonidan aniqlangan bo'lak **sifatlanmish** deb yuritiladi. Sifatlovchi va sifatlanmish o'zaro **bitishuv** yo'li bilan bog'lanadi: ***Notanish*** *kishi unga qaradi.*

Sifatlovchi-aniqlovchi quyidagicha ifodalanadi:

1. Sifat bilan: *Biz* ***serjun*** *va* ***sergo'sht****qo'ylarni ko'paytiryapmiz.*
2. Ot bilan: ***Asfalьt*** *yo'ldan mashinalar g'iz-g'iz o'tib turibdi.* Bunday aniqlovchilar ba'zan majoziy (ko'chma) ma'noni ifodalashi mumkin: ***Kumush****choyshabyopibdalalar...*
3. Son bilan: *To'yga* ***uch qop*** *un olindi.*
4. Olmosh bilan: ***Bu*** *kitob meniki.*
5. Sifatdosh bilan: ***O'qigan*** *odam hayotda qiynalmaydi.*
6. Ravish bilan: ***Ko'p*** *gapning ozi yaxshi,* ***oz*** *gapning o'zi yaxshi.*
7. Taqlid so'z bilan: ***SHitir-shitir*** *ovoz eshitildi.*
8. Modal so'z bilan: ***Bor*** *uyda bol tomadi.*
9. Ibora bilan: *Unda* ***og'zining tanobi qochadigan*** *odat bor.*
10. So'z birikmasi bilan (bunda sifatlovchi va sifatlanmish, qaratuvchi va qaralmish, to'ldiruvchi va to'ldirilmish, hol va hollanmish birikmalari sifatlovchi-aniqlovchi bo'lib keladi): *U* ***birinchi kungi*** *ishni yakunladi.* ***Ukamning uyidagi*** *mollarni ham olib ketishibdi.* ***Menga tegishli*** *bo'lakni qoldiring.* ***Ertaga bo'ladigan*** *majlis qoldirildi.*

Ba'zan sifatlovchi aniqlovchilar so'z birikmalari bilan ifodalanib, **yoyiq holda** kelishi mumkin: ***Misdekqizaribturgan*** *yuzini ikki kafti orasiga olib, peshonasiga yuzini bosdi.*

Bunda sifatdosh boshqa so'zlar bilan birikma hosil qilib, **sifatdosh qurilmani** (18; 95) tashkil etadi.

## 2. Qaratqich-aniqlovchi

Qaratqich-aniqlovchi biror narsa tegishli, qarashli bo'lgan shaxs yoki predmetni bildiradi va *kimning?, nimaning?, qaerning?* so'roqlariga javob bo'ladi. Qaratqich-aniqlovchi tomonidan aniqlangan bo'lak **qaralmish** deb yuritiladi. Qaratqich va qaralmish **moslashuv** orqali birikib, shaxs va sonda albatta moslashgan bo'ladi: ***Odamning*** *qo'li - gul.*

Qaratqich-aniqlovchi, odatda quyidagicha ifodalanadi:

1. Qaratqich kelishigidagi ot bilan: *Gulnor **yigitning** so'zlarini diqqat bilan tingladi.*

2. Qaratqich kelishigidagi olmosh bilan: ***Buning*** *foydasi katta.*

3. Harakat nomi bilan: ***O'qishning*** *qiyinchiligi ham bor.*

4. Otlashgan so'zlar bilan:

1) otlashgan sifat bilan: ***Baxilning*** *bog'i ko'karmas.*
2) otlashgan son bilan: ***O'nning*** *yarmi - besh.*
3) otlashgan sifatdosh bilan: ***Olarning*** *berari ham bor.*
4) otlashgan ravish bilan: *Ishimizdan **ertaning** nafasi seziladi.*

5. Ibora bilan: ***Og'zi bo'shning*** *ichida gap yotmas.*

Qaratqich-aniqlovchi *-ning* qo'shimchasisiz ham qo'llanadi: ***Bolalar*** *xonasi ozoda edi.*

## 3. Izohlovchi

Izohlovchi aniqlovchining alohida bir ko'rinishi bo'lib, bunda izohlovchi ot boshqa bir otni izohlaydi. Izohlovchi izohlagan ot **izohlanmish** bo'ladi: ***General*** *Sobir Rahimov*.

Izohlovchilar quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1) ilmiy, harbiy unvonni bildiradi: ***dotsent*** *Dolimov,* ***mayor*** *Ahmedov.*
2) kasb-hunarni bildiradi: *Salim **bo'zchi**, **mashinist** Bo'ronov.*
3) laqabni bildiradi: *Ali **tajang**, Asqar **polvon**.*
4) qarindoshlikni bildiradi: *Karima **xola**, Qobil **bobo**.*
5) jinsni bildiradi: ***erkak*** *tarbiyachi,* ***ayol*** *haydovchi.*
6) o'xshatishni bildiradi: ***Ona****-Vatan, qizchalar-**gulchalar**.*
7) taxallusni bildiradi: *Abdulla Qodiriy **(Julqunboy)***

Izohlovchi va izohlanmish umumiy va aniq ma'noni bildiruvchi turdosh otdan iborat bo'lsa, aniq ma'noni bildiruvchi ot izohlovchi, umumiy ma'noni bildiruvchi ot izohlanmish bo'ladi. YOzuvda ular orasiga chiziqcha qo'yiladi: *mexanik* - ***haydovchi***. O'xshatishni bildirgan izohlovchi bilan izohlanmish orasiga chiziqcha qo'yiladi: ***ona****-Vatan* .

Gazeta, jurnal, korxona, muassasa va hokazolarning nomini bildirgan atoqli otlar ham izohlovchining bir turi hisoblanadi: *"**YOshlik**" jurnali, "**Turkiston**"* gazetasi. Bunday izohlovchilar shaxs nomi bilan ifodalansa, qo'shtirnoqqa olinmay *nomli, nomidagi* so'zlari bilan birga qo'llanadi: ***Oybek nomli*** *maktab*

**Mashg`ulot mavzusi:**

# ANIQLOVCHI,
# UNING TURLARI
# VA IFODALANISHI

# TAYANCH ATAMALAR

- aniqlovchi
- aniqlanmish
- qaratqich
- qaralmish
- izohlovchi
- izohlanmish

# Aniqlovchining ta'rifi

**Predmet, shaxsning belgisini anglatadigan yoki ularni izohlaydigan yoxud ularning kimga, nimaga tegishliligini bildiradigan ikkinchi darajali bo`lakka aniqlovchi deyiladi.**

## Aniqlovchining asosiy belgisi

**Aniqlovchi gapda har doim ot yoki otlashgan so'zga bog' lanadi va bu so'z aniqlanmish deb ataladi. Aniqlanmish gap tarkibida turli vazifalarda kelishi mumkin:**

**1. Egaga:** ***Sovuq shamol esyapti.***

**2. To'ldiruvchiga:**

**3. Aniqlovchiga:**

**4. Holga:**

**5. Kesimga:**

## Sifatlovchi aniqlovchi va uning ifodalanishi

- sifat bilan: *Baxtiyor odam hammani o'ziga o'xshatadi.*
- ot bilan:
- son bilan:
- olmosh bilan:
- sifatdosh bilan:
- ravish bilan**:**
- so`z birikmasi bilan**:**
- ibora bilan**:**

## Qaratqich aniqlovchi va uning ifodalanishi

- ot bilan: ***Birpasda Ikromjonning qaddi bukildi-qoldi.***
- otlashmagan olmosh bilan:
- harakat nomi bilan:
- so`z birikmasi bilan:
- otlashgan sifat bilan:
- otlashgan son bilan:
- otlashgan olmosh bilan:
- otlashgan sifatdosh bilan:
- otlashgan ravish bilan:
- so'z birikmasi bilan:
- ibora bilan:

## Izohlovchi va uning ma'no turlari

Изоҳловчилар қуйидаги маъноларни ифодалайди:

1) илмий, ҳарбий унвонни билдиради: *доцент Долимов, майор Аҳмедов.*
2) касб-ҳунарни билдиради:
3) лақабни билдиради:
4) қариндошликни билдиради:
5) жинсни билдиради:
6) ўхшатишни билдиради:
7) тахаллусни билдиради:
8) OAV, korxona, tashkilot, muassasa nomlari:

## Izohlovchining boshqa aniqlovchi turlaridan farqi

- Izohlovchi har doim ot bilan ifodalanadi, ya’ni bir ot ikkinchi otni izohlaydi.
- Izohlovchi o’zi bog’langan so’z, ya’ni izohlanmishdan yo oldin, yo keyin kelishi mumkin: ***Karim*** ***tog’a***, ***kapitan Olimov.***

## 6-SEMESTR.

## 10-Mavzu: Gapning uyushiq bo'laklari.
## Ma'ruzaning texnologik kartasi

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** |
|---|---|

| | |
|---|---|
| **Ma'ruzaga ajratilgan vaqt**– 2 s | **Talabalar soni** –ta |
| **O'quv mashg'ulotining shakli** | Ma'ruza |

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **O'qituvchi** | **Talaba** |
|---|---|---|
| **Tayyorgarlik bosqichi** | (31) Ma'ruza mavzulari, ma'ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi.<br>(32) Ma'ruzachilarga mavzularni berishni, taqrizchilarni aniqlashlashtirishni tashkillashtiradi.<br>(33) Ma'ruzachilarga tanlangan mavzu bo'yicha referat mavzusini batafsil tuzish topshirig'ini beradi, maslahat beradi.<br>(34) Barcha talabalarga ma'ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganib chiqish va savollar tayyorlab kelish topshirig'ini beradi.<br>(35) Ma'ruzachilar bilan ma'ruza qilish metodikasi va tuzilishini muhokama qiladi, ma'ruza mazmuniga o'zgartirishlar kiritadi. | Ma'ruzachilar mavzuni tanlaydilar va uning rejasini tuzadilar. Qolganlari ma'ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganadilar, ma'ruzachilarga savollar tuzadilar. Ma'ruzachilar referat yozishadi va ko'rgazmali materiallar tayyorlashadi. |
| **1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat** | 1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni o'tkazish rejasini ma'lum | Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar va javob beradilar. |

| | | |
|---|---|---|
| **bosqichi)**<br>**(20 minut)** | qiladi.<br>1.2. Talabalar diqqatini jalb etuvchi dasturlashtirilgan topshiriqlar beradi.<br>1.3. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o’tkazish qoidalari, baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. | Ishga ajratilgan vaqt, munozara o’tkazish qoidalari, baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar. |
| **2-bosqich.**<br>**Asosiy**<br>**(Anglash**<br>**bosqichi)**<br>**(50 minut)** | 2.1. Talabalarni o’zlari tayyorlagan ma’ruza va ma’lumotlar bilan tanishtirishlarini tashkil etadi. Material mazmunining mantiqan yoritib berilishini diqqat bilan kuzatadi.<br>2.2. Taqrizchilarga so’zga chiqishni va savollar berishni taklif etadi.<br>2.3. Ma’ruza mazmunini jamoa bo’lib muhokama qilish jarayonini tashkil etadi:<br>- taqrizchilarga o’z fikrlarini bildirishlarini, qo’shimcha savollar berishni taklif etadi;<br>- savollar beradi;<br>- ma’ruzaning asosiy mohiyatini aniqlashtiradi.<br>2.4. Har bir ma’ruzaniqisqacha umumlashtirish bilan yakunlaydi. | Ma’ruzachilar o’zlari tayyorlagan ma’lumotlarini taqdim etishadi.<br>Taqrizchilar ma’ruzaning ijobiy va kuchsiz jihatlarini aytib berishadi.<br>Savollar beradilar.<br>Munozarada ishtirok etadilar.<br>Munozara ishtirokchilari jamoaviy ravishda ma’ruza mazmunini muhokama qiladilar. |
| **3-bosqich.**<br>**YAkuniy**<br>**(fikrlash**<br>**bosqichi)**<br>**(10 minut)** | 3.1. Ma’ruza jarayonida olingan ma’lumotlarni guruhlash maqsadida talabalarga LTQ ko’rinishidagi tarqatma materialni beradi.<br>3.2. O’quv faoliyati natijalariga yakun yasaydi. Ma’ruza ma’ruzachilari va ishtirokchilari tayyorgarligini, talabalarning munozaralardagi faolligini baholaydi. | Tinglaydilar, aniqlashtiradilar va vazifani yozib oladilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | 3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi. | |

**1-ilova. Dasturlashtirilgan topshiriq savollari:**

1. Nega uyushiq bo'laklar deb atalgan?
2. Uyushiq bo’laklarning eng asosiy belgilari nimada?
3. Qaysi bo’laklar uyushadi?
4. Gap bo’laklarining uyushishi deganda nimani tushunasiz**?**

**2-ilova. Ma’ruza mashg’uloti dokladlari mavzulari:**

1. Uyushiq bo’laklarning ta’rifi va belgilari haqida ma’lumot.
2. Uyushiq bo’laklarning o’zaro va boshqa bo’laklar bilan bog’lanishi haqida ma’lumot.
3. Uyushgan bosh bo’laklar haqida ma’lumot.
4. Uyushgan ikkinchi darajali bo’laklar haqida ma’lumot.

**3-ilova. Xulosani shakllantirish uchun savollar:**

1. Bosh bo’laklarning uyushishida qanday xususiyatlar kuzatiladi? Misollar keltiring.
2. Ikkinchi darajali bo’laklarning uyushishida qanday xususiyatlar kuzatiladi? Misollar keltiring.
3. Umumlashtiruvchi bo’lak qanday ifodalanadi? Misollar keltiring.
4. Uyushgan va uyushmagan sifatlovchi aniqlovchi haqida nimalarni bilasiz? Misollar bilan fikringizni isbotlang.

**Dasturlashtirilgan topshiriq natijalari:**

| Savol № | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|---|
| Javob № | | | | |
| Natija | | | | |

Talaba F.I.O.

**Baho** **O’qituvchi imzosi**

**UYUSHIQ BO’LAKLAR TAHLILI QOLIPLARI**

3-ilova. Tarqatma material

1. Hayotxon chehrasida atirgul yaproqchasidek toza, nafis, tiniq bir jilmayish, ko’zlarida baxtdan, nurdan bunyodga kelgan bir juftgina yosh paydo bo’ldi. (M.Ism.) 2. Bu kun u ayniqsa hazin, yurakni ezuvchi ruhning qayg’ularini, intizorliklarini ko’zlardan qatra-qatra tomdiruvchi kuylarni kuyladi. (O.) 3. Dam salobatli, dam jozibador yangrovchi tanbur sadosi tinglovchini go’yo sehrli qayig’i bilan allaqanday maftunkor sohil sari boshlar, goh tebratib, goh to’lqinlatib borardi. (J.Abd.) 4. Har bayram Qodirjon orqali,

ba'zan boshqalar orqali sovg'a-salomlar yuborib turdi, moddiy yordam taklif qildi, necha marta uyga chaqirdi. (O.YO.) 5. Boshqa payt bo'lganda Latofat ehtimol, bu faryodga, go'yo ko'kka qaratilgan bu nidoga chidab turolmas, go'daklik chog'laridagiday onasining bo'ynidan quchoqlab, qo'shilib yig'lagan bo'lardi. (O.YO.) 6. Odatda doim gavjum, sershovqin bo'ladigan maydon va xiyobonlarda, gulzor o'rtasidangi kumushrang favvora atrofida hozir odam siyrak. (O.YO.)7. U o'rta bo'yli, nozikkina qiz edi, lekin poshnasi baland tufli kiygani uchunmi yo tashlab qo'ysa beliga tushadigan yo'g'on, qo'ng'ir sochlarini boshi uzra baland qilib turmaklab olgani uchunmi, novchagina ko'rinardi. (O.YO.) 8. Bu erga klubdan ham, arteldina ham, magazindan ham – hamma joydan xabarlar, yangiliklar etib kelib turardi. (J.Abd.) 9. Tepada zing'illab uchgan snaryadlar, minalarning bad sadosi, olov va tutun aralash er uyumlarini ko'kka irg'itib to'kiladi.(O.) 10. Har kim sukut ichida front yo'llaridan, vayron bo'lgan qishloqlardan, olingan shaharlardan o'z bolasini, akasini, ukasini qidiradi. (S.Ahm.) 11. U o'zi ishlagan dalalarda, bog' va qirlarda kechgacha aylanardi, qaytib kelganda yuzlari, ko'zlari allaqanday quvonchdan porlab turardi. (S.Ahm.) 12. Tun yarmidan oqqan bo'lsa ham, Andijonning ko'chalari va hovlilaridan otlarning dupuri, itlarning vangillashi, ayollarning dodvoyi, bemahal qo'zg'atilgan sigir va qo'ylarning ma'rashi eshitilmoqda edi. (P.Q.)

## 6-ilova. Ma'ruza matnidan parchalar

### 1-§.Uyushiq bo'laklar haqida umumiy ma'lumot

Har bir gap bo'lagi gapda birdan ortiq bo'lishi mumkin. Bir xil so'roqqa javob bo'lib, gapdagi bir bo'lakka bog'langan bo'laklar gapning **uyushiq bo'laklari** deb ataladi. Bu bo'laklar o'zaro teng bog'lovchilar yoki sanash ohangi bilan bog'lanadi: *Bola goh menga, goh unga qarar edi.* Gapning barcha bo'laklari uyushadi:

1) **ega** uyushadi: *Bugun **Anvar** yoki **Sobir** navbatchilik qiladi.*

2) **kesim** uyushadi: a) fe'l-kesim: *U asta joyiga o'tirdi va gapira boshladi.* b) ot-kesim: *Yo'l **keng** va **tekis** edi.*

3) **to'ldiruvchi** uyushadi: a) vositasiz to'ldiruvchi: *Kitob(larni) va daftarlarni keltirdi.* B) vositali to'ldiruvchi: *Akamga va opamga xabar qildik.*

4) **anihlovchi** uyushadi: a) sifatlovchi-aniqlovchi: *Salqin va bahavo bog'da dam oldik.* B) qarathich-aniqlovchi: *Olma(ning) va shaftolining hosili mo'l bo'ldi.*

5) **hol** uyushadi: a) vaziyat holi: *Topshirihni tez va puxta bajardik.* b) payt holi: *Bugun va ertaga men navbatchilik qilaman.* d) o'rin holi: *Shahar va qishlohlarda qurilishlar avjiga chihhan.* f) sabab holi: *Quvonch va shodlikdan tili gapga aylanmas edi.* j) mahsad holi: *U shaharga o'qish va ishlash mahsadida kelgan edi.* h) miqdor holi: *Men sizga o'n marta, yuz marta gapirdim.* yo) shart holi: *Mehnat qilmasang,qiynalmasang o'z maqsadingga erisha olmaysan.* j) to'siqsizlik holi: *U charchasa ham, yiqilib qolgudek bo'lsa ham yurishdan to'xtamadi.*

Uyushiq egalar shaxsni anglatsa, kesim birlikda ham, ko'plikda ham bo'lishi mumkin: *Karim, Salim va Ahmad keldi(lar).* Uyushiq egalar jonsiz narsalarni ifodalasa, kesim odatda, birlikda bo'ladi: *Stol va stullar tartibga keltirilgan.*

Gapda koʻmakchi fe'lli soʻz qoʻshilmalari uyushiq kesim boʻlib kelganda ba'zan koʻmakchi fe'l yetakchi fe'llarning eng soʻnggisiga bogʻlanib kelishi mumkin: *U allahachon yozib, chizib boʻldi.*

Uyushiq boʻlaklar yoyiq holda ham boʻladi: *Ma'ruzachiga qiziq, kishini hayratda qoldiradigan savollar berishdi.*

Uyushiq boʻlaklar juft-juft boʻlib ham qoʻllanadi: *Shahrimizda keng va tekis, toza va yorugʻ koʻchalar koʻpaymoqda.*

## Uyushiq boʻlaklarda koʻplik, egalik va kelishik qoʻshimchalarining hamda koʻmakchilarning qoʻllanishi

Bularning qoʻllanishi uch xil boʻladi:

1. Son (koʻplik), egalik, kelishik qoʻshimchalari va koʻmakchilaruyushiq boʻlaklarning oxirgisiga qoʻshiladi: *Mashinadan tushgan ayol va erkak**larning** barchasi kulgi va shovqin **bilan** uyga kirishdi.*
2. Gapdagi uyushiq boʻlaklarning har birida son, egalik, kelishik qoʻshimchalari va koʻmakchilar alohida-alohida takrorlanadi: *Har bir soʻz**ni**, har bir jumla**ni** zabq **bilan**, hayajon **bilan** qayta- qayta oʻqib chiqdi.*
3. Son, egalik, kelishik qoʻshimchalari va koʻmakchilar uyushiq boʻlaklarda har xil ishlatilishi ham mumkin: *Imon va e'tiqod**ni**, odamgarchilik**ni** insonga goʻdaklik paytidan chidam va toqat **bilan**, muhabbat **bilan** singdira borish kerak.*

Gapda uyushiq boʻlaklar bogʻlovchilarsiz, sanash ohangi bilan, biriktiruv bogʻlovchilari ***(va, hamda),*** ular vazifasidagi ***-u, -yu*** yuklamalari, ***bilan*** koʻmakchisi, zidlov bogʻlovchilari ***(ammo, lekin, biroq),na*** yuklamasi, ***-da*** yuklamasi, ***goh, yoki, yoxud, dam, ba'zan, yo*** kabi ayiruv bogʻlovchilari bilan bogʻlanib keladi: *Mashina sekinladi, lekin toʻxtamadi.*

## Umumlashtiruvchi boʻlak (soʻz) va unda tinish belgilarining ishlatilishi

Uyushiq boʻlaklarning ma'nolarini jamlab, umumlashtirib keladigan soʻz ba soʻ birikmalari **umumlashtiruvchi boʻlak** deb ataladi. Koʻpincha belgilash, boʻlishsizlik olmoshlari va jamlovchi ot, jamlovchi sonlar, shuningdek, soʻz birikmalari, kengaygan birikmalar umumlashtiruvchi boʻlak boʻlib keladi: *Uylar, daraxtlar, koʻchalar – **hammasi** qorongʻilik qa'riga choʻmdi.**Ishga yangi qabul qilinganlar**: Ahmad, Salim va Akbar boshiliqning oldiga kirishsin.* Umumlashtiruvchi boʻlak qanday vazifani bajarsa, uyushiq boʻlaklar ham shunday vazifani bajaradi.

Umumlashtiruvchi boʻlaklar uyushiq boʻlaklardan oldin kelsa, undan keyin ikki nuqta qoʻyiladi: *Qudratning oldidan ikki oʻrtogʻi: Ilhom va Rustam chiqib keldi.* Umumlashtiruvchi boʻlak uyushiq boʻlaklardan keyin kelsa, undan oldin tire qoʻyiladi: *Akam, opam, singlim – **barchamiz** aziz onajonimizni tabrikladik.*

## Uyushiq va uyushmagan sifatlovchi-aniqlovchi hamda hollar

Sanash ohangi bilan aytiladigan va yozuvda vergul bilan ajratiladigan aniqlovchi yoki hollar uyushiq aniqlovchi va hollar hisoblanadi (bu haqda yuqorida soʻz yuritildi). Sanash ohangi bilan aytilmaydigan, yozuvda orasiga vergul qoʻyilmaydigan aniqlovchilar va hollar uyushmagan aniqlovchi va hollar

hisoblanadi. Uyushmagan sifatlovchi-aniqlovchi va hollar o‘zi bog‘langan bo‘lakning turli tomoniga oid belgilarni anglatadi: *Qop-qorashirin uzumlar g‘arq pishgan. Bugun maktabda ota-onalar majlisi bo‘ladi.*

Ma’ruza ta’lim texnologiyasi modeli

**11-Mavzu:Gapning ajratilgan bo’laklari.**

**Ma’ruzaning texnologik kartasi**

| **Ish** | **Faoliyat mazmuni** |
|---|---|
| **Ma’ruzaga ajratilgan vaqt**– 2 s | **Talabalar soni** – ta |
| **O’quv mashg’ulotining shakli** | Ma’ruza |
| **O’quv mashg’ulotining tuzilishi** | 1. Ma’ruzaga kirish.<br>2. Ma’ruzani amalga oshirish tartibi bilan tanishtirish.<br>3. Ma’ruzalar bilan tanishish.<br>4. Ma’ruza yuzasidan muhokamalarni tashkil etish.<br>5. Ma’ruzalar yuzasidan umumiy xulosalarga kelish.<br>6. Ma’ruzani yakunlash. |
| **O’quv mashg’ulotining maqsadi** | Talabalarda fanning rivojlanishi haqidagi bilimlarni tarkib toptirish |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>7) Ma’ruzaning maqsad va vazifasini tushuntirish;<br>2) Ma’ruzani amalga oshirish tartibini bayon etish;<br>3) ma’ruzalarni tinglash jarayonini tashkil etish;<br>4) ma’ruza yuzasidan muhokamalar jarayonini boshqarish;<br>5) ma’ruzalar yuzasidan umumiy xulosalar qabul qilish. | **O’quv faoliyati natijalari:**<br>31) ma’ruzalarni taqdim etishadi va tinglab borishadi;<br>32) ma’ruzalardagi eng asosiy jihatlarni ajratib olib, o’z daftarlariga qayd etadilar;<br>33) ma’ruzalar yuzasidan savollar bilan murojaat etishadi;<br>34) ma’ruza yuzasidan muhokama uchun so’zga chiqadilar;<br>35) ma’ruzalar yuzasidan umumiy xulosalar qabul qilishda o’z munosabatlarini bildirishadi. |
| **Ta’lim metodi** | Ma’ruza, tushuntirish, suhbat, munozara, dasturlashtirilgan topshiriqlar |
| **Ta’limni tashkil etish shakli** | Ma’ruza, ommaviy |
| **Didaktik vositalar** | Ma’ruza matni, slayd-prezentatsiya, tarqatma materiallar |
| **Ta’limni tashkil etish sharoiti** | Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat** | O’z-o’zini nazorat qilish. |

| bosqichlari va vaqti | O’qituvchi | Talaba |
|---|---|---|
| **Tayyorgarlik bosqichi** | (36) Ma’ruza mavzulari, ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro’yxatini beradi.<br>(37) Ma’ruzachilarga mavzularni berishni, taqrizchilarni aniqlashlashtirishni tashkillashtiradi.<br>(38) Ma’ruzachilarga tanlangan mavzu bo’yicha referat mavzusini batafsil tuzish topshirig’ini beradi, maslahat beradi.<br>(39) Barcha talabalarga ma’ruza va qo’shimcha materiallar mazmunini o’rganib chiqish va savollar tayyorlab kelish topshirig’ini beradi.<br>(40) Ma’ruzachilar bilan ma’ruza qilish metodikasi va tuzilishini muhokama qiladi, ma’ruza mazmuniga o’zgartirishlar kiritadi. | Ma’ruzachilar mavzuni tanlaydilar va uning rejasini tuzadilar. Qolganlari ma’ruza va qo’shimcha materiallar mazmunini o’rganadilar, ma’ruzachilarga savollar tuzadilar. Ma’ruzachilar referat yozishadi va ko’rgazmali materiallar tayyorlashadi. |
| **1-bosqich. O’quv mashg’ulotiga kirish (Da’vat bosqichi) (20 minut)** | 1.1. O’quv mashg’ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni o’tkazish rejasini ma’lum qiladi.<br>1.2. Talabalar diqqatini jalb etuvchi dasturlashtirilgan topshiriqlar beradi.<br>1.3. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o’tkazish qoidalari, baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. | Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar va javob beradilar.<br>Ishga ajratilgan vaqt, munozara o’tkazish qoidalari, baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar. |
| **2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut)** | 2.1. Talabalarni o’zlari tayyorlagan ma’ruza va ma’lumotlar bilan tanishtirishlarini tashkil etadi. Material | Ma’ruzachilar o’zlari tayyorlagan ma’lumotlarini taqdim etishadi. Taqrizchilar |

| | | |
|---|---|---|
| | mazmuniningmantiqan yoritib berilishini diqqat bilan kuzatadi.<br>2.2. Taqrizchilarga so'zga chiqishni va savollar berishni taklif etadi.<br>2.3. Ma'ruza mazmunini jamoa bo'lib muhokama qilish jarayonini tashkil etadi:<br>- taqrizchilarga o'z fikrlarini bildirishlarini, qo'shimcha savollar berishni taklif etadi;<br>- savollar beradi;<br>- ma'ruzaning asosiy mohiyatini aniqlashtiradi.<br>2.4. Har bir ma'ruzaniqisqacha umumlashtirish bilan yakunlaydi. | ma'ruzaning ijobiy va kuchsiz jihatlarini aytib berishadi.<br>Savollar beradilar.<br>Munozarada ishtirok etadilar.<br>Munozara ishtirokchilari jamoaviy ravishda ma'ruza mazmunini muhokama qiladilar. |
| **3-bosqich. YAkuniy (fikrlash bosqichi) (10 minut)** | 3.1. Ma'ruza jarayonida olingan ma'lumotlarni guruhlash maqsadida talabalarga LTQ ko'rinishidagi tarqatma materialni beradi.<br>3.2. O'quv faoliyati natijalariga yakun yasaydi. Ma'ruza ma'ruzachilari va ishtirokchilari tayyorgarligini, talabalarning munozaralardagi faolligini baholaydi.<br>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi. | Tinglaydilar, aniqlashtiradilar va vazifani yozib oladilar. |

**1-ilova. Dasturlashtirilgan topshiriq savollari:**

1. Nega ajratilgan bo'laklar  deb atalgan?
2. Ajratilgan bo'laklarning eng asosiy belgilari nimada?
3. Qaysi bo'laklar ajratiladi?
4. Gap bo'laklarining ajratilishi deganda nimani tushunasiz?

**2-ilova. Ma'ruza mashg'uloti dokladlari mavzulari:**

1. Ajratilgan bo'laklarning ta'rifi va belgilari haqida ma'lumot.
2. Ajratilgan bo'laklarning o'zaro va boshqa bo'laklar bilan bog'lanishi haqida ma'lumot.
3. Ajratilgan bosh bo'laklar haqida ma'lumot.

4. Ajratilgan ikkinchi darajali bo’laklar haqida ma’lumot.

**3-ilova. Xulosani shakllantirish uchun savollar:**

1. Bosh bo’laklarning ajratilishida qanday xususiyatlar kuzatiladi? Misollar keltiring.
2. Ikkinchi darajali bo’laklarning ajratilishida qanday xususiyatlar kuzatiladi? Misollar keltiring.
3. Ajratilgan sifatlovchi aniqlovchi qanday ifodalanadi? Misollar keltiring.
4. Ajratilgan bo’laklarda qanday tinish belgilari ishlatiladi? Misollar bilan fikringizni isbotlang.

**Dasturlashtirilgan topshiriq natijalari:**

| Savol № | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|---|
| Javob № | | | | |
| Natija | | | | |

Talaba F.I.O.

**Baho** **O’qituvchi imzosi**

**4-ilova. Tarqatma material**

1. Qudratillaxo’janing xotini – Hojarbibi o’g’lidan xursand edi. (As.M.) 2. Hokimning bunday holini kuzatib turgan ikki do’sti – SHohmurod Ko’histoniy bilan Ibrohim Do’lday iljayishib hokim yoniga kirib kelishardi. (Mirm.) 3. Hozirgina kelib to’xtagan oq “Volga” ning shofyori – novcha, barvasta yigit kabinadan chiqib turgan ekan. (H.G’.) 4. Ariqda suv tiniq, qirg’oq – maysazor ham ko’m-ko’k. (H.G’.) 5. Bu erdan ko’cha – yangi posyolkaning shu ko’klamda ochilgan birinchi ko’chasi – Navbahor yaqqol ko’rinib turar edi. (H.G’.) 6. Bu suv, ya’ni besh foizgacha mineral tuzlari bo’lgan bu oqova suvlar erga qanday ta’sir etarkin? (O.YO.)7. O’g’il boyning ulfatlaridan – “e’tiborli” odamlardan uzoq, ular bilan suhbatda bo’lmas, uning o’z ulfatlari kimlar ekani esa otaga noma’lum edi. (As.M.) 8. G’ulom otliq hokim xonadonining sodiq quli – cholga buyurib, hokimning ikki yoshli o’g’li – yuzlari lo’ppi Muhammad Metinni ichkariga otasi yoniga atayi kiritib yuborishardi. (Mirm.) 9. Ahmadjon bularning ko’pini birinchi marta ko’rayotgan bo’lsa ham, ba’zilarini – Rahim boboni tez-tekz yo’qlab turadiganlarini tanib ulgurgan, cholning eng sevimli, eng yaqin, o’qtin-o’qtin kelib turadigan nabirasi – vrach qiz Dildor bilan durustgina tanishib olgan... (H.G’.)

**6-ilova. MA’RUZADAN PARCHALAR.**

**Ajratilgan bo‘laklar haqida umumiy ma’lumot**

O‘zidan oldingi bo‘lakni izohlagan bo‘lak **ajratilgan bo‘lak** deyiladi: *Men ishni mana shundan, ya'ni* ***tushuntirishdan*** *boshladim.*

Ajratilgan bo‘laklarning uyushiq bo‘laklardan farqi shundaki, **ular bir tushunchaning ikkita nomidir**, ya'ni bir shaxs yoki bir narsa ikki marta nomlanadi, uyushiq bo‘laklar esa **bir necha shaxs yoki narsani ifodalaydi.**

Gap bo‘laklarining ajratilishida gapda so‘z tartibining o‘zgarishi, gap bo‘laklarining kengayishi, bir bo‘lakning o‘zidan oldingi bo‘lakni izohlashi, bir bo‘lakni boshqalaridan ajratib bo‘rttirib ko‘rsatish zaruriyati kabilar sabab bo‘lishi mumkin. *Ko‘chada borar, g‘amgin va o‘ychan. Ukasi, ko‘zlari chaqnagan, unga g‘azab bilan qaradi. Oldinda, muyulishda, bir qora ko‘rindi. U har kuni, quyosh tikka kelganda, shaharga tushadi.*

Quyidagi gap bo‘laklari ajratiladi:

**1. Ajratilgan ega** o‘zidan oldin kishilik olmoshlari, ot va otlashgan so‘zlar bilan ifodalanib kelgan egani izohlaydi: *Biz, **yoshlar**, buni esdan chiqarmasligimiz kerak*

**2. Ajratilgan kesim** o‘zidan oldin kelgan kesimni izohlaydi: 1) fe'l-kesim: *Men uni ko‘ndirishga harakat qildim – **yalindim, yolvordim, hatto tiz cho‘kdim.*** 2) ot-kesim: *U shoir – **inson ruhining bilimdoni**.*

**3. Ajratilgan izoh to‘ldiruvchi** o‘zidan oldingi to‘ldiruvchini izohlab keladi: *Menga–oddiy **ishchiga** shunchalik hurmat ko‘rsatishdi.*

To‘ldiruvchi ***tashqari, boshqa, o‘rniga, bilan, birga*** kabi so‘zli birikmalar bilan ifodalanganda ham ajratiladi: ***Mendan tashqari**, sinfimizdagi barcha o‘g‘il bolalar ishtirok etishibdi.*

**4. Ajratilgan izoh aniqlovchi** o‘z navbatida quyidagi turlarga bo‘linadi:

1) ajratilgan izoh qaratqich-aniqlovchi o‘zidan oldingi qaratqich-aniqlovchini izohlaydi: *Bir necha kishilarning, **ayol va erkaklarning** qorasi ko‘rindi.*

2) ajratilgan sifatlovchi-aniqlovchi sifatlanmishdan keyin kelib uni izohlaydi: *Gullar terdim, **chiroyli**.*

**5. Ajratilgan izoh hol** gapda o‘zidan oldingi holni izohlab keladi. Quyidagi hol turlari ajratiladi:1) o‘rin: *Uning qo‘lidan ushlab ichkariga, **mehmonxonaga**, boshladi.* 2) payt: *Anjuman bugun, soat beshda, boshlanadi.* 3) ravish(vaziyat): *Qo‘llar ishlar tez – **mo‘'jizakor**.* 4) maqsad: *Shaharga borish uchun, ya'ni **o‘g‘lini ko‘rish uchun,** ulov qidirdi*5) miqdor-daraja: *Bugun sizni yana, **ikkinchi marta** kechirishdi.*

Ko‘pincha ravishdosh va sifatdosh bilan ifodalangan hollar ham kengaygan holda ajratilishi mumkin: ***O‘zidan o‘zihadiksirab**, atrofga olazarak boqadi. Otasi, **ikki qo‘ltig‘ida narsa ko‘targan holda**, yo‘lga tushdi.*

## Ajratilgan bo‘laklarda tinish belgilarining ishlatilishi

Yozma nutqda izoh bo‘laklar ko‘pincha vergul va tire bilan ajratiladi:

1. Izoh bo‘laklar ikki tomonidan vergul bilan ajratiladi: *Kanal bo‘yidagi choyxonada, **avtobus bekatida**, A'zamjon uchradi.*

2. Izoh bo‘laklarning o‘z ichida vergul bo‘lsa, ikki tomoniga tire qo‘yiladi: *Endi odamlar – **otliq, piyoda, yosh-qari** - uchray boshladi.*

3. Ajratilgan bo‘lak kengayib, uyushib, gap oxirida kelsa, undan oldin tire qo‘yiladi: *Mening o‘z muhabbatim bor – **toza va musaffo**!*

4. Bosh kelishikdagi kishilik olmoshini izohlagan bo‘laklardan avval tire, keyin vergul qo‘yiladi: *Men - **Fozilova Fotima**, VII sinfda o‘qiyman.* Ba’zan

izohlanayotgan ega ot turkumiga tegishli bo‘lganida ham tinish belgilari shu tarzda qo‘yilish mumkin: *Otam* - ***Ilyos Tohirov**, zavodda ishlaydi*.

Ma’ruza ta’lim texnologiyasi modeli

**1-MAVZU: MURAKKABLASHGAN SODDA GAPLAR**

| | |
|---|---|
| **Ma’ruzaga ajratilgan vaqt**– 2 s | **Talabalar soni** – ta |
| **O’quv mashg’ulotining shakli** | Ma’ruza |
| **O’quv mashg’ulotining tuzilishi** | 1. Ma’ruzaga kirish.<br>2. Ma’ruzani amalga oshirish tartibi bilan tanishtirish.<br>3. Ma’ruzalar bilan tanishish.<br>4. Ma’ruza yuzasidan muhokamalarni tashkil etish.<br>5. Ma’ruzalar yuzasidan umumiy xulosalarga kelish.<br>6. Ma’ruzani yakunlash. |
| **O’quv mashg’ulotining maqsadi** | Talabalarda fanning rivojlanishi haqidagi bilimlarni tarkib toptirish |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1) Ma’ruzaning maqsad va vazifasini tushuntirish;<br>2) Ma’ruzani amalga oshirish tartibini bayon etish;<br>3) ma’ruzalarni tinglash jarayonini tashkil etish;<br>4) ma’ruza yuzasidan | **O’quv faoliyati natijalari:**<br>1) ma’ruzalarni taqdim etishadi va tinglab borishadi;<br>2)ma’ruzalardagi eng asosiy jihatlarni ajratib olib, o’z daftarlariga qayd etadilar;<br>3)ma’ruzalaryuzasidansavollarbilanmurojaatetishadi;<br>4)ma’ruzayuzasidanmuhokamauchunso’zgachiqadilar;<br>5)ma’ruzalaryuzasidanumumiyxulosalarqabulqilishdao’zmunosabatlarinibildirishadi. |

| | |
|---|---|
| muhokamalar jarayonini boshqarish; 5) ma'ruzalar yuzasidan umumiy xulosalar qabul qilish. | |
| **Ta'lim metodi** | Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, munozara, dasturlashtirilgan topshiriqlar |
| **Ta'limni tashkil etish shakli** | Ma'ruza, ommaviy |
| **Didaktik vositalar** | Ma'ruza matni, slayd-prezentatsiya, tarqatma materiallar |
| **Ta'limni tashkil etish sharoiti** | Maxsustexnikvositalarbilanjihozlanganxona |
| **Nazorat** | O'z-o'zini nazorat qilish. |

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| **Tayyorgarlik bosqichi** | (41) Ma'ruza mavzulari, ma'ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi.<br>(42) Ma'ruzachilarga mavzularni berishni, taqrizchilarni aniqlashlashtirishni tashkillashtiradi.<br>(43) Ma'ruzachilarga tanlangan mavzu bo'yicha referat mavzusini batafsil tuzish topshirig'ini beradi, | 1. Ma'ruzachilar mavzuni tanlaydilar va uning rejasini tuzadilar. Qolganlari ma'ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganadilar, ma'ruzachilarga savollar tuzadilar. Ma'ruzachilar referat yozishadi va |

| | | |
|---|---|---|
| | maslahat beradi.<br>(44) Barcha talabalarga ma’ruza va qo’shimcha materiallar mazmunini o’rganib chiqish va savollar tayyorlab kelish topshirig’ini beradi.<br>(45) Ma’ruzachilar bilan ma’ruza qilish metodikasi va tuzilishini muhokama qiladi, ma’ruza mazmuniga o’zgartirishlar kiritadi. | ko’rgazmali materiallar tayyorlashadi. |
| **1-bosqich. O’quv mashg’ulotiga kirish (Da’vat bosqichi) (20 minut)** | 1.1. O’quv mashg’ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni o’tkazish rejasini ma’lum qiladi.<br>1.2. Talabalar diqqatini jalb etuvchi dasturlashtirilgan topshiriqlar beradi.<br>1.3. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o’tkazish qoidalari, baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. | Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar va javob beradilar.<br>Ishga ajratilgan vaqt, munozara o’tkazish qoidalari, baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar. |
| **2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut)** | 2.1. Talabalarni o’zlari tayyorlagan ma’ruza va ma’lumotlar bilan tanishtirishlarini tashkil etadi. Material mazmunining mantiqan yoritib berilishini diqqat bilan kuzatadi.<br>2.2. Taqrizchilarga so’zga chiqishni va savollar berishni taklif etadi.<br>2.3. Ma’ruza mazmunini jamoa bo’lib muhokama qilish jarayonini tashkil etadi:<br>- taqrizchilarga o’z fikrlarini bildirishlarini, qo’shimcha savollar berishni taklif etadi;<br>- savollar beradi;<br>- ma’ruzaning asosiy mohiyatini aniqlashtiradi.<br>2.4. Har bir | Ma’ruzachilar o’zlari tayyorlagan ma’lumotlarini taqdim etishadi.<br>Taqrizchilar ma’ruzaning ijobiy va kuchsiz jihatlarini aytib berishadi.<br>Savollar beradilar.<br>Munozarada ishtirok etadilar.<br>Munozara ishtirokchilari jamoaviy ravishda ma’ruza mazmunini muhokama qiladilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | ma'ruzaniqisqacha umumlashtirish bilan yakunlaydi. | |
| **3-bosqich. YAkuniy (fikrlash bosqichi) (10 minut)** | 3.1. Ma'ruza jarayonida olingan ma'lumotlarni guruhlash maqsadida talabalarga LTQ ko'rinishidagi tarqatma materialni beradi.<br>3.2. O'quv faoliyati natijalariga yakun yasaydi. Ma'ruza ma'ruzachilari va ishtirokchilari tayyorgarligini, talabalarning munozaralardagi faolligini baholaydi.<br>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi. | Tinglaydilar, aniqlashtiradilar va vazifani yozib oladilar. |

**1-ilova.Dasturlashtirilgan topshiriq savollari:**

1. Nega gap bo'laklari sanalmaydigan birliklar deb atalgan?
2. Bu bo'laklarning eng asosiy belgilari nimada?
3. Qaysi birliklar bu guruhga kiradi?
4. Bu birliklar boshqa bo'laklarga qanday bog'lanadi?

**Dasturlashtirilgan topshiriq natijalari:**

| Savol № | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|---|
| Javob № | | | | |
| Natija | | | | |

Talaba F.I.O.

**Baho** **O'qituvchi imzosi**

**4-ilova. Tarqatma material**

1. Tojiboy, shu bugunoq cho'lga etib bor.(S.Ahm.) 2. O'ktam, bu taklif chinmi, yo anchayin odamgarchilikmi, iljayishning ma'nisi ne ekan, deb ichida o'yladi.(O.) 3. Anvar, qo'y, bu gapni keyin gaplashamiz.(T.Malik) 4. Jiyan, aqling bo'lsa, kishining bir tiyiniga xiyonat qilma.(O.) 5. Qobiljon G'iyosovich, bunaqada sovxoz yana daromad ololmaydi.(P.Q.) 6. Jon singlim, ikki-uch kun kampirning aytganlarini qilib turing. (S.Ahm.) 7. – Hoy, tentakkinalarim, tog'angni bevoshlik qilib qiynamanglar.(S.Ahm.) 8. CHol yana hayrat bilan qaradi unga: - G'ulomjon, inim, bormisan? Seni ko'rar kun ham bo'larkan-a? (J.Abd.) 9. Ey, taqdir, otani bunda zor, farzandni unda intizor etmasang nima qilardi.(SH.) 10. Ey, do'stlarim, nimaiki topgan bo'lsam, hammasi sizga.(X.T.) 12.

## 6-ilova. Ma'ruzadan parchalar

### Umumiy ma'lumot

Nutqda gap bo'laklari bilan grammatik bog'lanmaydigan so'zlar qatnashadigan gaplar ham qo'llanadi. Bunday so'zlar ma'no jihatdan butun gapga yoki uning biror bo'lagiga aloqador bo'ladi. Bular **undalmali, kirish so'z, kirish birikma** va **kirish gapli murakkablashgan gaplardir**. Bunday birliklarga sintaktik aloqa amal qilmaydi, ya'ni ular boshqa gap bo'laklari bilan sintaktik jihatdan bog'lanmaydi.

### Undalmali gap

So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildirgan so'z **undalma** deyiladi. Undalma odatda ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. She'riy asarlarda shoir ba'zan o'ziga, ya'ni so'zlovchiga ham qarata murojaat qilishi mumkin: *Nazm tuz, **Erkin**, axir, erkin zamondur bu zamon.* Undalma boshqa gap bo'laklari bilan faqat mazmunan bog'langan bo'ladi.

Undalma ko'pincha bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanganligi uchun egaga o'xshab ketadi, lekin ega kesim bilan shaxs va son (birlik va ko'plik)da bog'langan bo'ladi, undalma esa bog'lanmaydi: *Karimjon* (ega -3-shaxs, birlikda) *ertaga keladimi?* (kesim – 3-shaxs birlikda) *Karimjon,* (undalma – 3-shaxs, birlikda) *ertaga kelasizmi?* (2-shaxs, ko'plikda)

Ayrim hollarda, ayniqsa, she'riy asarlarda hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarning nomini bildirgan so'zlar ham undalma bo'ladi: *Xayr, **maktabim**!* Bir so'z bilan ifodalangan undalma **yig'iq undalma** deyiladi: *Do'stim, biznikiga mehmon bo'lib keling*. So'z birikmasi bilan ifodalangan undalma **yoyiq undalma** deyiladi: *Hurmatli talabalar, yangi yilingiz muborak bo'lsin!* Undalmani kuchli ifodalash uchun undalmadan oldin ***e, ey, hoy, obbo*** kabi undovlar ham qo'llanadi, bulardan keyin vergul qo'yiladi.

Undalmalar quyidagicha ifodalanadi: **1) ot bilan:*Ahmadjon***, *kitobingizdan foydalansam bo'ladimi?***2) olmosh:***Hoy **sen**, menga qara-chi.***3) otlashgan so'zlar**: *Shunday demaysizmi, azizim!* (sifat) ***To'rtinchi**, birinchiga javob bering* (son). **4) undov so'zlar:*Hoy**! Beri keling!***5) so'z birikmalari bilan:***Hoy, **soqoling ko'ksingga to'kilgur!***6) iboralar bilan:***Hoy, **yigit tushmagur,** nima qilib qo'yding!*

Undalma gapning boshida kelsa, undalmadan so'ng, gap o'rtasida kelsa, ikki tomoniga, gapning oxirida kelsa, undalmadan oldin vergul qo'yiladi: *So'zla, **ko'zgujon**, Haqiqatni et bayon!*

So'zlovchining o'zi bayon qilgan fikriga munosabatini bildirgan so'z **kirish so'z**, shunday so'z birikmasi esa **kirish birikma** deb ataladi. Kirish so'zlar va kirish birikmalar asosan **modal** so'zlar bilan ifodalanib, quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1. Ishonch va tasdiqni: *Albatta, shubhasiz, ma'lumki, haqiqatan, darhaqiqat, haqiqatan ham, so'zsiz.*
2. Gumonni: *ehtimol, shekilli, chamasi, balki, taxminimcha, mumkin.*
3. Shodlik yoki achinishni: *Baxtimga, baxtga qarshi, attang, afsus.*
4. Bayon qilingan fikrning kimga qarashli ekanligini: *menimcha, mening fikrimcha, uning aytishicha, aytishlaricha, sizningcha.*
5. Bayon qilingan fikrning tartibini: *birinchidan, ikkinchidan...*

6. Bayon qilingan fikrning oldingi fikr bilan bog‘liqligini: *demak, shunday qilib, umuman, aksincha, ba'zan, aks holda, xullas, shuningdek, ayniqsa, asosan, binobarin, xususan.*
7. Tasdiq yoki inkorni: *ha, yo‘q, mayli, to‘g‘ri.*

Kirish so‘z yoki birikma gapning boshida kelsa, undan keyin, gapning o‘rtasida kelsa, ikki tomoniga, gapning oxirida kelsa, undan oldin vergul qo‘yiladi: ***Nihoyat**, ular jo‘nashdi. Ular, **nazarimda**, ketishdi. Bugun ular kelishmaydi, **shekilli**.*

So‘zlovchining o‘zi bayon qilgan fikrga qo‘shimcha mulohazasini bildirgan gap **kiritma gap** deyiladi. Kiritma gap asosiy fikrni to‘ldirish, izohlash uchun ishlatiladi. Kiritma gap, odatda, vergul bilan ajratiladi: *Bu, **Salim aytmoqchi**, ularning asosiy maqsadldri bo‘lgan.*

Kiritma gap yoyiq bo‘lsa, tire bilan ajratiladi yoki qavs ichiga olinadi: *Mirzakarimboy boshqalarga maqtanmasa ham (**maqtanchoqlikni yomon ko‘rar edi**), ba'zi vaqt ichidan faxrlanardi (O.). Qabulxona - **bu er ilgari katta boyning mehmonxonasi bo‘lgan bo‘lsa kerak** - qorong‘i edi.*

Kiritma gaplarning tuzilish jihatdan turlari: 1) bir bosh bo‘lakli: *U yog‘ini so‘rasang, aytaymi, men bunga rozi emasman.* 2) ikki bosh bo‘lakli: *Ibrohimov, Qurbon ota aytmoqchi, gullarni o‘z ilmidan bahramand qildi.*

## 13-Mavzu: Gapning ifoda maqsadiga ko’ra turlari.

### Ma’ruzaning texnologik kartasi

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O’qituvchi** | **Talaba** |
| **Tayyorgarlik bosqichi** | (46) Ma’ruza mavzulari, ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro’yxatini beradi.<br>(47) Ma’ruzachilarga mavzularni berishni, taqrizchilarni aniqlashlashtirishni tashkillashtiradi.<br>(48) Ma’ruzachilarga tanlangan mavzu bo’yicha referat mavzusini batafsil tuzish topshirig’ini beradi, maslahat beradi.<br>(49) Barcha talabalarga ma’ruza va qo’shimcha materiallar mazmunini | Ma’ruzachilar mavzuni tanlaydilar va uning rejasini tuzadilar. Qolganlari ma’ruza va qo’shimcha materiallar mazmunini o’rganadilar, ma’ruzachilarga savollar tuzadilar. Ma’ruzachilar referat yozishadi va ko’rgazmali materiallar tayyorlashadi. |

| | | |
|---|---|---|
| | o'rganib chiqish va savollar tayyorlab kelish topshirig'ini beradi.<br>(50) Ma'ruzachilar bilan ma'ruza qilish metodikasi va tuzilishini muhokama qiladi, ma'ruza mazmuniga o'zgartirishlar kiritadi. | |
| **1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (20 minut)** | 1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni o'tkazish rejasini ma'lum qiladi.<br>1.2. Talabalar diqqatini jalb etuvchi dasturlashtirilgan topshiriqlar beradi.<br>1.3. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. | Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar va javob beradilar.<br>Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar. |
| **2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut)** | 2.1. Talabalarni o'zlari tayyorlagan ma'ruza va ma'lumotlar bilan tanishtirishlarini tashkil etadi. Material mazmunining mantiqan yoritib berilishini diqqat bilan kuzatadi.<br>2.2. Taqrizchilarga so'zga chiqishni va savollar berishni taklif etadi.<br>2.3. Ma'ruza mazmunini jamoa bo'lib muhokama qilish jarayonini tashkil etadi:<br>- taqrizchilarga o'z fikrlarini bildirishlarini, qo'shimcha savollar berishni taklif etadi;<br>- savollar beradi;<br>- ma'ruzaning asosiy mohiyatini aniqlashtiradi.<br>2.4. Har bir ma'ruzaning qisqacha umumlashtirish bilan yakunlaydi. | Ma'ruzachilar o'zlari tayyorlagan ma'lumotlarini taqdim etishadi.<br>Taqrizchilar ma'ruzaning ijobiy va kuchsiz jihatlarini aytib berishadi.<br>Savollar beradilar.<br>Munozarada ishtirok etadilar.<br>Munozara ishtirokchilari jamoaviy ravishda ma'ruza mazmunini muhokama qiladilar. |
| **3-bosqich.** | 3.1. Ma'ruza jarayonida | Tinglaydilar, |

| | | |
|---|---|---|
| **YAkuniy (Fikrlash bosqichi) (10 minut)** | olingan ma'lumotlarni guruhlash maqsadida talabalarga LTQ ko'rinishidagi tarqatma materialni beradi.<br>3.2. O'quv faoliyati natijalariga yakun yasaydi. Ma'ruza ma'ruzachilari va ishtirokchilari tayyorgarligini, talabalarning munozaralardagi faolligini baholaydi.<br>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi. | aniqlashtiradilar va vazifani yozib oladilar. |

**1-ilova.Dasturlashtirilgan topshiriq savollari:**

1. Gapning qanday belgilari mavjud?
2. Gaplar qaysi xususiyatlariga ko'ra turlarga bo'linadi?
3. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra qanday turlari mavjud?
4. Gapning his-hayajon ifodalashiga ko'ra qanday turlari mavjud??

**2-ilova. Ma'ruza mashg'uloti dokladlari mavzulari**:

1. Darak gap haqida to'liq ma'lumot bering.
2. So'roq gap haqida to'liq ma'lumot bering.
3. Buyruq gap haqida to'liq ma'lumot bering.
4. His-hayajon gap haqida to'liq ma'lumot bering.

**3-ilova. Xulosani shakllantirish uchun savollar:**

1. Darak gapning qanday turlari mavjud?
2. So'roq gapning qanday turlari mavjud?
3. Buyruq gapning qanday turlari mavjud?
4. His-hayajon gapning qanday turlari mavjud?

**Dasturlashtirilgan topshiriq natijalari:**

| Savol № | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|---|
| Javob № | | | | | |
| Natija | | | | | |

Talaba F.I.O.

**Baho** **O'qituvchi imzosi**

1. *–mi, -chi, -a, -ya* yuklamalari yordamida qanday gap tuziladi?

A.buyruq gap
B.his-hayajon gaplar
C.darak gap
D.so`roq gap
E.darak gap, buyruq gap

2. So`roq gaplarni hosil qiluvchi vositalar qaysi qatorda?

A. so`roq olmoshlari bilan

B. gapning mazmuniga qarab
C. so`roq ohangi yordamida
D. so`roq yuklamalari vositasida
E. A, S, D.
3. Yashirin inkor mazmunini bildiradigan ritorik so`roq gapni toping.
A. Kimda bor bunchalik latofat, husn!
B. Dehqonning yerdan boshqa nima tirikchiligi bor?
C. Inson qila olmaydigan ish bormi?
D. Yutuqlarimizni kim inkor qila oladi?
E. Oftob nurlariga g`arq bo`lib yotgan bu ko`rkam , aziz vatanimizda nimalar yo`q?
4. Iltimosni bildirgan buyruq gap qaysi qatorda berilgan?
A. Bugungi ishni ertaga qo`yma.
B. Men sizga bir mashq chalib beray.
C. Mayli, baxtingizni sinab ko`ring.
D. Marhamat, uyga kiring
E. Meni ham o`z safingizga ola qoling.
5. Yashamoq – mehnat qilmoq: Sog`lig`im – boyligim. Ushbu sintaktik birliklar qanday nomlanadi va ular o`zaro qanday bog`lanadi?
A.teng bog`lanishli birikma
B. bitishuv yo`li bilan birikkan birikma
C. teng bog`lanishli gap
D. tobe bog`lanishli gap
E. bir xil so`roqqa javob bo`luvhi uyushiq bo`laklar.
6. Ritorik so`roq gapni toping.
A. Farmon bibining uyi shumi?
B. Siz qayerdan, mehmon?
C. Shunday go`zal vatan bormi dunyoda?
D. Sen mening gapimga quloq solgin.
E. Xo`sh?
7. Buyruq gapning ohangi yordami bilan so`roq gapga o`tgani qaysi qatorda?
A. Ismingiz?
B.Opang seni juda yaxshi ko`rsa kerak-a?
C. Yo`l bo`lsin?
D. Sening ukang bultir maktabni bitirgan?
E. Siz qanday kitoblar oldingiz?
8. Muomala vositasining eng kichik birligi nima?
A. so`z
B. qo`shma so`z
C. ibora
D. so`z birimasi
E. gap.
9. Faqat so`roq ohangi yordami bilan hosil bo`lgan so`roq gapni toping.
A. O`tkir Hoshimov asarlarini o`qiganmisiz?
B. Siz-chi?
C. Yaxshi qo`shiqni kim yoqtirmaydi?

D. Soat besh bo`ldi. Soat besh bo`ldi?
E. O`quvchilarni qanaqa kitoblar bilan xursand qilmoqchisiz?
10. So`roq yuklamasi yordamida hosil bo`lgan so`roq gapni toping.
A. Kimda qanday taklif bor?
B. Oltinsoyga yaqinda keldinglar, shekilli?
C. Nahotki bir tomchi qayg`uni, bir dengiz quvonch yuvib ketolmaydi?
D. Qishlog`imiz yoqmay qoldimi?
E. Pulni ham berdingiz?
11. Yo`ling tushganmidi, qadrdon do`stim, bu yaqin orada Mirzacho`l tomon? Ifoda maqsadiga ko`ra ushbu gap turini belgilang.
A. undalmali gap
B. so`roq gap
C. bir bosh bo`lakli gap
D. yoyiq gap
E. barcha hukmlar to`g`ri.
12. So`roq shaklida yashirin tasdiq bildirgan fikr qaysi gap orqali ifodalangan?
A. Farida qayoqqa ketgan?
B. Aslida bu kibrlanish o`z-o`zini ko`rsatish emasmi?
C. Ammo bitta nomarddan keyin beshta mardning uchrashishi buyuk topilma emasmi?
D. Xo`sh, uning ketidan hayot to`xtab qolarmidi?
E. B va S
13. Qaysi so`roq gapda buyurish mazmuni ifodalangan?’
A.Kumushning o`zi yigit to`g`risida hech narsa bilmaydimi?
B. ... sinashda o`rtog`ingiz bo`lsalar u kishidan sir yashirib o`tirasizmi?
C. Hoy! Uka, shu yerda qo`lida kitob, daftar ko`targan bola ko`rmadingizmi?
D. Tunov kuni aytganim yodingizdan chiqdimi?
E. Otabek qipchoqlarga qarshi so`zladimi?
14. Mazmunan iltimos ma’nosini ifodalagan gaplar maqsadga ko`ra gapning qaysi turiga mansub?
A. His-hayajonli gap
B. buyruq gap
C. so`roq gap
D. darak gap
E. undov gap
15. Boshqaruvli birikmani toping.
A. yaqinda keldi
B. chindan aytdi
C. kecha keldi
D. A va B
E. boshqaruvli birikma mavjud emas.
16. Sifat boshqaruvi qaysi qatorda berilgan?
A. burchga beparvolik, ahdiga sodiqlik
B. o`ziga ma’lum, yo`lida intizor
C. o`qdan tez, haqiqatga yaqin
D. yaxshi niyat, serdaromad ish

E. barcha javoblar to`g`ri
17. So`z birikmalarining qaysi turida bosh so`z fe’l so`z turkumi bilan ifodalana oladi?
A.moslashuv
B.bitishuv
C. boshqaruv
D. B va S
E. A, B va S
18. Taklifni anglatgan buyruqli gapni aniqlang.
A. seni ish yengmasin, sen ishni yeng
B. endi oltin balig`ing kelib, xizmatimizni qilsin
C. ko`ksingizda go`zal niyatlar gullasin, birodar!
D. qani, boqqa kiring, dam oling
E. mashg`ulotlarga kechikma.
19. Hayratlanishni bildiradigan his-hayajon (undov) gapni toping.
A. Ikkita zarrin to`n keltir
B. Bu misibatga qanday chidayman!
C. Buguncha biznikida qoling
D. O`hho`, unaqa-munaqa emas-ku!
E. Ket mening dargohimdan!
20. Shodlik, xursanchilik ifodalaydigan his-hayajon (undov) gapni aniqlang.
A. Evoh, essiz umr, essiz qizim!
B.Buncha to`ng bo`lmasa-ya bu kishi!
C. Uyaling oqni qora degani!
D. Mehmonlar kelishayotir, onajon! Onajan, o`rtog`im, o`rtog`im!
E. Xudo o`lim bersin kulgiga!
21. Buyirish mazmuniga ega bo`lgan so`roq gapni toping.
A. –Husan aka, nega sizni duma deyishadi?
B. Shunaqa so`zlarni har kimga aytaverasizmi?
C.-Maktab qursa yomonmi?
D.Nima deyayotganini o`zi biladimi oyim?
E.Shomurod akamnikiga ketayapsizmi?
22. Buyuruq, maslahat nasihat tariqasida bo`lgan gapni toping.
A.Sochingni chamvarak qil!
B. Yaxshisi, boshinga tashvish tushganida bardam bo`l
C. –Ko`nglingiz to`q bo`lsin oqsoqol!
D. –Olimjon, chiq buyoqqa!
E. –Shoshma, oldin qorningni to`yg`azib ol.
23. Istak mazmunidagi darak gapni aniqlang.
A. Bir qarashda bu - yaxshi orzu
B. Har kim mashina olgisi keladi
C. Aka-uka hosilni baravar olishibdilar
D. Ona ancha yil fabrikada ishlagan
E. A va B.
24. Tilakni bildirgan buyruq gapni ko`rsating.
A. –Yangi uyga ko`chishingiz kerak ekan, oyi

B. Uni albatta o`zingiz bilan ola keting
C. –Mana shu xonadandan qut-baraka arimasin
D. U kelishi bilan daftarni albatta ko`rsating
E. A va S
25. Maslahat tarzidagi buyruq gapni aniqlang.
A. –Chop, tezroq yugur
B. O`ynab gapirsang ham o`ylab gapir
C. –Anavi burchakdan joy berilsin bularga
D. Yig`lamasdan gapir, yaramas
E. A va B.
26. Iltimos, yalinish mazmunini bildirgan buyruq gapni toping.
A. Sizlarni mehmon qilishga ijozat bering.
B. Jon aka, menga ham o`rgating
C. –Albatta, topib bering
D. -Iltimos, bu haqda og`iz ochmang
E. B va D.
27. Ogohlantirish tariqasidagi buyruq gapni toping.
A. Menga qara, sen odamning ko`ngliga cho`p suqma
B. –Hamma voqeani menga bafurja gapirib beringlar
C. Mening ketayotganimni unga ayta ko`rmang
D. Hovliqmasdan gapir!
E. Shu ishni menga topshiring.
28. Yupatish, tasalli berish mazmunidagi buyruq gapni toping.
A. Agar quvonching tugasa, nimada yanglishganingni axtar.
B. Avval kimligini so`rab bil!
C. Tezroq korxonaga kirib Sodiqbeklarni to`playlik
D. Odamlarga yomonlik qilma, ranjitma, dilini og`ritma, tashvish va notinchlikka qo`yma.
E. Ko`p tashvish qilmang. Ko`p o`ylayvermang. O`zingizni bosing
29. Qaysi inkor gap inkor mazmunini anglatmaydi?
A. Buni senga aytish istagim yo`q emas
B. Mehnat jarayoniga asoslangan bilimdan o`tkirroq qurol yo`q
C. Hech kim hamma narsani bilishi, istagan sohada bir xil iqtidorli bo`lishi mumkin emas
D. Ortiqcha ko`p bilishlik aqlni peshlamaydi
E. Kimki hech narsani qiziqib so`ramasa hech narsani o`rganmaydi ham
30. Qaysi so`roq gap buyurish mazmunini ham ifodalaydi?
A. Shunday ayanchli ahvolda bo`la turib, yolg`on so`zlar bilan lof urishdan uyalmaysanmi?!
B. –Odam degan ham shunaqa beparvo bo`ladimi o`g`lim?
C. –Qalay yaxshi dam olyapsanmi?
D. Qaysi mavzu tushishini bilasizmi?
E. Bundan ham ortiq balolar bo`larmikan?
31. Osmonda yulduzlar chamani porlaydi. Ushbu gapdagi so`zlar o`zaro qaysi qo`shimchalar orqali sintaktik bog`langan?
A. -da, -i

B. –da, -i, -di
C. –da, -lar, -i, -di
D. –da, -lar, -i, -y, -di
E. –da, -di
32. Ifodalangan fikrning so`roq shaklida inkor qilinishi qaysi javobda berilgan?
A. –Institut direktori siz bo`lasizmi?
B. U bizdek faqirlarni nazariga ilarmidi?
C. –Ertalab oying uyda bo`ladimi?
D. Ammo har bir kishi o`zini er degani bilan er bo`laveradimi?
E. B va D

## 4-ilova. Tarqatma material

## GAP

33. *–mi, -chi, -a, -ya* yuklamalari yordamida qanday gap tuziladi?
A.buyruq gap
B.his-hayajon gaplar
C.darak gap
D.so`roq gap
E.darak gap, buyruq gap
34. So`roq gaplarni hosil qiluvchi vositalar qaysi qatorda?
A. so`roq olmoshlari bilan
B. gapning mazmuniga qarab
C. so`roq ohangi yordamida
D. so`roq yuklamalari vositasida
E. A, S, D.
35. Yashirin inkor mazmunini bildiradigan ritorik so`roq gapni toping.
A. Kimda bor bunchalik latofat, husn!
B. Dehqonning yerdan boshqa nima tirikchiligi bor?
C. Inson qila olmaydigan ish bormi?
D. Yutuqlarimizni kim inkor qila oladi?
E. Oftob nurlariga g`arq bo`lib yotgan bu ko`rkam , aziz vatanimizda nimalar yo`q?
36. Iltimosni bildirgan buyruq gap qaysi qatorda berilgan?
A. Bugungi ishni ertaga qo`yma.
B. Men sizga bir mashq chalib beray.
C. Mayli, baxtingizni sinab ko`ring.
D. Marhamat, uyga kiring
E. Meni ham o`z safingizga ola qoling.

Ma’ruza ta’lim texnologiyasi modeli

**14-Mavzu: Gapning aktual bo’linishi**

**Ma’ruzaning texnologik kartasi**

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O’qituvchi** | **Talaba** |
| **Tayyorgarlik bosqichi** | (51) Ma’ruza mavzulari, ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro’yxatini beradi.<br>(52) Ma’ruzachilarga mavzularni berishni, taqrizchilarni aniqlashlashtirishni tashkillashtiradi.<br>(53) Ma’ruzachilarga tanlangan mavzu bo’yicha referat mavzusini batafsil tuzish topshirig’ini beradi, maslahat beradi.<br>(54) Barcha talabalarga ma’ruza va qo’shimcha materiallar mazmunini o’rganib chiqish va savollar tayyorlab kelish topshirig’ini beradi.<br>(55) Ma’ruzachilar bilan ma’ruza qilish metodikasi va tuzilishini muhokama qiladi, ma’ruza mazmuniga o’zgartirishlar kiritadi. | Ma’ruzachilar mavzuni tanlaydilar va uning rejasini tuzadilar. Qolganlari ma’ruza va qo’shimcha materiallar mazmunini o’rganadilar, ma’ruzachilarga savollar tuzadilar. Ma’ruzachilar referat yozishadi va ko’rgazmali materiallar tayyorlashadi. |
| **1-bosqich. O’quv mashg’ulotiga kirish (Da’vat bosqichi) (20 minut)** | 1.1. O’quv mashg’ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni o’tkazish rejasini ma’lum qiladi.<br>1.2. Talabalar diqqatini jalb | Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar va javob beradilar.<br>Ishga ajratilgan vaqt, munozara |

| | | |
|---|---|---|
| | etuvchi dasturlashtirilgan topshiriqlar beradi.<br>1.3. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. | o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar. |
| **2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut)** | 2.1. Talabalarni o'zlari tayyorlagan ma'ruza va ma'lumotlar bilan tanishtirishlarini tashkil etadi. Material mazmunining mantiqan yoritib berilishini diqqat bilan kuzatadi.<br>2.2. Taqrizchilarga so'zga chiqishni va savollar berishni taklif etadi.<br>2.3. Ma'ruza mazmunini jamoa bo'lib muhokama qilish jarayonini tashkil etadi:<br>- taqrizchilarga o'z fikrlarini bildirishlarini, qo'shimcha savollar berishni taklif etadi;<br>- savollar beradi;<br>- ma'ruzaning asosiy mohiyatini aniqlashtiradi.<br>2.4. Har bir ma'ruzaniqisqacha umumlashtirish bilan yakunlaydi. | Ma'ruzachilar o'zlari tayyorlagan ma'lumotlarini taqdim etishadi.<br>Taqrizchilar ma'ruzaning ijobiy va kuchsiz jihatlarini aytib berishadi.<br>Savollar beradilar.<br>Munozarada ishtirok etadilar.<br>Munozara ishtirokchilari jamoaviy ravishda ma'ruza mazmunini muhokama qiladilar. |
| **3-bosqich. YAkuniy (fikrlash bosqichi) (10 minut)** | 3.1. Ma'ruza jarayonida olingan ma'lumotlarni guruhlash maqsadida talabalarga LTQ ko'rinishidagi tarqatma materialni beradi.<br>3.2. O'quv faoliyati natijalariga yakun yasaydi. Ma'ruza ma'ruzachilari va ishtirokchilari tayyorgarligini, talabalarning munozaralardagi faolligini baholaydi.<br>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi. | Tinglaydilar, aniqlashtiradilar va vazifani yozib oladilar. |

| | |
|---|---|
| **Ma'ruzaga ajratilgan vaqt**– 2 s | **Talabalar soni** – ta |
| **O'quv mashg'ulotining shakli** | Ma'ruza |
| **O'quv mashg'ulotining tuzilishi** | 1. Ma'ruzaga kirish.<br>2. Ma'ruzani amalga oshirish tartibi bilan tanishtirish.<br>3. Ma'ruzalar bilan tanishish.<br>4. Ma'ruza yuzasidan muhokamalarni tashkil etish.<br>5. Ma'ruzalar yuzasidan umumiy xulosalarga kelish.<br>6. Ma'ruzani yakunlash. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi** | Talabalarda fanning rivojlanishi haqidagi bilimlarni tarkib toptirish |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>8) Ma'ruzaning maqsad va vazifasini tushuntirish;<br>2) Ma'ruzani amalga oshirish tartibini bayon etish;<br>3) ma'ruzalarni tinglash jarayonini tashkil etish;<br>4) ma'ruza yuzasidan muhokamalar jarayonini boshqarish;<br>5) | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>6)ma'ruzalarni taqdim etishadi va tinglab borishadi;<br>7)ma'ruzalardagi eng asosiy jihatlarni ajratib olib, o'z daftarlariga qayd etadilar;<br>8)ma'ruzalaryuzasidansavollarbilanmurojaatetishadi;<br>9)ma'ruzayuzasidanmuhokamauchunso'zgachiqadilar;<br>10) ma'ruzalaryuzasidanumumiyxulosalarqabulqilishdao'z munosabatlarinibildirishadi. |

| | |
|---|---|
| ma’ruzalar yuzasidan umumiy xulosalar qabul qilish. | |
| **Ta’lim metodi** | Ma’ruza, tushuntirish, suhbat, munozara, dasturlashtirilgan topshiriqlar |
| **Ta’limni tashkil etish shakli** | Ma’ruza, ommaviy |
| **Didaktik vositalar** | Ma’ruza matni, slayd-prezentatsiya, tarqatma materiallar |
| **Ta’limni tashkil etish sharoiti** | Maxsustexnikvositalarbilanjihozlanganxona |
| **Nazorat** | O’z-o’zini nazorat qilish. |

**1-ilova. Dasturlashtirilgan topshiriq savollari:**

1. Sodda gaplarning shunday tarzda turlarga bo'linishi to'grimi?
2. Bir bosh bo'lakli gaplarda qaysi bosh bo'laklar ishtirok etishi mumkin?
3. Bir bosh bo'lakli gaplar qanday turlarga bo'linadi?
4. Ikki bosh bo'lakli gaplar qanday turlarga bo'linadi?
5. Nega to'liq va to'liqsiz gaplar deb ataladi?

6.Toliqsiz gaplarning bir bosh bo'lakli gaplardan farqi nimada?

7.So'z gaplarning to'liqsiz gaplardan farqi nimada?

8.Bu gaplar qaysi o'rinlarda ko'p ishlatiladi?

**2-ilova. Ma'ruza mashg'uloti dokladlari mavzulari:**

1. Sodda gaplarning turlarga bo'linishi haqida ma'lumot.
2. Bir bosh bo'lakli sodda gaplar haqida ma'lumot..
3. Ikki bosh bo'lakli sodda gaplar haqida ma'lumot.

4.Toliq gaplar haqida ma'lumot.

5. Toliqsiz gaplar haqida ma'lumot.
6. So'z gaplar haqida ma'lumot..

**3-ilova. Xulosani shakllantirish uchun savollar:**

1. Bir bosh bo'lakli sodda gaplarning qaysi turlarini bilasiz? Misollar keltiring.
2. Egasiz bir bosh bo'lakli sodda gaplarning qaysi turlarini bilasiz? Misollar keltiring.
3. Kesimsiz bir bosh bo'lakli sodda gaplarning qaysi turlarini bilasiz? Misollar keltiring.

4. Ikki bosh bo'lakli sodda gaplarning qaysi turlarini bilasiz? Misollar keltiring.5.To'liqsiz gaplarda qanday bo'laklar tushirilishi mumkin? Misollar keltiring.

6. So'z gaplarning qanday turlari mavjud? Misollar keltiring.

7. So'z gaplar qanday so'zlar bilan ifodalanadi? Misollar keltiring.

8. So'z gaplar yanaqanday

**Dasturlashtirilgan topshiriq natijalari:**

| Savol № | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|---|
| Javob № | | | | |
| Natija | | | | |

Talaba F.I.O.

**Baho** **O'qituvchi imzosi**

**4-ilova. Tarqatma material**

1. Lekin hozir boshqa narsaga qoyil qolib turibman.(O'.Usm.) 2. SHu-shu bo'ldi-yu, nemis tilini o'rganishga orzumand bo'lib harakat qildi.(A.Q.) 3. Onasini juda ko'hlik deyishadi. 4. Qosimovaga ayting, shu bugunoq ishga kirishsin.(T.Malik) 5. Qizcha qizil chechak bilan og'riganini bilmagan ekanlar. (J.Abd.) 6. Ko'pdan beri bilib yuribman. Qurilishgga kichkina niyat bilan kelmagansiz.(J.Abd.) Ma'lum bo'lishicha, Matkarimovni hozircha qo'yib yuborishibdi (O.YO.) 7. YOzdagi issiqqa ham, kuzning shamoliga ham, izg'iriniga ham chidadik.(J.Abd.) 8. Juda bolaligida olib kelganmiz. (S.Ahm.) 9. Bel olishsang, kuchli polvon bilan olish.(As.M.) 10. Bitta tirnog'i ortiq itlarga shunaqa ot qo'yishadi. (P.Q.) 11. Unda-munda quduq bor deyishadi. (J.Abd.) 12. Fanni chidaganga chiqargan! (O'.Usm.)13.. Qaqroq erlarda o'tkazgan birinchi kunlarimizni eslashdik. (J.Abd.) 14. Kasalxonani kunbotish tomonda, markaziy maydonning orqasida deyishuvdi. (O.YO.) 15. Ammo nomiga falonchi bo'lib, hayotga bir mirilik nafi tegmaydigan olimlikdan asrasin! (O'.Usm.) 16. Uni oradan chorak soat o'tgandan keyin topib keltirishdi. (J.Abd.) 17. Sanamay sakkiz dema.(Maqol) 18. Bularning qishloq bolalarimi yo shahar bolalarimi ekanligini ajratib bo'lmaydi. (M.Ism.) 18. Qoplonbopdan oqadigan soyni quvurdan oqizish kerak.(S.Ahm.) 19. Boshdan pisanda qilib kambag'allarga bo'lib berish chorasini ko'rish kerak. (M.Ism.) 20. Bir aylanib chiqish uchun besh olti kilometr yo'l yuriladi. (P.Q.) 21. Nima qilsa brigadani qoloqlikdan chiqarsa bo'ladi. (J.Abd.) 22. Mana o'sha, ko'chaga qaragan ochiq ayvon. (As.M.) 23. Balki bu yo'lda sonsiz shafqatsizliklarni, musibatlarni boshdan kechirishga to'g'ri kelar.(J.Abd.) 24. Bazmlarni to'xtatib, butun e'tiborni mudofaaga qaratmoq kerak.(P.Q.) 25. Bularni osmondan erga tushirib qo'yish kerak. (P.Q.)

**5-ilova.**

Sodda gaplar grammatik asosiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi (grammatik asos – bu ega va kesimdir):

1) **bir bosh bo'lakli** gaplarning grammatik asosida bir bosh bo'lak mavjud bo'ladi: *Ota-onalarga* ***yordam berdik***.
2) **ikki bosh bo'lakli gaplarning** grammatik asosida har ikkala bosh bo'lak ham, ya'ni ega va kesim ham qatnashadi:***Biz*** *maktabga* ***bordik***.

**Ikki bosh bo'lakli gaplarning turlari**

**1. Yig'iq ikki bosh bo'lakli gaplar** tarkibida bosh bo'laklargina mavjud bo'ladi: *O'quvchilar yig'ildilar.* Ba'zan ega va kesim birikma bilan ifodalanib, kengayib keladi va ikkinchi darajali bo'laklar borga o'xshab ko'rinadi, lekin bu gaplar ham yig'iq gaplar hisoblanadi: *Yigit hamshunaqa bo'ladimi? Ikki dugonatermilib qolishdi.*
**2. YOyiq ikki bosh bo'lakli gaplar** tarkibida bosh bo'laklardan tashqari, ikkinchi darajali bo'laklar ham qatnashadi: *O'quvchilarmaydonchagayig'ildilar*.

**Bir bosh bo'lakli gaplarning turlari**

**1. SHaxsi ma'lum (aniq) gaplar**kesimiga qarab egani aniqlash mumkin bo'lgan gaplardir: *YUtuqlar oldida esankiramaylik (Biz).*
**2. SHaxsi noma'lum (noaniq) gaplar** kesimiga qarab ish-harakatning haqiqiy bajaruvchisini aniqlash mumkin bo'lmagan gaplardir: *YAxshini maqtaydilar, yomonni uyaltiradilar.* (kesim 3-shaxsdagi fe'l bilan ifodalanganda, shaxsi ma'lum va shaxsi noma'lum gaplar quyidagicha farqlanadi: shaxsi ma'lum gapda so'zlovchi o'ziga tanish shaxs haqida so'z yuritadi, shaxsi noma'lum gapda esa o'zi shaxsan tanimagan shaxs(lar) haqida so'z yuritadi: *Bugun keldi* - shaxsi ma'lum gap. *Sevgini chidaganga chiqargan* – shaxsi noma'lum gap)
**3. SHaxsi umumlashgan gaplar** mazmunan har uchala shaxsga taalluqli bo'lgan gaplardir: *Sanamay sakkiz dema.*

Bunday gaplarning kesimi odatda, II shaxs birlikda buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalansa ham, mazmunan barchaga qaratilgan bo'ladi, shuning uchun ega ifodalanmaydi. Xalq maqollari shaxsi umumlashgan gaplar orqali ifodalanadi: *Bugungi ishni ertaga qo'yma.*
**4. Shaxsi topilmas (shaxssiz) gaplar** egasini topib ham, gap tarkibiga kiritib ham bo'lmaydigan gaplardir: *U erda intizom haqida so'zlashga to'g'ri keldi.*

SHaxsi topilmas gaplarning kesimlari 3-shaxs majhul nisbatdagi fe'llar, *bo'ladi, bo'lmaydi* so'zlari orqali, *-mas* qo'shimchali so'z orqali, harakat nomidan keyin *kerak, zarur, lozim, mumkin* so'zlarini keltirish orqali ifodalanadi: *Raisning o'zi haqida gapirilsin! Mehnatsiz rohatga erishib bo'lmaydi. Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi. Ertalabki salqinda etib borish kerak.*
**5. Atov (nominativ) gaplar** bosh kelishikdagi ot orqali ifodalangan grammatik asos yordamida ifodalangan narsa-buyumning borligini, mavjudligini anglatadi va ko'pincha badiiy va publitsistik asarlarda payt va o'rinni ifodalash uchun ishlatiladi: ***Kuz***. *Izg'irin shabada esyapti.* Atov gaplar matnda yolg'iz qo'llanmaydi, ulardan keyin uning mazmunini ochuvchi boshqa bir gap kelishi zarur.

Atov gaplarning oxiriga, odatda nuqta qo'yiladi, agar kuchli ohang bilan aytilsa, undov belgisi qo'yiladi: *Tog'lar! Baland tog'lar!*

Atov gaplar bir so'zdan iborat bo'lishi ***(Ko'cha**. Mashinalar g'iz-g'iz o'tmoqda)* yoki o'z aniqlovchisi bilan kengayib ***(Katta ko'cha**. Odamlar to'lqini uni o'z qa'riga tortib ketdi)* kelishi mumkin:

**6.Infinitiv gaplar** grammatik asosi harakat nomi bilan ifodalanadigan, yakka so'z yoki so'z birikmasidan iborat bo'lgan gaplardir: ***Sevish**! Bu qanday baxt!**Birovni kutish!**Bundan azobliroq narsa bo'lmasa kerak!*

**So'z-gaplar haqida ma'lumot**

Bir so'z bilan ifodalanib, bo'laklarga bo'linmaydigan va boshqa so'zlar bilan kengaymaydigan gaplar so'z-gaplar deb yuritiladi. Bu gaplar sodda gaplarning bir turi hisoblanadi: *Ertaga unikiga borasizmi? - **Ha**.*

So'z-gaplar quyidagi turlarga bo'linadi: **1) modal so'z-gaplar** qat'iy ishonch, taxmin, gumon, ma'nolarini ifodalab keladigan gaplardir: - *Ertaga kelasizmi? – Albatta.* 2) **undov so'z-gaplar** his-tuyg'u va haydash-chaqirish yoki javob ma'nolarini ifodalaydigan gaplardir: - *Oh, - dedi-yu, sekin divanga o'tirib qoldi.* 3) **tasdiq so'z-gaplarga***ha, mayli, xo'sh, xo'p* kabi so'zlar kiradi; 4) **inkor so'z-gaplarga***yo'q, mutlaqo, aslo, sira, aksincha* so'zlari kiradi; 5) **taklif so'z-gaplar** tinglovchiga qaratilib, biror ish-harakatni bajarishga undaydigan gaplardir. Bularga *ma, mang, qani, marhamat* kabi so'zlar kiradi. YOzuvda so'z-gaplarning oxiriga nuqta, undov belgisi, ko'p nuqta qo'yilishi mumkin. *Ha, yo'q, mayli* so'zlaridan keyin vergul qo'yilib, keyin gap bo'laklari qo'llansa, bu so'zlar kirish so'zlar hisoblanadi va so'z-gaplar hisoblanmaydi: - *Kecha muzeyga bordingizmi? - Ha, bordik.*

*Ofarin, tashakkur, rahmat, barakalla, salom, marhamat, uzr* kabi so'zlar bilan ifodalanib, minnatdorlik, salomlashish, kechirim, iltimos kabilarni ifodalaydigan gaplar ham so'z-gaplar hisoblanadi.

So'z-gaplar ko'pincha dialogik nutqda qo'llanadi.

## To'liq va to'liqsiz gaplar haqida ma'lumot

Fikrni ifodalash uchun zarur bo'lgan gap bo'laklarining barchasi qatnashgan gaplar **to'liq gaplar** deyiladi: *Ulardan xat keldimi?*

Nutq vaziyatidan ma'lum bo'lgan ayrim bo'laklari tushirilgan gaplar **to'liqsiz gaplar** deyiladi: - *Siz maktabga borasizmi?* - ***Boraman***(ega - *men*, hol – *maktabga* tushirilgan). To'liqsiz gaplarda qaysi bo'lakning tushirilishi nutq vaziyatiga qarab amalga oshiriladi. Bunday gaplarda navbati bilan barcha bo'laklar tushirilishi mumkin. Qaysi bo'lakning tushirilganligi to'liqsiz gapdan oldin kelgan to'liq gapga qiyoslagan holda aniqlanadi: -*Rajabbeknikida bo'lgan majlisni sen bilasanmi?.. – deb so'radi.* (To'liq gap) – *Bilaman.* (to'liqsiz gap) *(A.Qod.)* YUqoridagi to'liq gap tarkibida aniqlovchi *(Rajabbeknikida bo'lgan)*, to'ldiruvchi *(majlisni)*, ega *(sen)* va kesim *(bilasanmi)* mavjud bo'lsa, keyingi to'liqsiz gapda shu bo'laklardan faqat kesimgina *(Bilaman)* qoldirilgan.

To'liqsiz gaplarning turlari: 1) dialogik nutq tarkibidagi to'liqsiz gap: *Kim kelmadi?**Ahmad.*** 2) ibora tarzidagi to'liqsiz gap: *Tug'ilgan kuningiz*

*bilan!Navro'zingiz muborak!Bayramingiz bilan!* 3) qo'shma gap tarkibidagi to'liqsiz gap: *YAxshidan ot qoladi, yomondan dod (qoladi).*

To'liqsiz gaplar suhbatda, so'zlashuv nutqida va badiiy asarlarda ko'proq qo'llanadi.

Ma'ruza ta'lim texnologiyasi modeli

**15-Mavzu: Ko'chirma gap**

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| **Tayyorgarlik bosqichi** | (56) Ma'ruza mavzulari, ma'ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi.<br>(57) Ma'ruzachilarga mavzularni berishni, taqrizchilarni aniqlashlashtirishni tashkillashtiradi.<br>(58) Ma'ruzachilarga tanlangan mavzu bo'yicha referat mavzusini batafsil tuzish topshirig'ini beradi, maslahat beradi.<br>(59) Barcha talabalarga ma'ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganib chiqish va savollar tayyorlab kelish topshirig'ini beradi.<br>(60) Ma'ruzachilar bilan ma'ruza qilish metodikasi va tuzilishini muhokama qiladi, ma'ruza mazmuniga o'zgartirishlar kiritadi. | Ma'ruzachilar mavzuni tanlaydilar va uning rejasini tuzadilar. Qolganlari ma'ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganadilar, ma'ruzachilarga savollar tuzadilar. Ma'ruzachilar referat yozishadi va ko'rgazmali materiallar tayyorlashadi. |
| **1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (20 minut)** | 1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni o'tkazish rejasini ma'lum qiladi.<br>1.2. Talabalar diqqatini jalb etuvchi dasturlashtirilgan topshiriqlar beradi.<br>1.3. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish | Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar va javob beradilar.<br>Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan |

| | | |
|---|---|---|
| | qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. | tanishadilar. |
| **2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut)** | 2.1. Talabalarni o'zlari tayyorlagan ma'ruza va ma'lumotlar bilan tanishtirishlarini tashkil etadi. Material mazmunining mantiqan yoritib berilishini diqqat bilan kuzatadi.<br>2.2. Taqrizchilarga so'zga chiqishni va savollar berishni taklif etadi.<br>2.3. Ma'ruza mazmunini jamoa bo'lib muhokama qilish jarayonini tashkil etadi:<br>- taqrizchilarga o'z fikrlarini bildirishlarini, qo'shimcha savollar berishni taklif etadi;<br>- savollar beradi;<br>- ma'ruzaning asosiy mohiyatini aniqlashtiradi.<br>2.4. Har bir ma'ruzaniqisqacha umumlashtirish bilan yakunlaydi. | Ma'ruzachilar o'zlari tayyorlagan ma'lumotlarini taqdim etishadi.<br>Taqrizchilar ma'ruzaning ijobiy va kuchsiz jihatlarini aytib berishadi.<br>Savollar beradilar.<br>Munozarada ishtirok etadilar.<br>Munozara ishtirokchilari jamoaviy ravishda ma'ruza mazmunini muhokama qiladilar. |
| **3-bosqich. YAkuniy (fikrlash bosqichi) (10 minut)** | 3.1. Ma'ruza jarayonida olingan ma'lumotlarni guruhlash maqsadida talabalarga LTQ ko'rinishidagi tarqatma materialni beradi.<br>3.2. O'quv faoliyati natijalariga yakun yasaydi. Ma'ruza ma'ruzachilari va ishtirokchilari tayyorgarligini, talabalarning munozaralardagi faolligini baholaydi.<br>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi. | Tinglaydilar, aniqlashtiradilar va vazifani yozib oladilar. |

| | |
|---|---|
| **Ma'ruzaga ajratilgan vaqt**– 2 s | **Talabalar soni** – ta |
| **O'quv mashg'ulotining shakli** | Ma'ruza |
| **O'quv mashg'ulotining tuzilishi** | 1. Ma'ruzaga kirish.<br>2. Ma'ruzani amalga oshirish tartibi bilan tanishtirish.<br>3. Ma'ruzalar bilan tanishish.<br>4. Ma'ruza yuzasidan muhokamalarni tashkil etish.<br>5. Ma'ruzalar yuzasidan umumiy xulosalarga kelish.<br>6. Ma'ruzani yakunlash. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi** | Talabalarda fanning rivojlanishi haqidagi bilimlarni tarkib toptirish |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>9) Ma'ruzaning maqsad va vazifasini tushuntirish;<br>2) Ma'ruzani amalga oshirish tartibini bayon etish;<br>3) ma'ruzalarni tinglash jarayonini tashkil etish;<br>4) ma'ruza yuzasidan muhokamalar jarayonini boshqarish;<br>5) ma'ruzalar | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>11) ma'ruzalarni taqdim etishadi va tinglab borishadi;<br>12) ma'ruzalardagi eng asosiy jihatlarni ajratib olib, o'z daftarlariga qayd etadilar;<br>13) ma'ruzalaryuzasidansavollarbilanmurojaatetishadi;<br>14) ma'ruzayuzasidanmuhokamauchunso'zgachiqadilar;<br>15) ma'ruzalaryuzasidanumumiyxulosalarqabulqilishdao'z munosabatlarinibildirishadi. |

| | |
|---|---|
| yuzasidan umumiy xulosalar qabul qilish. | |
| **Ta'lim metodi** | Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, munozara, dasturlashtirilgan topshiriqlar |
| **Ta'limni tashkil etish shakli** | Ma'ruza, ommaviy |
| **Didaktik vositalar** | Ma'ruza matni, slayd-prezentatsiya, tarqatma materiallar |
| **Ta'limni tashkil etish sharoiti** | Maxsustexnikvositalarbilanjihozlanganxona |
| **Nazorat** | O'z-o'zini nazorat qilish. |

**1-ilova. Dasturlashtirilgan topshiriq savollari:**

6. Ko'chirma gaplarning turlarga bo'linishi to'grimi?
7. Ko'chirma gaplarda qaysi bosh bo'laklar ishtirok etishi mumkin?
8. Ko'chirma gaplarda qanday tinish belgilar ishlatiladi?

**2-ilova. Ma'ruza mashg'uloti dokladlari mavzulari:**

1. Ko'chirma gaplarhaqida ma'lumot.
2. Ko'chirma gaplarda tinish belgilar haqida ma'lumot.
3. Muallif gapi haqida ma'lumot.
4. Ko'chirma gap tartibi haqida ma'lumot.

**Dasturlashtirilgan topshiriq natijalari:**

| Savol № | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|---|
| Javob № | | | | |
| Natija | | | | |

Talaba F.I.O.

**Baho** **O'qituvchi imzosi**

**6-ilova. Ma'ruza matnidan parchalar**

## KO`CHIRMA GAPLI QO`SHMA GAP HAQIDA MA'LUMOT

So`zlovchi ba'zan o`z nutqida birovning gapini aynan keltiradi. Birovning aynan keltirilgan gapi ko`chirma gap, so`zlovchining gapi esa muallif gapi deyiladi.Muallif gapi va ko`chirma gapdan tashkil topgan qo`shma gapga ko`chirma gapli qo`shma

gap deyiladi: *Bir kuni Durroj tuzoqqa tushib qoldi. U ovchiga yalinib dedi: "Sen meni qo`yib yuborsang, barcha do`stlarimni aldab kelib, tuzog`ingga tushirib beraman".*

Ko`chirma gap muallif gapi bilan birga qo`llanadi. Muallif gapining kesimi *dedi, deb so`radi, deb javob berdi, gapirdi, so`zladi, aytdi, buyurdi* kabi nutq fe'llari bilan ifodalanadi.

Ko`chirma gap so`zlashuv va badiiy uslubda ko`proq qo`llanadi.

Ko`chirma gapning o`rni quyidagicha bo`ladi:

- ko`chirma gap muallif gapidan oldin keladi: *«Mehnat bilan topilgan non shirin bo`ladi», - deydi bobom.*
- ko`chirma gap muallif gapidan keyin keladi: *Qo`ziboy dedi: «Men maymunjon teogani shu yerga kelgan edim».*
- ko`chirma gap muallif gapining ichida keladi: *Onam buvimga qarab: «Ko`ying, o`qisin, mulla bo`lsin», - dedi.*
- muallif gapi ko`chirma gap ichida keladi: «*Ko`p martalab mehmon bo`ldim, - dedi Qutidor, - ul vaqtda bobongiz ham hayot edilar».*

## 2-§. Кўчирма гапда тиниш белгиларининг ишлатилиши

- Кўчирилган гап қўштирноқ ичига олинади, бадиий асарларда тире билан ажратиб берилади.
- Кўчирма гапда, кўчирилган гапнинг ўрнига қараб, тиниш белгиларининг ишлатилиши қуйидагича бўлади:
- 1. Кўчирилган гап дарак гап бўлиб, муаллиф гапидан олдин келса, ундан кейин вергул ва тире қўйилади: *"Юринг, мен ўша томонга бораман", - деди Комила* (бадиий асарларда тире ишлатилади). Сўроқ ва ундов белгилари қўштирноқ ёпилмасдан олдин қўйилади.
- 2. Кўчирилган гап муаллиф гапидан кейин келса, муаллиф гапидан кейин икки нуқта қўйилади: *Бир кун Ҳусайн Мирзо шипга қараб ётиб, вазирларига шундай дебди: - Олиб келинг! ("Эл деса Навоийни")*
- 3. Муаллиф гапи кўчирилган гап ичида келса, тиниш белгилари қуйидагича қўйилади:
- 1) кўчирилган гапнинг узилиб қолган қисмида ҳеч қандай тиниш белгиси бўлмаса ёки вергул ёхуд икки нуқта бўлса, бу белгилар туширилиб, муаллиф гапи ҳар икки томондан вергул ва тире билан ажратилади: *"Ҳазрат, - дебди Худойберди унга қараб, - тандирни қуролмадим". ("Эл деса Навоийни")*

- 2) кўчирилган гапнинг узилиб қолган қисмидан сўнг нуқта қўйиш лозим бўлса, муаллиф гапидан олдин вергул ва тире, муаллиф гапидан сўнг эса нуқта қўйилади: *"Нойиб тўранинг гапларидан билинади ўзи, деди Мирёқуб. – Сиз бўлган гапларни айтиб беринг". (Ч.)*
- 3) кўчирилган гапнинг узилиб қолган қисмидан сўнг сўроқ ёки ундов белгиси қўйиш лозим бўлса, муаллиф гапидан аввал ўша белги ва тире қўйилади, муаллиф гапидан сўнг нуқта ва тире қўйилиб, кўчирма гапнинг давоми бош ҳарф билан бошланади: *"Хадичахон кўзларини айёрлик билан ўйнатиб туриб, кундошига қаради: - Гапни эшитаётирсизми? – деди. – Эртага бизникига шаҳарлик меҳмонлар келишар экан!".(Ч.)*
- 4. Кўчирилган гап муаллиф гапининг ўртасида келса, тиниш белгилари қуйидагича қўйилади:
- 1) муаллиф гапининг узилиб қолган қисмининг охирига икки нуқта қўйилиб, кўчирилган гап қўштирноқ ичига олинади; кўчирилган гапдан кейин вергул ва тире қўйилиб, кейин муаллиф гапининг давоми ёзилади: *Саодат: "Биз ҳам астойдил меҳнат қилдик", - деди.*
- 2) кўчирилган гап сўроқ ёки ҳис-ҳаяжон гап бўлса, уларнинг белгилари қўштирноқ ичида бўлади: *Ўқитувчимиз* : *"Сен қайси бадиий китобларни ўқиб чиққансан?"* - *деб сўрадилар.*
- 5. Кўчирма гаплар ҳамсуҳбатларнинг луқмаси тарзида ифодаланганида ёзма нутқда ҳар бир луқмадан аввал тире қўйилади. Бу луқмаларда муаллиф гапи бўлмайди: - *Шаҳарда қариндошингиз борми?* - *Йўқ.*

## 16-Mavzu: O'zlashtirma gap

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| **Tayyorgarlik bosqichi** | (61) Ma'ruza mavzulari, ma'ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi.<br>(62) Ma'ruzachilarga mavzularni berishni, taqrizchilarni aniqlashlashtirishni tashkillashtiradi.<br>(63) Ma'ruzachilarga tanlangan mavzu bo'yicha referat mavzusini batafsil tuzish topshirig'ini beradi, maslahat beradi. | Ma'ruzachilar mavzuni tanlaydilar va uning rejasini tuzadilar. Qolganlari ma'ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganadilar, ma'ruzachilarga savollar tuzadilar. Ma'ruzachilar referat yozishadi va ko'rgazmali |

| | | |
|---|---|---|
| | (64) Barcha talabalarga ma'ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganib chiqish va savollar tayyorlab kelish topshirig'ini beradi.<br>(65) Ma'ruzachilar bilan ma'ruza qilish metodikasi va tuzilishini muhokama qiladi, ma'ruza mazmuniga o'zgartirishlar kiritadi. | materiallar tayyorlashadi. |
| **1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi)<br>(20 minut)** | 1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni o'tkazish rejasini ma'lum qiladi.<br>1.2. Talabalar diqqatini jalb etuvchi dasturlashtirilgan topshiriqlar beradi.<br>1.3. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. | Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar va javob beradilar.<br>Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar. |
| **2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi)<br>(50 minut)** | 2.1. Talabalarni o'zlari tayyorlagan ma'ruza va ma'lumotlar bilan tanishtirishlarini tashkil etadi. Material mazmunining mantiqan yoritib berilishini diqqat bilan kuzatadi.<br>2.2. Taqrizchilarga so'zga chiqishni va savollar berishni taklif etadi.<br>2.3. Ma'ruza mazmunini jamoa bo'lib muhokama qilish jarayonini tashkil etadi:<br>- taqrizchilarga o'z fikrlarini bildirishlarini, qo'shimcha savollar berishni taklif etadi;<br>- savollar beradi;<br>- ma'ruzaning asosiy mohiyatini aniqlashtiradi.<br>2.4. Har bir ma'ruzaniqisqacha | Ma'ruzachilar o'zlari tayyorlagan ma'lumotlarini taqdim etishadi.<br>Taqrizchilar ma'ruzaning ijobiy va kuchsiz jihatlarini aytib berishadi.<br>Savollar beradilar.<br>Munozarada ishtirok etadilar.<br>Munozara ishtirokchilari jamoaviy ravishda ma'ruza mazmunini muhokama qiladilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | umumlashtirish bilan yakunlaydi. | |
| **3-bosqich. YAkuniy (fikrlash bosqichi) (10 minut)** | 3.1. Ma'ruza jarayonida olingan ma'lumotlarni guruhlash maqsadida talabalarga LTQ ko'rinishidagi tarqatma materialni beradi.<br>3.2. O'quv faoliyati natijalariga yakun yasaydi. Ma'ruza ma'ruzachilari va ishtirokchilari tayyorgarligini, talabalarning munozaralardagi faolligini baholaydi.<br>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi. | Tinglaydilar, aniqlashtiradilar va vazifani yozib oladilar. |

| | |
|---|---|
| **Ma'ruzaga ajratilgan vaqt**– 2 s | **Talabalar soni** – ta |
| **O'quv mashg'uloti ning shakli** | Ma'ruza |
| **O'quv mashg'uloti ning tuzilishi** | 1. Ma'ruzaga kirish.<br>2. Ma'ruzani amalga oshirish tartibi bilan tanishtirish.<br>3. Ma'ruzalar bilan tanishish.<br>4. Ma'ruza yuzasidan muhokamalarni tashkil etish.<br>5. Ma'ruzalar yuzasidan umumiy xulosalarga kelish.<br>6. Ma'ruzani yakunlash. |
| **O'quv mashg'uloti ning maqsadi** | Talabalarda fanning rivojlanishi haqidagi bilimlarni tarkib toptirish |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>10) Ma' ruzaning maqsad va vazifasini tushuntirish;<br>2) Ma'ruzani amalga oshirish tartibini bayon etish;<br>3) ma'ruzalarni tinglash jarayonini tashkil etish;<br>4) ma'ruza yuzasidan muhokamalar jarayonini boshqarish;<br>5) ma'ruzalar yuzasidan umumiy xulosalar qabul qilish. | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>16) ma'ruzalarni taqdim etishadi va tinglab borishadi;<br>17) ma'ruzalardagi eng asosiy jihatlarni ajratib olib, o'z daftarlariga qayd etadilar;<br>18) ma'ruzalaryuzasidansavollarbilanmurojaatetishadi;<br>19) ma'ruzayuzasidanmuhokamauchunso'zgachiqadilar;<br>20) ma'ruzalaryuzasidanumumiyxulosalarqabulqilishdao' zmunosabatlarinibildirishadi. |
| **Ta'lim** | Ma'ruza, tushuntirish, suhbat, munozara, dasturlashtirilgan |

| | |
|---|---|
| **metodi** | topshiriqlar |
| **Ta'limni tashkil etish shakli** | Ma'ruza, ommaviy |
| **Didaktik vositalar** | Ma'ruza matni, slayd-prezentatsiya, tarqatma materiallar |
| **Ta'limni tashkil etish sharoiti** | Maxsustexnikvositalarbilanjihozlanganxona |
| **Nazorat** | O'z-o'zini nazorat qilish. |

**1-ilova. Dasturlashtirilgan topshiriq savollari:**

9. O'zlashtirma gaplarning turlarga bo'linishi to'grimi?
10. O'zlashtirma gaplarda qaysi bosh bo'laklar ishtirok etishi mumkin?
11. O'zlashtirma gaplarda qanday tinish belgilar ishlatiladi?

**2-ilova. Ma'ruza mashg'uloti dokladlari mavzulari:**

1. O'zlashtirma gaplarhaqida ma'lumot.
2. O'zlashtirma gaplarda gap bo'laklari haqida ma'lumot.
3. O'zlashtirma gaplardagio'zgarishlar haqida ma'lumot.

**Dasturlashtirilgan topshiriq natijalari:**

| Savol № | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|---|
| Javob № | | | | |
| Natija | | | | |

**6-ilova.** 6-ilova. Tarqatma material

1. Bektemir ularga qaramasdan, sekin dedi: - Qopqonga tushibmiz, bu qalay? (O.) 2. Xolam: - Bolaginam-ey, hech bo'lmasa shu bugun qovog'ingni ochib o'tirsang-chi, - deya urishib berdi.(X.T.) 3. Navoiy bu o'lkaga hushyor odamlardan yuborib, ular orqali butun vaziyatdan ogoh bo'lib turish mumkinligini bayon qildi.(O.) 4. Ahmadjon o'ylab o'tirmasdan darhol javob berdi: - Granata tashlardim! YOndirib yuborar edim! (A.Q.) 5. Salimov kabinetiga hech kimni kiritmaslikni buyurdi.(J.Abd.) 6. - Qudrat akamning cho'ldan oladigan alamlari bor, - qo'shib qo'ydi Gulchiroy.(J.Abd.) 7. - Bu janjallarga mening nima aloqam bor? - dedi Asadbek. (T.Malik) 8. G'ulomjon yumuq ko'zlarini xiyol ochib: - Yo'q, bir oz charchadim shekilli, - dedi.(M.Ism.) 9. – Obid Yo'ldoshevich, bizning bu Mahmudovimiz juda o'zgarib ketibdi, - dedi. - Men bunaqaligini bilmas edim. (P.Q.) 10. - Ha, bunday degin, - Mirzakarimboy oyoqlarini gilamga uzatib, silab, gapni davom Ettirdi.(O.) 11. Ertaga nikoh bo'lgani uchun arava kerakligini, xo'jayin bir-ikki kun shaharda qolishga buyurganini bildirdi.(O.) 12. –

Inim Eshonxon, bu g'oyat qiyin savdo, - dedi Otash dukchi.(A.Q.) 13. – Bu kun xalq juda ko'p, - dedi yosh kotib. (O.) 14. – Kelib xo'p yaxshi ish qildingiz-da, - dedi rais xayrlasharkan, - bizni umidvor qilib ketyapsiz, do'stim. (J.Abd.) 15. Alibek elka qisib: - Men nima qilishim mumkin? – dedi.(P.Q.) 16. Muzaffar to'satdan dir-dir titray boshlagan qo'llarini orqasiga yashirib: - Nimaga shama qilyapsan, tushunmadim, Rasul? – deb so'radi.(O.YO.) 17. Teshaboy boyagi dag'dag'a bilan Emas, ancha past zaif tovush bilan: - Arzinglar bo'lsa, hokimga borib aytinglar, - dedi. (M.Ism.) 18. Buni sezgan katta qizi: - Dada, siz menga qaramay ildamroq boravering, - dedi. (J.Abd.) 19. Sherzod yana bir narsa deb e'tiroz qilmoqchi edi, rais: - O'rtoqlar, bahs tamom, muhokama tugadi, - dedi. (P.Q.) 20. Rasul Olloyorovich xuddi shu daqiqani kutib turganday: - Agar boshqa savollar, takliflar bo'lmasa, shu bilan kengaytirilgan kengashimiz tugadi, o'rtoqlar, - dedi odati bo'yicha ko'zoynagini almashtirib. (O'.Usm.)

## Ma'ruza matnidan parcha

## O`ZLASHTIRMA GAPLAR

O`zganing gapi hech o`zgarishsiz nutqqa olib kirilgan gap ko`chirma gap, mazmuni saqlanib, shakli o`zgartirilgan gap o`zlashtirma gap hisoblanadi:. Misollarni qiyos qiling: O.Hojieva yozadi: « Xalqni og`ir sinovlar, mashaqqatlar ulug` o`zgarishlar jipslashtiradi, uning kuch-qudratini imtihon qiladi». - ko`chirma gap; *O. Hojieva xalqni og`ir sinovlar, mashaqqatlar, ulug` o`zgarishlar jipslashtirishini, uning kuch-qudratini imtihon qilishini yozadi.*- o`zlashtirma gap.

**KO`CHIRMA GAPLARNI O`ZLASHTIRMA GAPGA AYLANTIRISH**

Ko`chirma gap o`zlashtirilma gapga aylantirilganda, ko`chirma gapli qo`shma gap sodda gap shaklini oladi. *Haydarov otadan so`radi: «Qayergacha quvib bordingiz?» - Haydarov otadan qayergacha quvib borganligini so`radi.*

Ko`chirma gap quyidagi shakliy o`zgarishlar bilan o`zlashtirma gapga aylanadi:

- darak gap shaklidagi ko`chirma gap kesimi tushum kelishigidagi sifatdosh yoki harakat nomi bilan ifodalangan to`ldiruvchiga aylanadi: *«Qo`li gullar cho`lni bo`ston etar», - dedi bobom. – Bobom qo`li gullar **cho`lni bo`ston etishini** aytdi.*

- ko`chirma gapning egasi o`zlashtirma gapda qaratqich aniqlovchiga aylanadi: *Bola dedi: «O`zim ham boshqa mamlakatdan kelib qolganman». – Bola **o`zining** boshqa mamlakatdan kelib qolganligini aytdi.*

- muallif gapining kesimi – dedi - o`zlashtirma gapda – aytdi – so`zi bilan almashtiriladi: *«Kitob – aqlning kaliti», -* ***dedi*** *o`qituvchimiz. – O`qituvchimiz kitobning aql kaliti ekanligini* ***aytdi****.*

- muallif gapining egasi ko`chirma gap egasi bo`lib, gap boshida keladi: *«Asli ismim Akramjon», - dedi* ***yigit.****–* ***Yigit*** *asli ismi Akramjon ekanligini aytdi.*

- so`roq, buyruq shaklidagi ko`chirma gaplar o`zlashtirma gapda darak gapga aylanadi: *O`ktam so`radi: «Qanday yangiliklar bor?» - O`ktam qanday yangiliklar borligini so`radi.*

- ko`chirma gap tarkibidagi undalma o`zlashtirma gapda chiqish kelishigi shaklidagi to`ldiruvchiga aylantiriladi: *«Nodira, bugun biznikiga kelmaysanmi?» - deb so`radi Fotima. – Fotima* ***Nodiradan*** *bugun ularnikiga kelishini so`radi.*

- ko`chirma gap tarkibidagi undov, kirish so`zlar tushirib qoldiriladi: *«Etib keldik,* ***shekilli****», - dedi Ochil. – Ochil yetib kelishganini aytdi.*

**ADABIYOTLARRO’YXATI**


1. H.Jamolxonov. Hozirgi o`zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O`zbek tili. 2004, O`AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o’zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o`zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to`plami Toshkent, 2009-yil
7. O’zbek tili grammatikasi. I tom. «Fan», Toshkent, 1975-yil.
8. O’zbek tili grammatikasi. II tom, «Fan», Toshkent, 1976-yil.
9. 12. M.Asqarova. Hozirgi o’zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
10. www/pedagog/uz
11. w.w.w.ziyo.net

**3.2. Amaliy mashg'uloti mavzulari bo'yicha**

**Amaliy mashg'ulot ta`lim texnologiyasi modeli**

| | | |
|---|---|---|
| **1 - MAVZU** | Mavzu: **Sintaksis. So'zlarning bog'lanishi.** | |
| Vaqti: 2 soat | | Talabalar soni: ta |
| Mashg'ulot shakli | | Amaliy mashg'ulot |
| Amaliy masg"uloti rejasi | | 1.Tashkiliy qism<br>2.Savol-javob<br>3.Mashq ishlash<br>4.Mustaqil ishlarni tekshirish |
| O'quv mashg'ulotning maqsadi | | Talabalarniso`zlarning teng tobe bog`lanishi, so`z birikmasiva uningtasnifihaqidagi bilimlarini mustahkamlash |
| O'qiituvchining vazifasi:<br>1.So'zlarning teng va tobe bog'lanishi,so'z birikmasi, uning turlari,so'z birikmasining so`z, sintagma, ibora va gapdan farqlarimavzusi yuzasidan topshiriqlar tizimini ishlab chiqadi va talabalarga beradi<br>2.Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxatini yozdirish.<br>3 Talabalar uylarida yozib kelgan mashqva matnlar o'qitilib, tahlil qildiriladi va uy vazifalari uchun joriy baholanadi. | | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>1.So'zlarning turli bog'lanishini yaxshi bilishi kerak<br>2. So'zlar orasidagi teng va tobe bog'lanishlarni o'zaro farqlash ko'nikmalarini shakllantirish<br>3. Gapdagi so'z birikmalarini ajrata olishi, tobe va xokim a'zolarini aniqlay olishi, so'z birikmalarini to'liq tahlil qila olishi lozim. |
| Ta'lim metodi va texnikasi | | Suhbat, muammoli izlanish, |
| Ta'lim vositasi | | Ma`ruzalar matni, mashqlar |

| | |
|---|---|
| | to'plami,tarqatma materiallar. |
| Ta'lim shakli | Yakka tartibdagi savol-javob, guruhlarda ishlash |
| Ta'lim sharti | Auditoriya, TSOdan foydalanish |

**1-ilova**
O'zbek tilida so'zlar ikki xil aloqaga kirishadi: 1. Teng aloqa . 2. Tobe aloqa.

Teng aloqadagi so'zlar biri ikkinchisiga tobelanmaydi: olma va anor, ustozlar va shogirdlar. Tobe aloqadagi so'zlar biri ikkinchisiga grammatik, ma'no jihatidan ergashadi. Bunda so'zlardan biri hokim, ikkinchisi tobe hisoblanadi. Tobe so'z hokim so'zni ma'no va grammatik jihatidan izohlaydi. Tobe aloqa asosida so'z birikmasi va gap hosil bo'ladi. So'z birikmasi tarkibidagi a'zolar bitishuv, boshqaruv va muvofiqlashuv(moslashuv) yo'llari bilan aloqaga kirishadi.

**2- ilova**
So'z birikmalari doskada yozilib, quyidagi tahlili ko'rsatiladi:
**yaxshi niyat-** so'z birikmasi, bitishuv, otli, aniqlovchili, sodda.
**kitobni o'qimoq-** so'z birikmasi,boshqaruv, fe'lli, to'ldiruvchili, sodda.
**bolalarning orzusi-** so'z birikmasi,muvofiqlashuv, otli, aniqlovchili, sodda.

**3-ilova**
*Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni afzal.*
**4- ilova**
Mashqlarni bajarish; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to'liq va mukammal bo'lishi o'qituvchi va talabalar tomonidan qatьiy nazoratga olinadi.)

**Mashqlar bajarish**; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to'liq va mukammal bo'lishi o'qituvchi va talabalar tomonidan qatьiy nazoratga olinadi.)
***310-mashq.*** Matnni o'qib, gaplarni aniqlang. Har bir gapni so'z birikmalariga ajrating.

*1. Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni afzal.* (G'.G'.) *2. Ketma-ket kelayotgan quruvchilar, texniklar, tuproq qazuvchilar, montajchilar uchun birinchi navbatda makon kerak.* (J.Abd.) *3. Husayn Boyqaro Navoiyning uyida uch kun o'tirdi.* (M.Osim) *4. Tonggi salqin o'rnini asta iliq shabada tafti egallay boshlaydi.* (J.Abd.) *5. Farmonov bu juvonni dashtda bir-ikki marta ko'rgandi.* (O.Yo.) *6. Vazira SHerzodning bu dalilini ham yashil siyoh bilan belgiladi.(P.Q.) 7. Ertasiga Ergash kuni bo'yi ro'zg'or ishlari bilan ovora bo'ldi.* (As.M.) *8. Namozboy bu gal ishni sal boshqacharoq tashkil etgan.* (X.T.)

***311-mashq***. O'qing. Gaplar tarkibidagi frazeologik birikmalarnn aniqlang, so'z birikmalaridan farqini tushuntiring.

1. Qosh qorayib qolgan. Pastqam tepaliklar qurshagan Jarqoq dengizdagi charog'on kemaday uzoq-uzoqlardan ko'rinib turibdi. *(I. R.)* 2.A'zamning hafsalasi pir bo'lib, tarvuzi qo'ltig'idan tushdi, battar ter bosdi. *(SH.)* 3. Ishga sho'ng'ib ketganidan qulog'iga gap ham kirmaydi. *(S. Nazar.)* 4. Bu yashnab turg'an gul qanchadan-qancha kishilarning bahridilini ochardi. *(S. Ahm.)* 5. U shunday ostin-ustin bir vaqtda bir o'q bilan ikki quyonni urmoqchi bo'ldi. *(P. T.)*

***312-mashq***. O'qing. So'z birikmalarini aniqlang. Faqat yordamchi so'zlar vositasida tuzilgan so'z birikmalarini ko'chirib, turini ayting.

1. U hamisha oldinga, kamolot sari intildi. Xo'sh, kamolotning o'zi nima? Kamolot ulkan mehnat va insonga nisbatan chuqur mehr-muhabbatdir. Kamolot kishining o'z iste'dodini

yuksaltirishi va bilimini boyitishidir. Eng muhimi shuki, kishi o'zi orttirgan bilimini boshqalar bilan o'rtoqlashmog'i lozim. *(L. Ватъ.)* 2. Karimjon bilan ikkalamizga ayvonga joy qilib berishdi. Mayin shamol daraxt yaproqlari bilan so'zlashayotgan kabi, uzoqdan soy shivirlaydi. Qo'rg'onning orqasida bulbul xonish qiladi. Gullarning yoqimli isi dimoqqa uradi. Uyqum o'chib, notanish yerlarning sehrli tungi manzarasini tomosha qilib yotdim. *(S. Yunusov.)*

***313- mashq***. O'qing. Affikslar yordamida, yordamchi so'zlar vositasida, shuningdek, intonatsiya orqali tuzilgan so'z birikmalaridan ikkitadan ko'chirib, birikma hosil qilishda ishtirok etgan vositalar tagiga chizing.

1. Iroda insonning qudrati, sevishi va sevilishi, nafrati va quvonchi, vafosi va ishonchi demakdir. *(J.Abd.)* 2. Navoiy keksa do'stiga Xorazmiyning «Muhabbatnoma»si bilan sandal daraxti po'stlog'ining shirasidan tayyorlangan qimmatbaho dori hadya etdi. *(L. Ватъ.)* 3. Turli millatdan tashkil topayotgan bu ulkan oila Qizilqumda haqiqiy do'stlik qasrini o'rnatmoqda edi. *(J.Abd.)* 4. Davlat ishlarida siz kabi olijanob zotlar qancha ko'p bo'lsa, yurtimiz shunchalik tez ravnaq topgusidir. *(L. Ватъ.)* 5. Tepaqo'rg'onda yangragan karnay-surnay ovozlari butun kengliklar sari parvoz qildi. *(J. Abd.)* 6. Kulgi bir nafas tinmasa ham, vaqt juda sekin o'tmoqda edi. *(O.Yo.)*

***314-mashq***. O'qing, tenglashish va ergashish yo'li bilan bog'langan so'z qo'shilmalarini aniqlab, ular orasidagi farqni tushuntiring. 1. Teng bog'lanish yo'li bilan tuzilgan so'z qo'shilmalarini ko'chirib, bog'lovchi vositalar tagiga chizing. 2. Ergashish yo'li bilan tuzilgan so'z qo'shilmalarini ko'chirib, hokim va tobe so'zlarni belgilang.

1. Pastliklarda g'uj-g'uj pista daraxtlari, azamat toshlar orasida sinkaga solingandek ko'k suv goh ko'rinadi, goh ko'rinmaydi. Soyning narigi tomonida yalang'och tog'lar yuksala-yuksala vodiy yo'lini to'sib yotibdi. Uning qizil cho'qqilariga oftob tushib turibdi. O'ngirlarda saratondan yashirinib qolgan qor uyumlari ko'rinadi. *(S. Ahm.)* 2. Qishloqlardan, yaqin-uzoq dalalardan paxtalar, qovun-tarvuzlar, xashak-pichanlar, don-dun, o'tin-yog'ochlar, makkapoya, g'o'zapoya, beda va boshqa narsalar yuklangan aravalar shaharga paydarpay kelib turadi. Katta yo'llar bo'yidagi daraxtlar, uylar, devorlargina emas, ot-ulov yurmaydigan jin ko'chalardagi, hatto ko'cha yuzidan yiroqhovli-maydonlardagi daraxtlar, uylar, devorlar ham xuddi osmondan tuproq yoqqandek ikki enli chang ostida so'rrayib yotadi. *(M.Ism.)*

**5-ilova**

- Sintaksis haqidagapiring.
- So'z birikmasi xokim a'zosining ifodalanishiga ko'ra turlarini ayting.
- So'z birikmasidaso'zlarning boglanishini ta'riflang

. Muvofiklashuv deb nimaga aytiladi

**Mashg'ulotni yakunlash.O'qituvchimashg'ulotningqandaydarajadaamalgaoshirilganliginitalabalargama'lumqiladi, ularnirag'batlantiradivato'plaganballariniizohlabeshittiradi. Keyingi mashg'ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar)xususida o'z mulohazalarini bayon qiladi.**

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o`zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, SH.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O`zbek tili. 2004, O`AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o`zbek tili. 2006, "Universitet" nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to`plami Toshkent, 2009-yil

## 2- MavzuSo'z birikmasi, birikish usullari,uning turlari.

**Amaliy mashg`ulotning texnologik kartasi**

| Dars bosqichlari va vaqti | O'qituvchi | Talaba |
|---|---|---|
| 1-boqich<br>Kirish<br>(5 daqiqa) | (1) Mavzu bo'yicha qisqacha ma'lumot beradi.<br><br>(2). Tayyorlanish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi.<br>. | Talabalar mavzu yuzasidan axborotni eshitadi.<br><br>Adabiyotlar ro'yxatini yozib oladi. |
| 2-bosqich<br>Asosiy bosqich<br>(70 daqiqa) | 2.1 So'zlarning bog'lanishi, so'z birikmalari haqida umumiy ma'lumot beradi.(1-ilova)<br><br>2.2 O'qituvchi doskada so'z birikmalarini to'liq tahlil qilishni o'rgatadi. (2-ilova)<br><br>2.3. Gaplardagi so'z birikmalarni aniqlash bo'yicha topshiriq beradi (3-ilova)<br><br>2. 4. O'quv qo'llanmadagi topshiriqlarni beradi.(4-ilova) | 1 Eshitadi, yozadi, savollarga javob beradi.<br><br>2.Kuzatadi va mushohada qiladi.<br><br>3. Berilgan topshiriqlarni bajaradi, munozarada qatnashadi.<br><br>4. Mashq bajaradilar, muhokamada qatnashadilar |
| 4-bosqich<br>Yakuniy bosqich<br>(5 daqiqa) | 3.1. Mavzuni mustahkamlash uchun savollar beradi(5-ilova)<br>3.2. Uyga vazifa beradi. | 1. Savollarga javob beradi<br>2. Uyga vazifani yozib oladi. |

**5-ilova..Mustaqil ish asosida talabalar bilimini tekshirish va baholash.**

Talabalar 1-2-3-variantlarga bo'linadi va har bir variant vakillari moslashuvli,boshqaruvli va bitishuvli birikishlarga misollar yozib ularni to'liq tahlil qiladir. Masalan:

Namuna:

| Moslashuv | Boshqaruv | Bitishuv |
|---|---|---|
| Mashinaning oynasi | Kitob bilan suhbat | Keng ko'chalar |
| | | |

**6-ilova. Test texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash**

## So`zbirikmasi

1. Qaysi birikmalarda tobe so`z sifat bilan ifodalangan?
A. ishonchli do`st, oq kabutar, qizargan olma
B. do`stona munosabat, g`oyat qiziqarli, o`zbekcha nutq
C. hovlining o`rtasi, qushning qanoti, do`stimning maktubi
D. qiziqarli suhbat, beqiyos o`lka, katta qishloq
2. Husan esa tabiatan tirishqoq va dadil ekan. U qunt bilan ishlabdi, xayotni diqqat bilan o`rganibdi, oqilona harakat qilibdi. Ushbu matndagi aniqlovchili birikmalarni hosil qiluvchi tobe so`zlar qaysi qatorda to`g`ri berilgan?
A. tirishqoq, dadil
B. qunt bilan, diqqat bilan, oqilona
C. A va B
D. to`g`ri javob berilmagan.
3. Qaysi gapda teng bog`lanish ishtirok etgan?
A. Men bilan opam suhbatlashdi
B. Siz bilan men boraman
C. A va B
D. Ba’zan qor, ba’zan yomg`ir yog`adi.
4. Birinchi bor bahorni tanigan, ilk bor varrak uchirgan, birinchi marta hayitlik olgan joying, birinchi o`qituvchi, birinchi muhabbatingni tanigan makon-vatandir!(8/28-bet) Ushbu gapda nechta to`ldiruvchili birikma mavjud?
A. 3ta
B. 4ta
C. 5ta
D. 6ta
5. Maktab direktori kotiba olib kirgan hujjatlarga qo`l qo`ydi. Rahimjon ma’yus holda so`ri suyanchig`iga qo`l qo`ydi. Ushbu gaplardagi “qo`l qo`ymoq” birligi haqidagi qaysi hukm to`g`ri?
A. har ikkala gapda qo`shma so`z
B. birinchi gapda qo`shma so`z, ikkinchi gapda so`z birikmasi
C. har ikkala gapda so`z birikmasi
D. birinchi gapda qo`shma so`z, ikkinchi gapda ibora
6. Quyidagi birliklardan qaysilari ham erkin, ham turg`un birikma (ibora) sanaladi?
A. boshiga yetmoq, yaxshi ko`rmoq, qulog`iga quymoq, o`z yog`ida qovrilmoq
B. boshini ko`tarmoq, ko`ngliga keltirmoq, qo`l ko`tarmoq, to´nini teskari kiymoq
C. ko`zini yog` bosgan, ko`nglidan o`tkazmoq, qo`lini siltamoq, tosh otmoq
D. bo`yniga qo`ymoq, kapalagi uchmoq, jonidan o`tmoq, ko`zini tikmoq
7. Qaysi qatorda berilgan so`z birikmalarini gapga aylantirish mumkin?
A. qiziqarli mashg`ulot, oydin kecha, maqola o`qimoq
B. berilgan topshiriq, o`qishli asar, g`azal yodlamoq
C. qattiq sovuq, shirin qovun, chiroyli gul
D. samarali ishlamoq, ko`chat o`tqazish, barqaror tinchlik
8. Zargarov sahrodagi ishlarning miqyosini yaxshi tasvirlab berdi. Ushbu gapda nechta so`z birikmasi bor?
A. 4ta

B. 5ta
C. 3ta
D. 6ta
9. Ko`makchili boshqaruv qatnashgan gapni topinng.
A. Bu tepalikka chiqish orqada qolgan yo`lning azobidan ham ortiqroq bo`ldi
B. Qizim, bunaqa yigitdan sovchi bir marta keladi
C. Ota yuz qo`llarini yuvgandan so`ng sal nariga borib o`tirdi.
D. O`quvchi bolalarga, yigit va qizlarga atab yozilgan qo`shiqlar ko`p.
10. So`z birikmasini toping.
A. tashrif buyurmoq
B. ko`ngli keng
C.gullar ochildi
D. shoirlar, bastakorlar va rassomlar
E. so`z birikmasi berilmagan.
11. Quyidagi atamalardan qaysi biri sintaksisga tegishli?
A. orttirma nisbat
B. modal so`z
C. taqlid so`z
D. bosh so`z
E. bog`lovchi
12. Ot + fe’l shaklidagi birikmalarda so`zlarni o`zaro bog`lovchi vositalar ko`rsatilgan javobni toping.
A. kelishiklar
B. tartib va intonatsiya (ohang)
C. ko`makchilar
D. kelishik va ko`makchilar
E. kelishiklar, ko`makchilar, tartib va intonatsiya.
13. Shoshmasdan bajarmoq. To`g`riga yurmoq kabi birmalardagi so`zlar o`zaro qanday yo`l bilan bog`langan?
A. moslashuv usuli bilan
B. ko`makchili boshqaruv usuli bilan
C. bitishuv usuli bilan
D. teng bog`lanish orqali
E. kelishikli boshqaruv usuli bilan.
14. Qaysi qatorda so`z birikmasi bor?
A. O`zbekiston Oliy Kengashi
B. va’da bo`yicha
C. mehnatiga yarasha
D. dalalar ko`m-ko`k
E. ota yurt
15. Bosh so`z ravish bilan ifodalangan otli birikmani toping.
A. hammadan kuchli
B. farovon hayot
C. haqiqatga yaqin
D. ko`p gapirmoq
E. tez yurmoq

16. Bosh so`z sifatdosh bilan ifodalangan so`z birikmasini toping.
A. vazifani bajarib
B. kelajakka umid
C. chet elda o`qigan
D. o`qigan bola
E. o`quvchilarning hammasi.
17. Qaysi qatorda so`z birikmasi berilmagan?
A. Elga xizmat
B. bir-biriga oqibatli
C. sohil bo`ylarini kezmoq
D. ko`ngli bo`sh
E. shaxmat ustasi
18. Bitishuv yo`li bilan hosil bo`lgan so`z birikmaisni toping.
A. bolalar haqida g`amxo`rlik
B. maktab hovlisi
C. qaytadan yozmoq
D. gapirishga oson
E. mahalla bolalari
19. Ot + ravish shaklidagi birikmalarda so`zlarni o`zaro bog`lovchi asosiy vositalarni toping.
A. kelishiklar
B. ko`makchilar
C. tartib va ohang
D. kelishik va ko`makchilar
E. kelishiklar, ko`makchilar, tartib va ohang.
20. Moslashuvli birikmalarda so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalardan qaysilari faol qatnashadi?
A.shaxs-son qo`shimchasi
B. egalik qo`shimchasi
C. kelishik qo`shimchasi
D. A va B
E. A,B va S

21. Egri tayoqning butog`i burunni yirtar. Ushbu maqolda so`zlarning o`zaro aloqasi qanday yo`l bilan amalga oshgan?
A. gapda so`z teng va tobe bog`langan
B. boshqaruv va moslashuv yo`li bilan
C. faqat boshqaruv yo`li bilan
D. bitishuv va boshqaruv yo`li bilan
E. moslashuv, bitishuv va boshqaruv yo`li bilan.
22. Sanjar bilan Sherzod bog` tomon yurdilar. Ushbu gapdagi bog` tomon yurdilar birikmasi o`zaro qanday yo`l bilan bog`langan?
A. ko`makchili boshqaruv yo`li bilan
B. moslashuv yo`li bilan
C. kelishikli boshqaruv yo`li bilan
D. ten bog`lanish yo`li bilan

E. bitishuv yo`li bilan.
23. So`z birikmalarida ergash so`z ravish yoki sifatlar bilan ifodalansa, ular bosh so`zga asosan qanday yo`l bilan birikadi?
A. moslashuv yo`li bilan
B. bitishuv yo`li bilan
C. boshqaruv yo`li bilan
D. bitishuv yoki boshqaruv yo`li bilan
E. moslashuv yoki boshqaruv yo`li bilan.
24. Boshqaruvli bog`lanishda qaysi kelishiklar so`zlarni o`zaro bog`laydi?
A. qaratqich, tushum va jo`nalish
B. tushum, jo`nalish va o`rin-payt
C. jo`nalish, tushum, o`rin-payt va chiqish kelishiklari
D. qaratqich, tushum , jo`nalish o`rin-payt va chiqish
E. barcha kelishiklar bilan.
25. Bosh so`z ravishdosh bilan ifodalangan fe'lli birmani toping.
A. gulni sevmoq
B. senda ko`p
C. hurmat bilan yondashgan
D. idish-tovoqlarni arta-arta
E. a'lochilarning har biri
26. Bitishuv munosabatidagi birikmalarni aniqlang.
A. ko`klam quyoshi, bahor tongi
B. maftunkor chehralar, tezda kelmoq
C. o`lkamiz chiroyi, ko`l suvi
D. xat yozdi, quduq qazdi, so`z sehri
E. A va B
27. Quyidagilarning qaysi biri qaratqichli birikma?
A. oltin soat
B. yurtimiz yoshlari
C. uzum edi
D. peshin chog`i
E. yog`och ko`prik
28. Kelishikli boshqaruv qatnashgan gapni toping.
A. Mol topguncha aql top
B. Ko`ringan bulog`ning yirog`i yo`q
C. Xalqim uchun, vatan uchun kurashdim
D. Ot birdan sapchidi
E. O`quvchilarning tashabbusi bilan ish boshladi.
29. So`z birimasini toping.
A.chang-to`zon ichra
B. shalpang quloq
C. o`qib chiqdim
D. olma, o`rik va shaftoli
E. so`z birikmasi berilmagan
30. Quyidagi qo`shilmalarning qaysi biri so`z birikmasi hisoblanadi?
A. gapirib bermoq

B. holdan toymoq
C. tashrif buyurmoq
D. olma, o`rik, olxo`ri va giloslar
E. og`ir xo`rsinmoq
31. Qanday birikma hosil bo`lishida egalik qo`shimcha ishtirok etadi?
A. moslashuvli birikmada
B. teng bog`lanishli birikmada
C. boshvaruvli birikmada
D. bitishuvli birikmada
E. egalik qo`shimchalari yordamida birikma hosil qilinmaydi.
32. Birdan kirib kelmoq. Ushbu birikmadagi so`zlarning o`zaro aloqasi qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?
A. boshqaruv
B. bitishuv
C. kelishikli boshqaruv
D. moslashuv
E.A vaS
33. Kesimlik ko`rsatkichi, gumon yuklamasi, orttirma nisbat qo`shimchasi bo`lib kela oladigan morfemani aniqlang.
A. valki
B. –man
C. alla-
D. -dir
E. -t
34. Bitishuvli so`z birikmasini toping.
A. qiz husni
B. ukam uchun olmoq
C. birdan gapirmoq
D. ukamdan olmoq
E. maktabdan kelmoq
35. Qaysi qatordagi ergash so`z bilan bosh so`zning tartibi o`zgartirilsa, gap hosil bo`ladi?
A. yura-yura charchamoq
B. suvga to`ldirmoq
C. maqola o`qimoq
D. ko`m-ko`k o`tloq
E. onaning vasiyati
36. Quyidagi birikuvlarning qaysi biri bitishuvli birikmaga mansub emas? 1.devor soat 2.vatan ishqi 3.shunday o`yin 4.qiyin vazifa 5.chindan aytmoq 6.ashula aytgan qiz 7. xayrlashib ketmoq 8. o`qib chiqmoq 9.tezda qaytmoq 10. holdan toymoq
A. 1,2,4,5,8,9,10
B. 2,4,10
C. 1,2,4
D. 2,8,10
E. 1,3,4,6,9
37. Qaysi qatorda so`z birikmasi qo`llanmagan?

A. sohil bo`ylarini kezmoq
B. G`arbiy Yevropa
C. elga xizmat
D. bir-biriga oqibatli
38. Egalik qo`shimchalari vositasida qanday birikma hosil bo`ladi?
A.moslashuvli birikma
B. teng bog`lanishli birikma
C. boshqaruvli birikma
D. bitishuvli birikma
E. egalik qo`shimchalari yordamida birikma hosil bo`lmaydi
39. Ergash so`zni bosh so`z bilan bog`lovchi quyidagi vositalardan qaysi birlari ayrim hollarda ifodalanmasligi mumkin?
A. tushum kelishigidagi qo`shimchalar
B. qaratqich kelishigi qo`shimchasi
C. egalik qo`shimchasi
D. A va B
E. A, B va S
40. Bitishuvli birikuvlarda tobe so`z vazifasida asosan qanday so`zlar keladi?
A. sifat va ravish vazifasidagi so`zlar
B. sifatlar
C. mustaqil so`z turkumiga oid barcha so`zlar
D. ot, sifat va ravish vazifasidagi so`zlar
E. fe'l, sifat va olmoshlar.

41. Quyidagi qo`shilmalarning qaysi biri so`z birikmasi hisoblanadi?
A. gapirib bermoq
B. holdan toymoq
C. tashrif buyurmoq
D. olma, o`rik olxo`ri va noklar
E. so`z birmasi berilmagan.
42. So`zlar o`zaro teng bog`langanda, qanday vositalar orqali bog`lanadi?
A. ohang va teng bog`lovchilar, teng bog`lovchilar vazifasidagi yordamchi so`zlar bilan
B. barcha bog`lovchilar bilan
C. faqat teng bog`lovchilar bilan
D. teng bog`lovchi va teng bog`lovchi vazifasidagi ko`makchi va yuklamalar bilan
E. bog`lovchi va ohang
43. Tobe bog`lanishning qaysi usuli bilan hosil qilingan birikmalar asosan otli birikma hisoblanadi?
A. boshqaruv
B. moslashuv
C. bitishuv
D. A va B
E. B va S
44. Bitishuvli birikmalarda bosh so`z asosan qaysi turkumga oid so`zlar bilan ifodalanadi?

A. ot va fe’l bilan
B. barcha so`z turkumiga oid so`zlar bilan
C. mustaqil so`zlar bilan
D. ot, olmosh va fe’l bilan
E. faqat ot bilan.
45. Ko`makchilar vositasida hosil qilingan so`z birikmasi tarkibida doim qanday so`zlar mavjud bo`ladi?
A. fe’l turkumiga oid so`zlar
B. ot va ot vazifasidagi so`zlar bilan
C. ot yoki sifatga oid so`zlar bilan
D. ot, olmosh va son
E. ko`makchilar yordamida hosil qilingan so`z birikmasida ma’lum bir turkumdagi so`zning bo`lishi shart emas.
46. Hovli yuzini yog` tushsa yalaguday holga keltirgan edi. Ushbu gapda nechta so`z birikmasi mavjud?
A. 6
B. 7
C. 5
D. 8
E. 4
47. Bitishuv munosabatidagi birikmalar berilgan qatorni aniqlang.
A. ko`klam quyoshi, bahor tongi
B. olis yo`llar, tez yurdi, qizil olma
C. o`lkamiz chiroyi, maktab bordi, ko`l suvi
D.xat yozdi, quduq qazdi, so`z sehri
E. A va B.
48. Qo`qqisdan kirib kelmoq . Ushbu birikmadagi so`zlarning o`zaro aloqasi qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?
A. boshqaruv
B. bitishuv
C. kelishikli boshqaruv
D. moslashuv
E. A va S
49. Sifat + Ot shaklidagi birikuvlarda quyidagi vositalarning qaysi biridan foydalaniladi? 1. kelishik qo`shimchalaridan 2.ko`makchilardan 3.ohangdan 4.so`z tartibidan
A. 1,2
B. 2,3
C. 3,4
D. 2,4
E. 1,3
50. Boshqaruvli bog`lanishda kelishik qo`shimchalari va ko`makchilar odatda qaysi so`zlar tarkibida bo`ladi?
A. bosh so`z tarkibida
B. ergash so`z tarkibida
C. bosh so`z yoki ergan so`z tarkibida

D. birikma ohiridagi so`z tarkibida
E. birikmadigi harakat-holat ma'nosini ifodalovchi so`z tarkibida.
51. Tobe bog`lanishli birikmalarda qanday so`z bosh so`z sanaladi?
A. ko`makchi bilan kelgan so`z
B. kelishik shaklidagi so`z
C. ma'nosi izohlanayotgan so`z
D. boshqa so`zning ma'nosini ifodalaydigan so`z
E. o`zi bog`langan so`z ma'nosini izohlaydigan so`z.
52. Ot + Fe'l shaklidagi birikuvlarda asosan qanday vositalardan foydalaniladi?
A. faqat kelishik qo`shimchalaridan
B. ohangdan va tartibdan
C. faqat ko`makchilardan
D. kelishik va ko`makchilardan
E. keliishk qo`shimchalari, ohang, so`z tartibi va ko`makchilardan.
53. Ergash so`z bilan bosh so`zning birikish usullarini aniqlang.
A. tobe bog`lanish va ergash bog`lanish
B. moslashuv, boshqaruv, bitishuv
C. ergash so`z va bosh so`z
D. bosh so`z bilan ergash so`zning mosligi
E. teng bog`lanish va ergash bog`lanish.
54. Qaysi qatordagi ergash so`z bilan bosh so`zning tartibi o`zgartirilsa, gap hosil bo`ladi?
A. maqol o`qimoq
B. ko`m-ko`k o`tloq
C. yura-yura charchamoq
D. suvga to`ldirmoq
E. onaning vasiyati
55. Moslashuv yo`li bilan bog`langan birikmalarda ergash so`z bosh so`zga qanday vositalar yordamida bog`lanadi?
A. ko`makchilar yordamida
B. so`z tartibi va tobe ohang yordamida
C. turli kelishik qo`shimchalari yordamida
D. qaratqich kelishigi yordamida
E. qaratqich kelishigi va egalik qo`shimchalari yordamida.
56. Moslashuvli bog`lanishda egalik qo`shimchasi odatda qaysi so`z tarkibida bo`ladi?
A. bosh so`z tarkibida
B. ergash so`z tarkibida
C. bosh so`z yoki ergash so`z tarkibida
D. so`z birikmasida qaysi so`z oldin joylashsa, o`sha so`z tarkibida
E. tobe bog`lanishli so`z birikmalarida egalik qo`shimchalari ishtirok etmaydi.
57. Yomondan qoch, yaxshiga quloq och. Shu maqoldagi so`zlarning o`zaro aloqasi qanday yo`l bilan amalga oshgan?
A. gapda so`zlar teng va tobe bog`langan
B. boshqaruv va moslashuv yo`l bilan
C. faqat boshqaruv yo`li bilan

D. bitishuv va boshqaruv yo`li bilan
E. moslashuv, bitishuv va boshqaruv yo`li bilan.
58. So`z birikmalarida bosh so`z boshqa so`zlar bilan qanday bog`lanadi?
A.faqat teng bog`lanishi mumkin
B.teng va tobe bog`lanishi mumkin
C. faqat tobe bog`lanishi mumikn
D. sanash ohangi, ko`makchilar, bog`lovchilar va bog`lovchi vazifasida qo`llanuvchi so`zlar orqali bog`lanishi mumkin
E. kelishik va ko`makchilar orqali bog`lanishi mumkin.
59. 1.Ko`cha katta 2.Taklif qilmoq 3. Sotib olmoq 4. Kulib gapirmoq 5.Bir tup o`rik 6.Maktab tomon. Yuqoridagi qaysi so`zlar birikuvidan so`z birikmasi hosil bo`lgan?
A. 2,3,4,5
B. 3,4,6
C. 3,4,5,6
D. 4,5
E. 1,2,3,4,5
60. Otli birikmalarni aniqlang.
A. katta uy, zavodda ishlamoq, vazifani bajarish
B. asalday shirin, hammadan tez, katta bo`lmoq
C. o`qishda birinchi, tinglovchilarning barchasi, keng uy
D. mashinada tortish, radiodan eshitmoq, futbol o`ynab
E. kulib gapirish, vazifani bajarib, tez kelgan.

| | |
|---|---|
| **3 - MAVZU** | Mavzu **Gap haqida ma'lumot. Gap bo'laklari. Bosh bo'laklar va uning turlari.** |

| | |
|---|---|
| Vaqti: 2 soat | Talabalar soni: 20 ta |
| Mashg'ulot shakli | Amaliy mashg`lot |
| **O'quv mashg'ulotining rejasi** | 1.Tashkiliy qism<br>2.Savol- javob<br>3.Mashq ishlash<br>4.Mustaqil ishlarni tekshirish. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi** | Talabalarning gap va uning turlari,bosh bo'laklar va uning turlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1.Talabalarning gap haqidagi bilimlarini aniqlash .<br><br>2.Talabalarda gap bo'laklari bo'yicha umumiy tasavvur hosil qilish<br><br>3.Talabalarning bosh bo'laklar va | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>1Gap va uning turlarini yaxshi bilishi kerak<br><br>2. Gap bo'laklari to'grisida ko'nikmalarini shakllantirish<br><br>3. Gapning bosh bo'laklarini bir-biridan |

| | |
|---|---|
| uning turlari haqidagi bilimlarini aniqlash | ajrata olishi,bosh bo'laklarining ifodalanishi aniqlay olishi. |
| Ta'lim metodi va texnikasi | Suhbat, muammoli izlanish, |
| Ta'lim vositasi | Ma`ruzalar matni, mashqlar to'plami,tarqatma materiallar. |
| Ta'lim shakli | Yakka tartibdagi savol-javob, guruhlarda ishlash |
| Ta'lim sharti | Auditoriya, TSOdan foydalanish |

3- Mavzu: **Gap va uning turlari.**

**Amaliy mashg`ulotning texnologik kartasi**

| Dars bosqichlari va vaqti | O'qituvchi | Talaba |
|---|---|---|
| 1-boqich<br>Kirish<br>(5 daqiqa) | (1) Mavzu bo'yicha qisqacha ma'lumot beradi.<br><br>(2). Tayyorlanish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi.<br>. | Talabalar mavzu yuzasidan axborotni eshitadi.<br><br>Adabiyotlar ro'yxatini yozib oladi. |
| 2-bosqich<br>Asosiy bosqich<br>(70 daqiqa) | 2.1Gap va uning turlari,bosh bo'laklar va uning turlari haqida umumiy ma'lumot beradi.(1-ilova)<br><br>2.2 O'qituvchi doskada gap va uning turdarini, bosh bo'laklarni to'liq tahlil qilishni o'rgatadi. (2-ilova)<br><br>2.3. Gaplarning turlari,ulardagi bosh bo'laklarni aniqlash bo'yicha topshiriq beradi (3-ilova)<br><br>2. 4. O'quv qo'llanmadagi | 1 Eshitadi, yozadi, savollarga javob beradi.<br><br>2.Kuzatadi va mushohada qiladi.<br><br>3. Berilgan topshiriqlarni bajaradi, munozarada qatnashadi.<br><br>4. Mashq bajaradilar, muhokamada qatnashadilar |

| | | |
|---|---|---|
| | topshiriqlarni beradi.(4-ilova) | |
| 4-bosqich<br>Yakuniy bosqich<br>(5 daqiqa) | 3.1. Mavzuni mustahkamlash uchun savollar beradi(5-ilova)<br>3.2. Uyga vazifa beradi. | 1. Savollarga javob beradi<br>2. Uyga vazifani yozib oladi. |

**1-ilova**

Gap –sintaksisda o'rganiladigan asosiy masala. Gap fikrni ifodalashga, kishilar orasidagi alokani ko'rsatishga  xizmat kiluvchi, predikativlikni ifodalovchi,yakka so'z yoki bir necha so'zdan iborat bo'luvchi sintaktik birlikdir.Gap ifoda maksadiga ko'ra tuzilishiga  bir necha turlarga bo'linadi.

**2- ilova**

Bir necha gaplar doskada yoziladi va ularning turlari, bosh bo'laklar, ularning ifodalanishi  tahlilda ko'rsatiladi:

*1.Ketma-ket kelayotgan quruvchilar, texniklar, tuproq qazuvchilar, montajchilar uchun birinchi navbatda makon kerak.* (J.Abd.)2*. Husayn Boyqaro Navoiyning uyida uch kun o'tirdi.* (M.Osim) *3. Tonggi salqin o'rnini asta iliq shabada tafti egallay boshlaydi.* (J.Abd.)

**3-ilova**

*1. Vazira SHerzodning bu dalilini ham yashil siyoh bilan belgiladi.(P.Q.)*

*2. Ertasiga Ergash kuni bo'yi ro'zg'or ishlari bilan ovora bo'ldi.* (As.M.) *3. Namozboy bu gal ishni sal boshqacharoq tashkil etgan.*

**4- ilova**

Mashqlarni bajarish;  (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning  to'liq va mukammal bo'lishi o'qituvchi va talabalar tomonidan qatьiy nazoratga olinadi.)

***321-mashq.*** O'qing. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turini aniqlang, farqini ayting. Gapning bosh bo'laklarini aniqlang.

1. Birov yon bag'irdan gul tergani, birov buloq suvidan ichgani tarqab ketdi. *(S. Ahm.)* 2. Olamni quyosh, insonni ilm yoritadi. Bilmaslik ayb emas, o'qimaslik — ayb. *(SH.)* 3. Kombinatga borganmisan o'zing? Qirq ming odam ishlaydi. *(S. Ahm.)* 4. Dunyoda el va yorga xiyonat qilishdan, zolimga do'st bo'lishdan ham ko'ra og'irroq, razilroq, mudhishroq jinoyat bormi? *(S. Ahm.)* 5. Bu — bizning chinakam balog'at yoshimizning birinchi kuni! Qanday tantanali jimlik! O'sib yotgan o't-o'lanlar go'yo qizil

alanga berib yonayotganday, oyoq ostida tutab yotganday tuyuldi. Biz faqat dashtdagina bayram nashidasini sezdik. *(K. Abukov.)*

***322-mashq.*** O'qing. So'roq gaplarni topib, turlarga ajrating: sof so'roq gaplar, ritorik so'roq gaplar, so'roq-buyruq gaplar. Avval so'roq olmoshlari, so'ngra so'roq yuklamalari, undan so'ng so'roq ohangi orqali ifoda qilingan so'roq gaplarni ko'chiring, so'roq ifodalovchi vositalar tagiga chizing. Gapning bosh bo'laklarini aniqlang.

*1. Pulni olmaganimni, vijdonim pokligini kim bilib o'tiribdi?* (T.Malik) *2. Seni ham qo'rboshi yigitlari qidirdilar?* (A.Qod.) *3. Bu ahvolda suvga tushgan bo'lka nonga o'xshab cho'kib o'tirganingdan ruhi ranjimaydimi?* (S.Ahm.) *4. O'sha lim-lim daryoni ayyuhannos solgan bilan orqaga qayirib bo'larkanmi?* (O'.Usm.) *5. Mayli, tanasi boshqa dard bilmas, deganlaridek, uning dardu hasratlarini bilmaganlar nimalar demaydi?* (O.Yo.) *6. Urush qurbonlariga yodgorlik o'rnatishdan savob ish bormi?* (O.Yo.) *7. – Men seni ket deyapmanmi? Yaxshi odam bo'lsang, o'zingga foyda! Yoshing yigirma beshdan oshdi.* (P.Q.) *8. U chiqadigan vagondan keyingisining qarshisidagi gazeta-jurnal sotish do'konchasi yonida G'ulom aka turardi. Mohidilni kutyaptimikin? Xuddi shu bugun, shu soatda kelishini qayoqdan bildiykin u?* (J.Abd.) *9. O'z nomi bilan qora bo'lgan bu qora qishloqda odamlar xoru zorligi buloqday qaynab yotmayaptimi? Ota-buvalari bu yerni shuning uchun ham Qorabuloq deb atab ketishmaganmikan?* (M.Ism.) *10. Axir ko'krak ostida gup-gup urib turgan yurakning o'zi hamma sirini bildirib turgandan keyin uni til bilan ifoda etishga hojat qoldimi?* (J.Abd.) *11. Dam o'tmay suv ichgani tushaversa, ish unumli bo'larmidi?* (J.Abd.)

***323-mashq.*** O'qing. Buyruq gaplarni ko'chirib, ma'no munosabati va tinish belgilarini izohlang. Gapning bosh bo'laklarini aniqlang.

1. Darveshali, ... har ishga bel bog'lar ekansiz, elning manfaat va zaruriyatini o'zingiz uchun bir mezon deb biling. *(O.)* 2. Navoiy, qilichni ko'tarmasdan, ...keskin turda so'zladi: "Qilichlarni qinga joylangiz, shu lahzada taslim bo'lingiz!" *(O.)* 3 Murodovani siz kutib oling, shunday kutib olingki, bu yog'i mahkam bo'lsin. *(I. R.)* 4. Priborlarni o'z joningdan ham avaylab saqla. *(A. CHakovskiy.)* 5. Kartani sizga qoldiraman. Belgilarni o'z kartangizga o'tkazib oling. Keyin sizdan olaman. Hozir esa, keling, soatlarimizni bir-biriga to'g'rilab olaylik. *(A. CHakovskiy.)* 6. O'zingni tut, Saodat, kishilarni shubhaga solma, sen ularning hammasiga bir ko'z bilan qaraydigan kishisan. *(I. R.)* 7. Bir qop somon suvga tashlansin, Qaerda charx ursa aylanib, Quvur shunda to'sa boshlansin. *(S. Nazar.)*

***324-mashq***. O'qing. Undov gaplarni topib, ularni turlarga ajrating: darak-undov, so'roq-undov, buyruq-undov gaplar. Gapning bosh bo'laklarini aniqlang.

1. Doimo olg'a qarab intilish, hamma vaqt yangilik qidirish, yutuqlardan mag'rurlanmaslik, muvaffaqiyatsizliklar ko'ndalang bo'lganida ham tushkunlikka berilmaslik, shuhrat ketidan quvmaslik mening oliy maslagim bo'lsin! *(J. Abd.)* 2. Inson qalbiga yo'l topish — juda mushkul, ayni mahalda katta san'at! Orzu-

havaslarga to'la, nozik hissiyotlar bilan yashovchi, qaynoq ehtirosli qalbni asray bilish, ehtiyot qilish — fazilat! Inson atrofidagi hamma narsani ana shu qalb ko'zi bilan ko'radi! Ana shu qalb shishaday chil-chil sinsa, nohaq toptalsa, iztirob o'tida qovurilsa, uni o'nglash qiyin bo'ladi! *(S. Abd.)* 3. O'z qo'lim bilan achchiqqina palov qilaman. Qani, yemasdan ketib ko'r-chi! *(O.)* 4. Hoy, o'roq-ketmonning asl egalari! Yer-suvning sohibkorlari! Ko'zlaringizni ochinglar! Yer-suv, hukumat, jamiki boylik sizlarniki! Boy va eshonlarga noningizni tuya qildirib kelganingiz yetar! O'g'il-qizlaringizni o'qiting! *(N. S.)* 5. Tabiat oshiqlari va turistlar! Qo'nib o'tgan joyingizni aslo iflos qila ko'rmang. O'zingizdan keyin keladigan kishilar haqida ham qayg'uring! Kishining madaniyati uning tabiatga bo'lgan munosabati bilan belgilanishini unutmang! *(A. Kolbintsev.)*

**5-ilova**

Savol-javob: Talabalarning mavzu yuzasidan egallagan nazariy bilimlarini aniqlash va baholash maqsadida quyidagi savollar asosida savol-javob amalga oshiriladi: (Bunda o'qituvchi asosiy e'tiborni talaba nutqining ravonligiga, shevalardan xoli bo'lishishiga, javoblarning ilmiyligi va mantiqan to'g'riligiga hamda har bir ifodalanayotgan fikrning aniq misollar yordamida izohlanishiga qaratiladi)

- Gap va uning turlari haqida gapiring.
- Bosh bo'laklar va uning turlarini ayting.
- Ega va uning ifodalaninshini ta'riflang
- Kesim va uning ifodalaninshini ta'riflang
- Kesimning tuzilishiga ko'ra turlarini ayting.

Mashg'ulotni yakunlash.O'qituvchi mashg'ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma'lum qiladi, ularni rag'batlantiradi va to'plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg'ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar)xususida o'z mulohazalarini bayon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o`zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, SH.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O`zbek tili. 2004, O`AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o`zbek tili. 2006, "Universitet" nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to`plami Toshkent, 2009-yil

| **4 - MAVZU** | Mavzu **Gap bo'laklari.Kesim va uning turlari.** |
|---|---|

| | |
|---|---|
| Vaqti: 2 soat | Talabalar soni: 20 ta |
| Mashg'ulot shakli | Amaliymashg`lot |
| **O'quv mashg'ulotiningrejasi** | 1.Tashkiliy qism<br>2.Savol- javob<br>3.Mashq ishlash |

| | |
|---|---|
| | 4.Mustaqil ishlarni tekshirish. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi** | Talabalarning gap va uning turlari,bosh bo'laklar va uning turlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1.Talabalarning gap haqidagi bilimlarini aniqlash .<br><br>2.Talabalarda gap bo'laklari bo'yicha umumiy tasavvur hosil qilish<br><br>3.Talabalarning bosh bo'laklar va uning turlari haqidagi bilimlarini aniqlash | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>1Gap va uning turlarini yaxshi bilishi kerak<br><br>2. Gap bo'laklari to'grisida ko'nikmalarini shakllantirish<br><br>3. Gapning bosh bo'laklarini bir-biridan ajrata olishi,bosh bo'laklarining ifodalanishi aniqlay olishi. |
| Ta'lim metodi va texnikasi | Suhbat, muammoli izlanish, |
| Ta'lim vositasi | Ma`ruzalar matni, mashqlar to'plami,tarqatma materiallar. |
| Ta'lim shakli | Yakka tartibdagi savol-javob, guruhlarda ishlash |
| Ta'lim sharti | Auditoriya, TSOdan foydalanish |

4- Mavzu: **Gap bo'laklari. Kesim va uning turlari.**
**Amaliy mashg`ulotning texnologik kartasi**

| Dars bosqichlari va vaqti | O'qituvchi | Talaba |
|---|---|---|
| 1-boqich<br>Kirish<br>(5 daqiqa) | (1) Mavzu bo'yicha qisqacha ma'lumot beradi.<br><br>(2). Tayyorlanish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi.<br>. | Talabalar mavzu yuzasidan axborotni eshitadi.<br><br>Adabiyotlar ro'yxatini yozib oladi. |
| 2-bosqich<br>Asosiy bosqich<br>(70 daqiqa) | 2.1Gap va uning turlari,bosh bo'laklar va uning turlari haqida umumiy ma'lumot beradi.(1-ilova) | 1 Eshitadi, yozadi, savollarga javob beradi.<br><br>2.Kuzatadi va mushohada |

| | | |
|---|---|---|
| | 2.2 O'qituvchi doskada gap va uning turdarini, bosh bo'laklarni to'liq tahlil qilishni o'rgatadi. (2-ilova)<br><br>2.3. Gaplarning turlari,ulardagi bosh bo'laklarni aniqlash bo'yicha topshiriq beradi (3-ilova)<br><br>2. 4. O'quv qo'llanmadagi topshiriqlarni beradi.(4-ilova) | qiladi.<br><br>3. Berilgan topshiriqlarni bajaradi, munozarada qatnashadi.<br><br>4. Mashq bajaradilar, muhokamada qatnashadilar |
| 4-bosqich<br>Yakuniy bosqich<br>(5 daqiqa) | 3.1. Mavzuni mustahkamlash uchun savollar beradi(5-ilova)<br>3.2. Uyga vazifa beradi. | 1. Savollarga javob beradi<br>2. Uyga vazifani yozib oladi. |

**2- ilova**

Bir necha gaplar doskada yoziladi va ularning turlari, bosh bo'laklar, ularning ifodalanishi tahlilda ko'rsatiladi:

*1.Ketma-ket kelayotgan quruvchilar, texniklar, tuproq qazuvchilar, montajchilar uchun birinchi navbatda makon kerak.* (J.Abd.)2. *Husayn Boyqaro Navoiyning uyida uch kun o'tirdi.* (M.Osim) *3. Tonggi salqin o'rnini asta iliq shabada tafti egallay boshlaydi.* (J.Abd.)

**3-ilova**

*1. Vazira SHerzodning bu dalilini ham yashil siyoh bilan belgiladi.(P.Q.)*

*2. Ertasiga Ergash kuni bo'yi ro'zg'or ishlari bilan ovora bo'ldi.* (As.M.) *3. Namozboy bu gal ishni sal boshqacharoq tashkil etgan.*

**4- ilova**

Mashqlarni bajarish; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to'liq va mukammal bo'lishi o'qituvchi va talabalar tomonidan qatъiy nazoratga olinadi.)

***321-mashq.*** O'qing. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turini aniqlang, farqini ayting. Gapning bosh bo'laklarini aniqlang.

1. Birov yon bag'irdan gul tergani, birov buloq suvidan ichgani tarqab ketdi. *(S. Ahm.)* 2. Olamni quyosh, insonni ilm yoritadi. Bilmaslik ayb emas, o'qimaslik — ayb. *(SH.)* 3. Kombinatga borganmisan o'zing? Qirq ming odam ishlaydi. *(S. Ahm.)* 4. Dunyoda el va yorga xiyonat qilishdan, zolimga do'st bo'lishdan ham ko'ra og'irroq, razilroq, mudhishroq jinoyat bormi? *(S. Ahm.)* 5. Bu — bizning chinakam balog'at yoshimizning birinchi kuni! Qanday tantanali jimlik! O'sib yotgan o't-o'lanlar go'yo qizil alanga berib yonayotganday, oyoq ostida tutab yotganday tuyuldi. Biz faqat dashtdagina bayram nashidasini sezdik. *(K. Abukov.)*

## BOSh BO`LAKLAR

(2) Qaysi qatordagi gapda fe'l kesim mavjud?
A. Luqmoni hakimning jahli chiqibdi
B. Dehqonning gaplari Luqmonga qattiq ta'sir qilibdi
C. Boshqa xonada bolalar uxlab qolishibdi
D. A,B va S
(3) 13)Qaysi gapda kesim ibora bilan ifodalangan?
A. Dadam qo`li ochiq odam edilar
B. U birdaniga to`nini teskari kiyib oldi
C. Qo`l yugurligi – oshga, til yugurligi - boshga
D. Ozod yuraklarga baxt nuri to`lgan
(4) 14) Qaysi gapda nomustaqil kesim shakli qo`llangan?
A. Qalb salomat bo`lsa, aql ham, fikr ham salomat bo`ladi
B. Qani til bo`lsa-yu , u bilan suhbatlasha qolsa!
C. Bugundan boshlab aravachilar siz bilan borishsa
D. barcha javoblar to`g`ri
(5) 15)Qaysi gapda tire noto`g`ri qo`llangan?
A. Men-sakkizinchi sinf o`quvchilaridan biriman
B. Hosilning otasi-suv, onasi-yer
C. Yulduz-a'lochilarimizdan
D. Bu-siz uchun katta sinovdir
(6) 19)Qaysi gapda ega qo`llangan?
A. O`zboshimchalikka yo`l qo`yilmaslik
B. O`quvchi yo`q har qadamda qoqiladi
C. Tarbiyachi va o`qituvchi bo`lish uchun chidam bilan o`qiladi
D. O`zinigina o`ylovchi kishini yaxshi odam deb bo`lmaydi.
(7) 27) So`z birikmalari zanjiri gapning egasi atrofida birlashgan holatni toping.
A. Badanni junjiktiruvchi sovuq shamol izg`ib qoldi
B. Boboning tabiati ravshan bo`lib ketdi
C. Darveshalining zindonda yotishi Alisherning yuragida dushmanlik olovini to`ldiradi
D. Sayohatchilar daraning pillapoya kabi yotiqroq yerlaridan yuqoriga intildilar.
(8) 28. Ma'lum matnda gaplar qaysi jihatdan bog`lanadi?

A. morfologik jihatdan
B. sintaktik jihatdan
C. mantiqiy jihatdan
D. A,B va S
(9) 29.Quyida berilgan gaplardan qaysisida ohang o`zgarishi orqali farqli fikr hosil qilish mumkin?
A. Tog` qushlarining sayrashi qo`ylarning ma'ragan ovozlariga jo`r bo`lmoqda
B. Haligi sumka ko`targan qizini chaqirdi
C. Gulchehra mo`ysafidga nima javob qilishini bilmay, o`zini tramvayga otdi
(10) D.Nima bo`ldi, qizim, nega yig`layapsan
(11) 30. Qaysi gapda gapning o`zgargan tartibi ega va kesimga tegishli?
A. Shovulladi tun bo`yi shamol
B. Qaldiroqlar ko`chdi larzakor
C. Men nechun sevaman O`zbekistonni?!
D. Arra tortar, Nosirning boshi egik, ko`zi nam
(12) 131.Quyidagi gapning egasi to`g`ri ko`rsatilgan qatorni toping.
(13) Senga tengdosh Pomir-u, Oqsoch Tiyonshon,o`zbegim.
A. Pomir-u, Tiyonshon
(14) B.tengdosh
B. senga
C. o`zbegim
(15) 132. *Bo`ldi* fe'li bog`lama vazifasida kelgan gapni aniqlang.
A. Yolg`onchining rost so`zi ham yolg`on bo`lur
B. Birlashgan daryo bo`lur, tarqalgan irmoq bo`lur.
(16) C.Sunbulaning suvi tiniq bo`ladi.
C. Barcha gaplarda bo`ldi fe'li bog`lama vazifasida kelgan.
D. Bo`ldi fe'li barcha gaplarda mustaqil fe'l hisoblanadi.
(17) 133. Quyidagi gapning egasini toping. Quvvatning tushishi goho hushdan ketishga olib keladi.
A. Hushdan
B. tushishi
(18) C.quvvatning tushishi
C. goho
D. hushdan ketishga.
(19) 134. Qaysi qatorda ibora bilan ifodalangan kesim berilgan?
A. Ammamning zardali ovozini eshitib, damim ichimga tushib ketdi.
B. Qolaver-sa doktorlarga ham qiyin.
C. O`sha yulduz seniki.
D. Faridaning onasi har bir harakatini ko`zdan kechirdi.
E. A va D
(20) 135. Sodda ot-kesimini aniqlang.
A. Chigitni ekib bo`lishdi-yu, bari bir ish ko`p
B. Ayasi chiqib ketishi bilan, Sherzod karavotda yonboshlaganicha, uyni ko`zdan kechirodi.
C. Sherzodning esida bor.
D. Ko`pchilikning haqi yetim haqidan yomon.

E. Ava S
(21) 136. Ega va kesim shaxsda moslashgan gapni toping.
A. Qushlar sayradi.
B. Dadamlar keldilar.
C. Shularni ko`rib, tabiatga hayron qolasan kishi
D. A va B
E. Ega va kesim shaxsda doim moslashadi.
(22) 137. Kesimi o`zlik nisbatdagi fe’l bilan ifodalangan gap berilgan qatorni aniqlang.
A. Anvar ohista yiqildi.
B. Doklad uchun Ziyodaxonga so`z berildi.
C. Kamchiliklar ro`y rost ochib tashlandi.
D. Ayvon yonidagi o`choqqa o`t qalangin.
E. Jo`nashga tayyorgarlik ko`rilmoqda edi.
(23) 138. Kesimi majhul nisbatdagi fe’l bilan ifodalangan qatorni toping.
A. Shu ko`chadan borib chapga burilasiz.
B. Uzoqdan ikki otliq ko`rindi.
C. Yangi xabardan shodlanib ketdi.
D. Bahor kelib dala ishlari boshlandi.
E. Buloq suvida yuvindi.
(24) 139. Ot-kesimli gap qaysi qatorda berilgan?
A. O`qishda, mehnatda, fanda, xalqqa astoydil xizmat qilishda o`z baxtingni topasan.
B. O`smirlikdagi tushkunlik-yoshlikka xos kasallik
C. Me’yor-sog`likning posbonidir
(25) D.A va B
D. B
(26) 140. Otlashgan sifat bilan ifodalangan egani toping.
A. Katta maydonni ishg`ol etgan gulzorga chiqdik.
B. Baxmal qirlar, keng bo`shliqlar, paxtazor yerlar ko`m-ko`k.
C. Ko`kimtir qora osmonda behisob yulduzlar chaqnab turardi.
D. Eng qiyini o`zingni anglay bilishingdir
E. G`ulomjonning oppoq yuzi issiqdan qizargan edi.
(27) 141. Murakkab fe’l-kesim qaysi qatorda berilgan?
A. Qishlog`imizda kichik korxona ishlay boshladi.
B. Ishtiyoq bilan qilgan ishimiz dardimizni davolaydi.
C. Mehnat oddiy kunlarni ham bayramga aylantirib yuboradi.
D. Hamma qiyinchiliklardan faqat mehnat bilan qutulish mumkin.
E. A va C
(28) 142. Ot-kesim qo`llangan gapni aniqlang.
A. Davlating – ota-onang.
B. Mard bir so`zlaydi, nomard ming so`zlaydi
C. Ahmoq o`zini maqtar
(29) D.Inson aqli bilan go`zal
D. A va D
(30) 143. Murakkab ot-kesim qaysi gapda qo`llangan?

A. Aqlni beaqldan o`rgan.
B. Birlashgan kuch yengilmas.
C. Dil og`ritgan do`st emas.
D. Mahbubaxon voyaga yetgan oilada to`rtta qiz va bitta o`g`il bor edi.
E. C va D

(31) 144. Bog`lamali kesim qaysi gapda qo`llangan?

A. Uzoqdan mayin qo`shiq eshitila boshladi.
B. Yolg`onchining rost so`zi ham yolg`on bo`lur.
C. Fikr va hikmatli so`zlar ko`ngilni bezaydi.
D. Xalq donishmandligi odatda hikmatli so`zlardan ifodalanadi.
E. B va D

(32) 145. Quyidagi berilgan gapdagi kesimni aniqlang.Yoqimli shabada esib turibdi.

A. Turibdi, sodda kesim
B. Ravishdosh, sodda kesim
C. Esib turibdi, murakkab kesim.

(33) D.Sodda fe'l kesim.

D. A va B

(34) 146. Bo`lishsizlik olmoshi qatnashgan gapning kesimi qanday so`zlar bilan ifodalangan?

A. Fe'lning bo`lishsizlik shakli va inkor bildiruvchi so`zlar bilan.
B. Inkor shaklidagi ot-kesitm bilan.
C. Faqat fe'lning bo`lishsiz shakli bilan.
D. Bo`lishli yoki bo`lishsizlik fe'llar bilan .
E. Kesimning ifodalanishi gapda qo`llangan olmoshning turiga bog`liq emas.

(35) 147. Ibora bilan ifodalangan ega qaysi javobda berilgan?

A. Menga qaysi nuqtalar qo`lga olinganini aytsin.
B. Ha, uning qo`ltig`iga suv purkayotgan ham shu Bek.
C. Otam kamtar, to`g`ri so`z, ochiq qo`l odam edi.
D. Hammadan kuchli his, toqatni toq qiluvchi dard oilasini sog`inish edi.
E. Kampir Saodatning ona nasihatini qulog`iga olganidan mamnun edi.

(36) 148. Qaysi qatorda ot-kesimli gap berilgan?

A. Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar.
B. Ertaga cho`lga jo`nab ketamiz.
C. Intilgan yo`l ochiq
D. Bunda qushlar topadi iqbol.
E. Majlisda intizom haqida ham gapirdi.

**5-ilova**

Savol-javob: Talabalarning mavzu yuzasidan egallagan nazariy bilimlarini aniqlash va baholash maqsadida quyidagi savollar asosida savol-javob amalga oshiriladi: (Bunda o'qituvchi asosiy e'tiborni talaba nutqining ravonligiga, shevalardan xoli bo'lishishiga, javoblarning ilmiyligi va mantiqan to'g'riligiga hamda har bir ifodalanayotgan fikrning aniq misollar yordamida izohlanishiga qaratiladi)

- Gap va uning turlari haqida gapiring.
- Bosh bo'laklar va uning turlarini ayting.

-Ega va uning ifodalaninshini ta’riflang
- Kesim va uning ifodalaninshini ta’riflang
-Kesimning tuzilishiga ko’ra turlarini ayting.

Mashg’ulotni yakunlash.O’qituvchi mashg’ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma’lum qiladi, ularni rag’batlantiradi va to’plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg’ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar)xususida o’z mulohazalarini bayon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o`zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O`zbek tili. 2004, O`AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o’zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o`zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to`plami Toshkent, 2009-yil

| **5 - MAVZU** | Mavzu **Gap bo’laklari.Egava uning ifodalanishi.** |
|---|---|
| Vaqti: 2 soat | Talabalar soni: 20 ta |
| Mashg'ulot shakli | Amaliymashg`lot |
| **O’quv mashg’ulotiningrejasi** | 1.Tashkiliy qism<br>2.Savol- javob<br>3.Mashq ishlash<br>4.Mustaqil ishlarni tekshirish. |
| **O’quv mashg’ulotining maqsadi** | Talabalarning gap va uning turlari,bosh bo’laklar va uning turlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1.Talabalarning gap haqidagi bilimlarini aniqlash .<br><br>2.Talabalarda gap bo’laklari bo’yicha umumiy tasavvur hosil qilish<br><br>3.Talabalarning bosh bo’laklar va uning turlari haqidagi bilimlarini aniqlash | **O’quv faoliyati natijalari:**<br>1Gap va uning turlarini yaxshi bilishi kerak<br><br>2. Gap bo’laklari to’grisida ko’nikmalarini shakllantirish<br><br>3. Gapning bosh bo’laklarini bir-biridan ajrata olishi,bosh bo’laklarining ifodalanishi aniqlay olishi. |

| | |
|---|---|
| Ta'lim metodi va texnikasi | Suhbat, muammoli izlanish, |
| Ta'lim vositasi | Ma`ruzalar matni, mashqlar to'plami,tarqatma materiallar. |
| Ta'lim shakli | Yakka tartibdagi savol-javob, guruhlarda ishlash |
| Ta'lim sharti | Auditoriya, TSOdan foydalanish |

4- Mavzu:**Egava uning ifodalanishi.**
**Amaliy mashg`ulotning texnologik kartasi**

| Dars bosqichlari va vaqti | O'qituvchi | Talaba |
|---|---|---|
| 1-boqich<br>Kirish<br>(5 daqiqa) | (1) Mavzu bo'yicha qisqacha ma'lumot beradi.<br><br>(2). Tayyorlanish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi.<br>. | Talabalar mavzu yuzasidan axborotni eshitadi.<br><br>Adabiyotlar ro'yxatini yozib oladi. |
| 2-bosqich<br>Asosiy bosqich<br>(70 daqiqa) | 2.1Gap va uning turlari,bosh bo'laklar va uning turlari haqida umumiy ma'lumot beradi.(1-ilova)<br><br>2.2 O'qituvchi doskada gap va uning turdarini, bosh bo'laklarni to'liq tahlil qilishni o'rgatadi. (2-ilova)<br><br>2.3. Gaplarning turlari,ulardagi bosh bo'laklarni aniqlash bo'yicha topshiriq beradi (3-ilova)<br><br>2. 4. O'quv qo'llanmadagi topshiriqlarni beradi.(4-ilova) | 1 Eshitadi, yozadi, savollarga javob beradi.<br><br>2.Kuzatadi va mushohada qiladi.<br><br>3. Berilgan topshiriqlarni bajaradi, munozarada qatnashadi.<br><br>4. Mashq bajaradilar, muhokamada qatnashadilar |

| | | |
|---|---|---|
| | | |
| 4-bosqich<br>Yakuniy bosqich<br>(5 daqiqa) | 3.1. Mavzuni mustahkamlash uchun savollar beradi(5-ilova)<br>3.2. Uyga vazifa beradi. | 1. Savollarga javob beradi<br>2. Uyga vazifani yozib oladi. |

## EGA VA UNING IFODALANISHI

Gap kesimining qo`shimchalaridan anglashilib turgan shaxs-son ma'nosini anglashtiruvchi bo`lak egadir. Ega kesim orqali kim? nima? qayer? kimlar? nimalar? so`roqlariga javob bo`ladi. Bosh kelishik shaklidagi ot, olmosh va otlashgan so`zlar bilan ifodalanadi, ba'zan egalik, ko`plik shakllarini qabul qilishi mumkin: *Atrof jim-jit. Kishilar uni maqtashdi. Izlaganim – siz.*

Ega quyidagi so`z turkumlari bilan ifodalanadi:
Ot bilan: *Yoqimli shamol gul hidlarini taratdi*
Olmosh bilan: *Ular yig`ilishga borishdi. Bu - meni tug`ilgan tuproq.*
Otlashgan sifat: *Yaxshilar ko`paysin. Jazirama ertalabdan yondiryapti.*
Otlashgan son: *Biri o`qisa, biri yozadi.*
Otlashgan ravish: *Ko`pi ketib, ozi qoldi*
Otlashgan sifatdosh: *O`tirganlar qarsak chalishdi. Chumchuqdan qo`rqqan tariq ekmaydi.*
Harakat nomi: *Oftobda yurish foydali*
Ibora bilan: *Tirnoq ostidan kir qidirish uning odati.*
Birikmali ifodalanadi: *Vatanni sevmoq imondandir. Mehnat qilib topganing – qandu asal totganing.*

Sodda gaplar eganing ishtirokiga ko`ra egali va egasiz gaplarga bo`linadi. Gapning grammatik asosi ega va kesimdan iborat bo`lsa egali (ikki bosh bo`lakli gaplar), faqat kesimning o`zidan iborat bo`lsa egasiz (bir bosh bo`lakli gaplar) deb yuritiladi *O`rikzor xira pardaga* ***burkandi.*** *Sochilgan* ***urug` unib chiqadi.*** *Shaftolizor bog`larni* ***ko`rdim.*** *Jo`jani kuzda* ***sanaydilar***.

### Mashg'ulot mazmuni:

**1.** Uyga berilgan mashqlar hamda testlar, krossvordlar, tarqatma materilalar tekshirilib talabalar bilimi baxolanadi, mavzu mustahkamlanadi.

**2.** Quyidagi sovallar asosida mavzu yuzasidan savol-javob utkaziladi:

1) Gap bulaklari ta'rifi.
2) Gap bulaklari turlarini aniklash vositasini tushuntiring.
3) Bosh va ikkinchi darajali bulaklarni tushuntirib bering.
4) Oddiy va murakkab bulaklarni misollar asosida tushuntirib bering.
5) Eganing ta'rifi va so'roqlari?

6) Eganing ifodalanishining 6 xil tarkibini (ot, olmosh, otlashgan suz, xarakat nomi, ibora, sintaktik birlik) misolar asosida tushuntirib bering.
7) CHikish kelishigidagi so‘zlar bilan eganing ifodalanishini tushuntiring.

**3.** Mavzuni mustahkamlash maqsadida mashqlar to‘plamidagi 1-2 mashqlar shart asosida bajariladi. Unga asosan gapning bosh bulaklari topib izohlanadi hamda eganing ifodalanishi tushuntiriladi.

**4.** Talabalar faolligini hamda individual xususiyatlarini ochish maqsadida mustaqil ijodiy ish utkaziladi.

1-topshirik: Otlashgan so‘zlar bilan ifodalangan ega ishtirokida bir nechta gap tuzing. Tuzgan gaplaringiz asosida matn yarating.

2-topshirik: Mashqlar to‘plamidagi matnlardan turli turkumga oid so‘zlar bilan ifodalangan egalarni aniklab, izohlab bering.

**5.** Mavzuni mustahkamlash maqsadida test sinovi utkaziladi.

**Test tarqatmadan namuna:**

***1.Olmosh bilan ifodalangan ega ishtirok etgan gapni toping.***
A)Ular mashg‘ulotda faol qatnashdi.B) O‘qish tugadi.S)Bizdan onasi suradi.D)A,S.

***2.Modal so‘z bilan ifodalangan egani toping.***
A)Ko‘plar qatnashdi.B)Biz yig‘ildik.S) Bor boricha, yo‘q xolicha. D) Yo‘qni yo‘ndirdim.
***3. Gap bulaklari nechta?***
A) 5 B) 4 S) 3 D) 6
4. Egasi taqlid so‘z bilan ifodalangan gapni toping?
A) Uzokdan gumbur-gumburlarni eshitdik. B) To‘plarning gumburi eshitildi. S) Ikkovimiz qorni g‘archillatib bosib ketdik.
D)Milt etib chiroq yondi.

**Mavzuni yakunlash:** Rag‘batlantiriladi, uyga vazifa beriladi, mavzu umumlashtiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbek tili grammatikasi. I qism. Toshkent – 1975 yil.
2. M.Mirzaev va boshqalar. "O‘zbek tili" Toshkent – 1978 yil.
3. M.Hamroev "O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi" Toshkent – 2006 yil.
4. M.Hamroev "O‘zbek tilidan mashqlar to‘plami" Toshkent – 2006 yil.

| | |
|---|---|
| 6 - | Mavzu**Egaliva egasiz gaplar** |

| MAVZU | |
|---|---|
| Vaqti:  2 soat | Talabalar soni: 20 ta |
| Mashg'ulot shakli | Amaliymashg`lot |
| **O'quv mashg'ulotiningrejasi** | 1.Tashkiliy qism<br>2.Savol- javob<br>3.Mashq ishlash<br>4.Mustaqil ishlarni tekshirish. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi** | Talabalarning gap va uning turlari,bosh bo'laklar va uning turlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1.Talabalarning gap haqidagi bilimlarini aniqlash .<br><br>2.Talabalarda gap bo'laklari bo'yicha umumiy tasavvur hosil qilish<br><br>3.Talabalarning bosh bo'laklar va uning turlari haqidagi bilimlarini aniqlash | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>1Gap va uning turlarini yaxshi bilishi kerak<br><br>2. Gap bo'laklari to'grisida ko'nikmalarini shakllantirish<br><br>3. Gapning bosh bo'laklarini bir-biridan ajrata olishi,bosh bo'laklarining ifodalanishi  aniqlay olishi. |
| Ta'lim metodi va texnikasi | Suhbat, muammoli  izlanish, |
| Ta'lim vositasi | Ma`ruzalar matni, mashqlar to'plami,tarqatma materiallar. |
| Ta'lim shakli | Yakka tartibdagi savol-javob, guruhlarda ishlash |
| Ta'lim sharti | Auditoriya, TSOdan foydalanish |

6- Mavzu:**Egaliva egasiz gaplar**
**Amaliy mashg`ulotning texnologik kartasi**

| Dars bosqichlari va vaqti | O'qituvchi | Talaba |
|---|---|---|
| 1-boqich<br>Kirish<br>(5 daqiqa) | (1) Mavzu bo'yicha qisqacha ma'lumot beradi.<br><br>(2). Tayyorlanish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi.<br>. | Talabalar mavzu yuzasidan axborotni eshitadi.<br><br>Adabiyotlar ro'yxatini yozib oladi. |

| | | |
|---|---|---|
| 2-bosqich<br>Asosiy bosqich<br>(70 daqiqa) | 2.1Gap va uning turlari,bosh bo'laklar va uning turlari haqida umumiy ma'lumot beradi.(1-ilova)<br><br>2.2 O'qituvchi doskada gap va uning turdarini, bosh bo'laklarni to'liq tahlil qilishni o'rgatadi. (2-ilova)<br><br>2.3. Gaplarning turlari,ulardagi bosh bo'laklarni aniqlash bo'yicha topshiriq beradi (3-ilova)<br><br>2. 4. O'quv qo'llanmadagi topshiriqlarni beradi.(4-ilova) | 1 Eshitadi, yozadi, savollarga javob beradi.<br><br>2.Kuzatadi va mushohada qiladi.<br><br>3. Berilgan topshiriqlarni bajaradi, munozarada qatnashadi.<br><br>4. Mashq bajaradilar, muhokamada qatnashadilar |
| 4-bosqich<br>Yakuniy bosqich<br>(5 daqiqa) | 3.1. Mavzuni mustahkamlash uchun savollar beradi(5-ilova)<br>3.2. Uyga vazifa beradi. | 1. Savollarga javob beradi<br>2. Uyga vazifani yozib oladi. |

## Mashg'ulot mazmuni:

**1.** Talabalar davomatini aniklash, mavzuni jurnalga kayd etish.
**2.** Uy vazifasini tekshirish; Badiiy asarlardan olingan bir bosh bo'lakli gaplar asosidagi kartochka hamda shu mavzu asosida berilgan mashqlarning bajarilganlik darajasi tekshirilib, tahlil qilinish orkali talabalar bilimi tekshiriladi, baxolanadi.
**3.** Mavzuning mazmunini Tula ochish Maqsadida kuyidagi savollar asosida savol-javob amalga oshiriladi.
Talabalar tomonidan berilayotgan javoblar kamida 2 ta misol bilan asoslanishi zarur:

1) Gaplarning tuzilish jihatidan turlari haqida ma'lumot bering.
2) Sodda gaplar va ularning turlari haqida gapiring.

3) Bir va ikki bosh bo'lakli gaplar.
4) Yigiq va yoyiq ikki bosh bulakli gaplar.
5) Bir bosh bulakli gaplar.
6) SHaxsi ma'lum gap.
7) SHaxsi noma'lum gap.
8) SHaxsi topilmas gap.

Mavzuni mustahkamlash maqsadida mashq hamda mustaqil ishlar amalga oshiriladi: Mashqlar to'plamidagi 1-2 mashqlar shart asosida bajariladi. Unda egasiz bir bosh bulakli gaplar va ularning turlari haqida fikr yuritiladi.

**Mustaqil ish:**

1-topshirik: Bir bosh bulakli gaplar tuzing. Ularning turlarini aniklang. SHu gaplar asosida matn yarating.

2-topshirik: Bir bosh bulakli gaplarni barcha turiga oid misolar yozing. Ularni ikki bosh bulakli gapga sungra kushma gaplarga aylantiring.

Mavzuni mustahkamlash Maqsadida topshiriklari asosida sinov utkaziladi.

Mashg'ulotni yakunlash: Mavzuni umumlashtirish, talabalarni ragbatlantirish, uyga vazifa berish.

17. Qaysi gapda egasi yashiringan gap berilgan?
A. Xonaga kirgan avval salom beradi
B. Manzilga mana shu yo`ldan boriladi
C. Topshiriqni o`z vaqtida bajarish kerak
D. Hurmat qilsang, hurmat ko`rasan

18. Qaysi qatorda egasiz gaplar berilgan?
A. Murojaat matni yozildi, imzolar chekildi
B. Eshik ochiq bo`lsa ham, so`rab kir
C. Dam olish kuni kitobxonlar yig`iniga borish kerak
D. Bugun to`garakka borishimiz lozim edi.

19. Qaysi qatorda o`tov gap qo`llanmagan?
A. Hovli zim-ziyo. Ariqdagi suv mildirab oqadi
B. Yam-yashil o`tov. Hulkar bu yerga kelsa qanday quvonadi.
C. Qip-qizil saraton quyoshi. Muloyim jilmayib saxovat bilan nur socha boshladi.
D. Barcha gapda atov gap qo`llangan.

20. Qaysi gapda ega qo`llangan?
A. O`zboshimchalikka yo`l qo`yilmaslik
B. O`quvchi yo`q har qadamda qoqiladi
C. Tarbiyachi va o`qituvchi bo`lish uchun chidam bilan o`qiladi
D. O`zinigina o`ylovchi kishini yaxshi odam deb bo`lmaydi.

21. Shaxsi umumlashgan gapni toping.
A. Aruz vaznining ohangini yurak urishiga o`xshataman
B. Birovning izidan gapirma, o`ziga gapir

C. Zo`r quvonchga faqat katta mehnat bilan erishish mumkin
D. Farzandni gulga,  onani bo`stonga o`hshatadilar
E. Bahor. Atrof go`zal.
22. Shaxsi topilmas gapni toping.
A. Kiyimni bo`yga qarab bichadilar
B. Umr bo`yi bilimni boyitib borish lozim
C. Xalqimning baxtu-saodati yo`lida xizmat qilishga tayyorman
D. Do`stini yomonlagandan qoch
E. Orqadan gapirgan do`st emas.
23. Atov gapni toping.
A. Haqiqatni yashirib bo`lmaydi
B. Ko`p yig`lasang, ko`zdan ajraysan
C. Bu yerda bemorni musiqa bilan davolaydilar
D. Bahor. Tog`lar, qirlar yashnab ko`rinadi
E. Ishing oldinga surilishini istasang, tabassumda bo`l.
24. To`liqsiz gapni toping.
A. Shundaymi? - yoqasini ushladi chol
B. – Familyangiz nima? –A'zamxonava.
C. Sabr – umr xazinasi
D. Ertaga Qorabuloqqa borar ekansizda?
E. Bo`ka tumanida istiqomat qilayotgan Ozodaxon Abdullaxonovani taniysizmi?
25. Imtixonlarga puxta tayyorgarlik ko`rdingmi? Ha, tayyorgarlik ko`rdim. Ushbu gapdagi ha so`zini qanday izohlaysiz?
A. gap
B. so`z gap
C. kirish so`z
D. atov gap
E. to`liqsiz gap.
26. Qaysi qatorda bir bosh bo`lakli gap berilgan?
A. Bu yil olma bilan o`rik hosili mo`l bo`ldi
B. Sochilgan urug` tez unib chiqdi
C. Bir tup tok eksang, bir tup tol ek
D. Suvlar tiniq, yaproqlar oltin
E. Gullab yotgan o`rikzor xira pardaga o`raldi

## Foydalanilgan adabiyotlar:


1. O‘zbek tili grammatikasi. I qism. Toshkent - 1975 yil.
2. M.Mirzaev va boshqalar. "O‘zbek tili" Toshkent – 1978 yil.
3. M.Hamroev "O‘zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi" Toshkent – 2006 yil.
4. M.Hamroev "O‘zbek tilidan mashqlar to‘plami" Toshkent – 2006 yil.


| | |
|---|---|
| **7-,8-,9- MAVZU** | Ikkinchi darajali bo'laklar. To'ldiruvchi uning turlari , ifodalanishi. Aniqlovchi, uning turlari , ifodalanishi. Hol, uning turlari , |

| | | |
|---|---|---|
| LAR | ifodalanishi. | |

| | |
|---|---|
| Vaqti: 6 soat | Talabalar soni: 20 ta |
| Mashg'ulot shakli | Amaliy mashg`lot |
| **O'quv mashg'ulotining rejasi** | 1.Tashkiliy qism<br>2.Savol- javob<br>3.Mashq ishlash<br>4.Mustaqil ishlarni tekshirish. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi** | Talabalarning Ikkinchi darajali bo'laklar. To'ldiruvchi uning turlari , ifodalanishi. Aniqlovchi, uning turlari , ifodalanishi. Hol, uning turlari , ifodalanishihaqidagi bilimlarni mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1.Talabalarning ikkinchi darajali bo'laklar haqidagi bilimlarini aniqlash .<br><br>2. To'ldiruvchi uning turlari , ifodalanishi. Aniqlovchi, uning turlari , ifodalanishi bo'yicha umumiy tasavvur hosil qildirish<br><br>3. Hol, uning turlari , ifodalanishihaqidagi bilimlarini aniqlash | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>Ikkinchi darajali bo'laklar haqidagi bilimlarini aniqlash yaxshi bilishi kerak<br><br>2. To'ldiruvchi uning turlari , ifodalanishi. Aniqlovchi, uning turlari , ifodalanishi to'grisida ko'nikmalarini shakllantirish<br><br>3. Hol, uning turlari , ifodalanishibir-biridan ajrata olishi,bosh bo'laklarining ifodalanishi aniqlay olishi. |
| Ta'lim metodi va texnikasi | Suhbat, muammoli izlanish, |
| Ta'lim vositasi | Ma`ruzalar matni, mashqlar to'plami,tarqatma materiallar. |
| Ta'lim shakli | Yakka tartibdagi savol-javob, guruhlarda ishlash |
| Ta'lim sharti | Auditoriya, TSOdan foydalanish |

**7-9- Mavzu;Ikkinchi darajali bo'laklar. To'ldiruvchi uning turlari , ifodalanishi. Aniqlovchi, uning turlari , ifodalanishi. Hol, uning turlari , ifodalanishi. Amaliy mashg`ulotning texnologik kartasi**

| Dars bosqichlari va vaqti | O'qituvchi | Talaba |
|---|---|---|
| | (1) Mavzu bo'yicha | Talabalar mavzu |

| | | |
|---|---|---|
| 1-boqich<br>Kirish<br>(5 daqiqa) | qisqacha ma’lumot beradi.<br><br>(2). Tayyorlanish uchun adabiyotlar ro’yxatini beradi.<br>. | yuzasidan axborotni eshitadi.<br><br>Adabiyotlar ro’yxatini yozib oladi. |
| 2-bosqich<br>Asosiy bosqich<br>(70 daqiqa) | 2. Ikkinchi darajali bo’laklar haqida umumiy ma’lumot beradi.(1-ilova)<br><br>2.2 O’qituvchi doskada gap va uning turdarini, bosh bo’laklarni to’liq tahlil qilishni o’rgatadi. (2-ilova)<br><br>2.3. Ikkinchi darajali bo’laklar aniqlash bo’yicha topshiriq beradi (3-ilova)<br><br>2. 4. O’quv qo’llanmadagi topshiriqlarni beradi.(4-ilova) | 1 Eshitadi, yozadi, savollarga javob beradi.<br><br>2.Kuzatadi va mushohada qiladi.<br><br>3. Berilgan topshiriqlarni bajaradi, munozarada qatnashadi.<br><br>4. Mashq bajaradilar, muhokamada qatnashadilar |
| 4-bosqich<br>Yakuniy bosqich<br>(5 daqiqa) | 3.1. Mavzuni mustahkamlash uchun savollar beradi(5-ilova)<br>3.2. Uyga vazifa beradi. | 1. Savollarga javob beradi<br>2. Uyga vazifani yozib oladi. |

**1-ilova**

Predmet ma’nosini bildiruvchi so‘zni izohlaydigan va uning belgisini anglatadigan ikkinchi darajali bo‘lakka aniqlovchi deyiladi.

Aniqlovchi predmetning xususiyatini, qarashliligini va shu kabilarni ifodalaydi. Aniqlovchi leksik-semantik va grammatik jihatdan uch xil bo‘ladi: sifatlovchi, qaratuvchi, izohlovchi.

Ko‘pincha fe’l bilan ifodalangan, ba’zan fe’ldan boshqa ayrim so‘zlar bilan ifodalangan bo‘lakka boshqaruv yo‘li bilan bog‘lanib, uning ma’nosini to‘ldirib keladigan ikkinchi darajali bo‘lak to‘ldiruvchi deyiladi.

To‘ldiruvchi boshqaruvchi so‘zning talabiga ko‘ra kelishik affikslari (qaratqich kelishigidan tashqari) yoki ko‘makchilar orqali shakllanadi. Masalan: Aql va idrok quyoshga o‘xshaydi, ular dog‘larni bekitadi. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»). To‘g‘ rilik bilan xiyonat, yolg‘ onchilik bilan diyonat chiqisha olmaydi. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).

Odatda fe’l bilan ifodalangan bo‘lakka bitishuv yoki boshqaruv yo‘li bilan bog‘lanib, undan anglashilgan ish-harakatning belgisini bildiradigan ikkinchi darajali bo‘lakka hol deyiladi. Hol ish-harakatning qay tarzda bajarilishini, uning bajarilishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘rin, payt, sabab, maqsad, miqdor-daraja kabilarni bildiradi. Hol ravish, jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklari shakllaridagi ot yoki ko‘makchili ishlatilgan so‘zlar, sifat, son, fe’l shakllari, taqlid so‘z hamda so‘z birikmasi orqali ifodalanadi.

**2- ilova**

Bir necha gaplar doskada yoziladi va ularning turlari, ikkinchi darajali bo’laklar, ularning ifodalanishi tahlilda ko’rsatiladi:

Tepalikda, quyuq daraxtlar ostida, gilamchalarda to’p-to’p o’tirib, katta sopol laganlarga uyum-uyum suzilgan palovni zo’r ishtaha bilan bir-biriga qiziqib oshayotgan... oshxo’rlar orasidan o’tib, pastga tusharkan, O’ktamning yuragi birdan “shig’” etib ketdi. *(O.)* 2. Temur Malik otdan tushib, ikki-uch navkari bilan yuqoriga – qorovulxonaga ko’tarildi. *(Mirm.)*

**3-ilova**

*1. Vazira SHerzodning bu dalilini ham yashil siyoh bilan belgiladi.(P.Q.)*
*2. Ertasiga Ergash kuni bo’yi ro’zg’or ishlari bilan ovora bo’ldi.* (As.M.) *3. Namozboy bu gal ishni sal boshqacharoq tashkil etgan.*

**4- ilova**

Mashqlarni bajarish; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to’liq va mukammal bo’lishi o’qituvchi va talabalar tomonidan qatьiy nazoratga olinadi.)

. O’qing. Ikkinchi darajali bo’laklarni topib, turi va ifodalanishnni ayting.

SHohimardonga go’zal Vodil qishlog’i orqali yaxshi avtomobilь yo’li boradi. Vodilda, ulkan chinor tagidagi choyxonada, maza qilib dam olsa bo’ladi. Bu chinorni biolog olimlar jonli tabiatning noyob ob’ekti sifatida maxsus hisobga olib qo’yishgan.
Konchilar posyolkasi hisoblangan Qadamjoydan o’tgandan keyin yo’l SHohimardonsoyning torgina toshloq darasiga kirib ketadi, shundan so’ng yo’l yana keng vodiyga chiqadi. Vodiy yon bag’ri ko’m-ko’k daraxtlar, terakzorlar va tamakizorlar bilan qoplangan. Soy suvi o’tlar va butalar bilan qoplangan yerlardan ko’pirib-toshib oqadi. Yo’ldan sal narida, toshloq tepalik ustida, bir qoya bor, bu qoya yotib olgan filga o’xshaydi. Qoyani turistlar har doim suratga olishadi. Qarshingizda bir-biriga ulanib ketgan qator tog’ tizmalari yuksalib turadi. Bu

tog'larning yon bag'irlarida chuqur daralar bor. Uzoqda, moviy osmon tagida, Oloy tizmasining mangu qorlar bilan qoplangan yuksak cho'qqilari suzib ketayotganday ko'rinadi. Yo'l vodiy tagida va yon bag'irlar bo'ylab joylashgan katta qishloqning ko'chalariga olib kiradi. Bu — Hamzaobod qishlog'i. *(A. Kolbintsev.)*

***361- mashq***. O'qing. Gaplarni gap bo'laklari jihatidan tahlil qiling.

1. Bu xalq jahonga ne-ne mashhur olimlar, me'morlar, ustalar va mutafakkirlarni yetishtirib bermagan, axir! *(K. Moiseeva.* 2. Kishining kuchi—uning ongi, dunyoqarashi, tushunchasi, ishonchi, ruhi, yashashga qobiliyati, niyati va intilishida, xullas, uning irodasida. *(I. R.)* 3. Ko'l bo'yida erta saharda ayniqsa manzara go'zal bo'ladi. Ilk quyosh nurlari tog'larning dovonlaridan mo'ralab moviy osmon ostida tovlanib turgan ko'l suviga yuzini yuvadi. Ko'l bo'yida kechqurun o'tirib orom olish naqadar yoqimli. *(A. Kolbintsev.)* 4. Davlat arboblari aql va adolatni shior qilsalar, xalqni parvarish etsalar, hayotning zangini oltinga aylantirmoq mumkin. *(O.)*

***362- mashq***. O'qing. Gap bo'laklari normal holatda kelgan va gap bo'laklarining normativ tartibi o'zgargan gaplarni aniqlab, inversiyaga uchragan gaplarni ko'chiring, ulardagi gap bo'laklarining tartibi qanday o'zgarganligini tushuntiring.

1. Palovga sabzini nechog'liq tekis va mayin to'g'ralsa, osh shuncha shirin bo'ladi. *(O.)* 2. Ishqilib umid uchqunlari o'chmay, uzoqdan bo'lsa ham yilt-yilt ko'zga tashlanib turganidan mamnun u. *(J. Abd.)* 3. Turistlar dastlabki besh kun davomida Samarqandda bo'lib, uning me'morchilik yodgorliklari va diqqatga sazovor boshqa joylarini tomosha qiladilar, shaharliklarning sevib dam oladigan joylariga boradilar. *(A. Kolbintsev.)* 4. Hatto ayrim jihatdan Komiljondan ham ustunrok tomonlari bor edi uning. *(J. Abd.)* 5. Institutga kirib olish esa hayotida eng katta mukofot hisoblanardi unga. *(J. Abd.)* 6. Bu kiyimida u qandaydir juda kamtar, ayni mahalda burungisidan ham jozibali bo'lib ko'rindi menga. *(O.Yo.)* 7. Haqiqat shunday bir narsaki, u suvga tushsa cho'kmaydi, o'tga tushsa yonmaydi. *(I. R.)* 8. Mohidilxon biz bilan bayram qiladi bugun. *(J. Abd.)* 9. Mard kurashda, do'st tashvishda, dono g'azabda sinalar. *(Mirm.)* 10. Yuzlaridan sharbat tomizib Yotar bunda do'ndiq handalak. *(Mirm.)*

***363-mashq***. O'qing. Uyushiq bo'lakli gaplarni topib, qanday bo'lak uyushganini, uyushiq bo'laklar o'zaro qanday bog'langanini ayting. Uyushiq bo'laklarni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birikma tarzida ko'chirib, uyushiq bo'laklarning nomini ustiga yozib qo'ying.

Atrofi ko'rkam bog'lar bilan o'ralgan, ulug'vor binolar qad ko'targan Samarqand nihoyatda go'zal va boy edi. Uzoq mamlakatlardan kelib ko'rgan sayyohlar undagi qurilishlar, don-dun va sharobga, anvo turli mevalar, parranda, go'sht-yoqqa to'la bozorlar, ajoyib qurol-aslaha, nihoyatda nozik zargarlik buyumlari, shisha va sopol idishlar yasovchi, rang-barang shohi-adraslar to'quvchi mohir hunarmandlar haqida hayratlanib hikoya qilishardi. Och pushti rang mashhur Samarqand kimxobi ko'p

mamlakatlarga olib borib sotilardi. Samarqandda ishlangan qog'oz jahonda eng yaxshi qog'oz sanalardi. SHuningdek, uning rastalaridan ajnabiy mamlakatlardan keltirilgan har xil mollarni xarid qilish mumkin edi. Nimalar topilmas edi deysiz bu yerda! Rossiyadan keltirilgan surp va nafis mato, xitoy shohisi, hind marvaridi va shirinliklari...

Samarqand go'zal va boy edi. Ammo bu yerda ilm zavol topdi, ilm-fan ahllari xo'rlandi va quvg'in etildi. *(L. Вать.)*

***364-mashq***. O'qing, gapning qaysi bo'lagi uyushib kelganini aniqlang. Uyushiq egali to'rtta gapni ko'chirib, uyushiq bo'laklar tagiga chizing va ular qanday ifodalanganini tushuntiring.

1. Olmalar, anoru anjirlar, shaftoli, behilar, giloslar g'aynolilar, noklar kamolga yetdi. *(H. G'.)* 2. Hamma o'z qarindosh-urug', oshna-og'ayni va yaqinlari bilan ko'rishmoqda yoki xayrlashmoqda. *(M. Muhamedov.)* 3. Qanchadan-qancha ajoyib yigitlar, qizlar jasorat ko'rsatishyapti! *(H. G'.)*4. Erining xotirasi, bolalarining tarbiyasi, tinimsiz mehnati, yurt g'amidan boshqa tashvishi yo'q u muhtaramaning! *(H. G'.)* 5. Bo'rilarning etni jimirlashtiradigan ulishi, to'ng'izlarning ko'ksov yo'talidek yoqimsiz tovushi, echkemarlarning sovuq boqishi, ilon po'stlarining ojiz yiltirashi, cho'l burgutlarining viqorli boqishi bu ikki yo'lovchining yuragiga vahm sololmasdi. *(S. Ahm.)* 6. Muzaffar navkarlarga, ularning changga belangan, toliqqan, ammo kuchli otlariga tikilib, sukut qildi. *(L. Вать.)* 7. Mevazorlar gulda-chechakda, Tol, chinorlar tugal kurtakda. *(O.)*

***365-mashq***. O'qing. Kesimi uyushgan gaplarni ko'chiring, eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizing, kesimning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

1. Andrash Sabo xushmuomala, sertakalluf, yoqimtoy, xushsuhbat edi. *(S. Kalmikov.)* 2.Quruvchilar uchun... shaharcha qurildi; oziq-ovqat palatkalari, baraklar, oshxonalar, choy-xonalar, qizilburchaklar, kutubxonalar, ambulatoriyalar, kasalxonalar, omborlar, magazinlar barpo qilindi. *(N. Biryukov.)* 3. Kun salqin va izg'irin. *(S. B.)* 4. Hammaning dilida bir-biridan yaxshi, tez, toza, ko'p paxta terish tuyg'usi. *(A. Muhiddin.)* 5. Ko'l harakatsiz, shu'lador, kimsasiz. *(CH. Ayt.)* 6. "Komiljon bilan Tatьyanani chaqiringlar!" — dedi u qabulxonadagi xodimasiga. *(I. R.)* 7.To'tixon xatni ko'zlariga surtar, o'par, hidlar edi. *(S. Ahm.)* 8. Ochiqqan, toliqqan otliqlarga o'tgan-ketganlar hayron bo'lib qarashardi. *(L. Вать.)* 9. Naimshoh... SHakar bahodirni izzat-hurmat bilan kutib oldi va mehmonxonaga boshlab kirdi. *(S. Ulug'zoda.)*

***366-mashq.*** O'qing, to'ldiruvchisi uyushib kelgan gaplarni topib, uyushiq to'ldiruvchilarni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birikma tarzida ko'chiring, to'ldiruvchining turini ustiga yozib qo'ying.

1. O'tgan yili Madaminxo'ja xirmonida yoqilgan umid chirog'i qalbiga na surur berdi va na nur! *(M.I.)*2. U yerda Saodatni yaxshi kutib oladilar, yuvib-taraydilar, kiyintiradilar. *(S. Z.)* 3. Qo'biz adirlar orqasiga yonboshlayotgan quyosh haqida, har

yoqqa salqinlik taratayotgan mayin shabada haqida, yo'l yoqalab kelgan ko'm-ko'k yavshon va sap-sariq chalovlarning sekin-sekin tebranib gul changlarini to'kayotgani haqida kuylardi. *(CH. Ayt.)* 4. Beso'naqayroq yuzli, qora ko'zli bu yigit aqlli ko'rinardi. *(V. Karpov.)* 5. O'razqulga ko'rsatilgan hurmatlar uchun, ziyofatlar uchun, qarzlar uchun, va'dalar uchun hisoblashadigan payt keldi. *(CH. Ayt.)* 6. Birdan uyini, qizini, shiyponini ko'rgisi kelib ketdi. *(S. Z.)* 7. Bularning oralarida shoiralar, g'azalxonlar, sozanda, qiziqchi va raqqosalar bo'lardi. *(N. S.)*

***367-mashq***. Uyushiq aniqlovchilarni topib, aniqlanmish bilan birga ko'chiring; so'rog'i, turi va qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

1. Ey, tim qora sochli, ko'zlaridan nur yog'ilib turuvchi murabbiya! Qadamlaringga hasanot! *(Fodil as-Siboiy.)*2. Yomon, yaxshi ish yo'q, hamma ish yaxshi! Bizda halol mehnat odamning naqshi! *(U.)* 3. Katta, dehqonga foydali, o'z ko'ngliga yoqadigan ish qilmoqchi edi u. *(S. Nurov.)* 4. Qancha-qancha to'qnashuvlar, yangi tashvishlar, quvonch, ikkilanish, muvaffaqiyatlar, mag'lubiyatlar va kurashlar kutadi bizni. *(J. Abd.)* 5. Bo'm-bo'sh, jimjit ko'chalardan yolg'iz ketdim. *(O.Yo.)* 6. Zebo va barno bu qizning jasorati odamlar nazarida chindan ham hayron qolarli edi. *(S.Ulug'zoda.)* 7.Tashqari gullarga ko'milgan, sadarayhonlar, qashqargul va atirgullarning hidi havoda anqirdi. *(O.)* 8. Yo'lchi uchun Petrov... butun hayoti va kurashi bilan muallim bo'ldi. *(O.)*

***368-mashq***. O'qing. Uyushgan va uyushmagan sifatlovchilarni aniqlang, ular orasidagi farqni tushuntiring.

1. Uning mehnatda chiniqqan qoramtir yuzida, jonli, tiyrak yirik ko'zlarida bolalarcha ma'sumlik jilvalanardi. (O.) 2. Yurtda adolatli davlat, odil va ilmparvar hukmdor ko'rmoq orzusida bo'lgan Navoiy Husayn Boyqarodan ko'p narsa umid qilar edi. *(O.)* 3. Hozir Mirzacho'lga borgan har bir kishi u yerdagi yangi, obod shaharlarni, ko'p qavatli muhtasham binolarni, hashamatli uy-joylarni, har ikki tomoni ko'm-ko'k daraxtzorlar bilan qoplangan keng va tekis asfalьt yo'llarni ko'radi. *(A. Po'lat.)* 4. Mulozimlar uning yuvosh, lekin jussasi juda kelishgan yo'rg'a qorabayir otini ko'ndalang qilishdi. *(O.)* 5. CHol katta zarang tovoqda lim to'la tariq olib chiqib, toza supurilgan keng sahnga sochdi. *(O.)*

***369-mashq.*** O'qing. Uyushgan hollarni aniqlab, o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birikma tarzida ko'chiring; tagiga chizib, ustiga turini yozib qo'ying.

1. Korolyov mayorni... dov yurakligi, sof dil va rostgo'yligi uchun yaxshi ko'rardi. *(A. CHakovskiy.)* 2. Yong'in tutuni barra o'tlar ustida, endi nish urib chiqqan ekinlar ustida, daraxtlari kurtak chiqargan bog'lar ustida, ko'pirib-hayqirib oqayotgan bo'tana soylar ustida suzib yurardi. *(S. B.)* 3. Bo'g'iq shovqin suv orqali aniq o'tib, dahshatli va dabdabali eshitilar edi. *(J. Vern.)* 4. Lekin hozir qahramonlar minglab, o'n minglab chiqyapti. *(A.CHakovskiy.)* 5. Yana qo'rquvdan va tanholikdan yuragim o'ynay boshladi. *(Samim ash-SHarif.)* 6. Dengizday chayqalib,

daryoday toshib, Ko'hna qirg'oqlardan ko'pirib toshib, SHarqirab, yarqirab, barq urib, serzavq Qalbimga to'ldirib hayajon va shavq Hayot chaqiradi meni yoniga! *(U.)*

**5-ilova**

Savol-javob: Talabalarning mavzu yuzasidan egallagan nazariy bilimlarini aniqlash va baholash maqsadida quyidagi savollar asosida savol-javob amalga oshiriladi: (Bunda o'qituvchi asosiy e'tiborni talaba nutqining ravonligiga, shevalardan xoli bo'lishishiga, javoblarning ilmiyligi va mantiqan to'g'riligiga hamda har bir ifodalanayotgan fikrning aniq misollar yordamida izohlanishiga qaratiladi)

- *To'ldiruvchining ta'rifini ayting.*
- *Vositasiz to'ldiruvchi va uning ifodalanishi haqida gapiring.*
- *Vositali to'ldiruvchi va uning ifodalanishi haqida gapiring.*
- . *Vositali to'ldiruvchi va vaziyat holi o'xshash bo'lgan holatlar haqida gapiring.*
- *Aniqlovchining ta'rifini ayting.*
- . *Aniqlovchi gapda qaysi bo'laklarga tobe bo'lib keladi?*
- *Sifatlovchi aniqlovchi va uning ifodalanishi haqida gapiring.*
- . *YOyiq sifatlovchi aniqlovchi haqida gapiring.*
- . *Qaratqich aniqlovchi va uning ifodalanishi haqida gapiring.*

--. *Hol haqida gapiring. .*

Mashg'ulotni yakunlash.O'qituvchi mashg'ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma'lum qiladi, ularni rag'batlantiradi va to'plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg'ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar)xususida o'z mulohazalarini bayon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o`zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, SH.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O`zbek tili. 2004, O`AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o`zbek tili. 2006, "Universitet" nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to`plami Toshkent, 2009-yil

**6-ilova. Test texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash**

1. Qaysi gapda sifat aniqlovchi vazifasida qo`llangan?

A. To`g`ri yursang murodingga oson yetarsan
B. Ayol sochlari parishon, oyoqlari yalang, yoqasi ochiq ko`chaga otiladi
C. Bir xotin sabzavotlar solingan xaltasini ko`tarib kelayotgandi
D. Har narsaga qiziqish-biz uchun eski odat.

2. Ravish bilan ifodalangan hol qo`llangan gap qatorini aniqlang.

A. Uy ichida odam ko`p edi
B. Shodmonbek zarbdan ko`zi tinib hushdan ketdi
C. Yig`lab-yig`lab marza olsang, o`ynab-o`ynab sug`orasan
D. U o`ychan ko`zlari bilan Botirga qarab sekin gapirdi

3. Joni xalqumiga kelgan Sattor alamidan baqirib yig`lab yubordi. Ushbu gap qanday gap bo`laklaridan iborat?
A. ega, kesim, ikkita ravish holidan
B. ega, kesim, sifatlovchi aniqlovchi, sabab va ravish holidan
C. ega, kesim, ikkita ravish holi va bitta sabab holidan
D. ega, kesim, sifatlovchi aniqlovchi va ikkita ravish holidan
4. Ega+aniqlovchi+aniqlovchi+to`ldiruvchi+hol+kesim qolipidagi gapni aniqlang.
A. Zebi opasining beradigan javobini ilgaridan bilardi
B. Bog`bon ko`m-ko`k ajriq ustida o`tirib hordiq chiqardi.
C. Dadash mehribon odamlarning suhbatlashishidan zavqlanar edi.
D. A’zam tizzasidagi mahsini hafsala bilan pishiq tikadi.
5. Faqat ravish holi bilan kengaygan sodda yoyiq gapni toping.
A. Tursunali bir-bir bosib minbarga chiqdi va dona-dona gapirdi
B. Bola epchillik bilan turdi, qisqa va lo`nda javob berdi.
C. Tiniq suvdan hovuch-hovuch oldi, qonib-qonib ichdi
D. Quvvatsizligidan tez charchadi
6. Harakat nomi bilan ifodalangan vositasiz to`ldiruvchi qo`llangan gapni toping.
A. Uning kulib boqishlarini bir zum ham unutmayman.
B. O`quvchilar dam olishga dala shiyponiga kelishdi
C. Mening borishimdan sizga nima foyda?
D. So`rashdan uyalma, bilmaslikdan uyal
7. Qaysi gapdagi aniqlovchi narsa-buyumning qarashliligini ifodalagan?
A. Bu kitoblar kimniki?
B. Yangi binolar qishloqning husniga husn qo`shmoqda
C. Shu payt ichkaridan ship-ship qadam tovushi eshitildi
D. Uzoq-yaqinlardan odamlar yig`ila boshladi
8. So`z birikmalari zanjiri gapning egasi atrofida birlashgan holatni toping.
A. Badanni junjiktiruvchi sovuq shamol izg`ib qoldi
B. Boboning tabiati ravshan bo`lib ketdi
C. Darveshalining zindonda yotishi Alisherning yuragida dushmanlik olovini to`ldiradi
D. Sayohatchilar daraning pillapoya kabi yotiqroq yerlaridan yuqoriga intildilar.
9. Ma’lum matnda gaplar qaysi jihatdan bog`lanadi?
A. morfologik jihatdan
B. sintaktik jihatdan
C. mantiqiy jihatdan
D. A,B va S
10. Quyida berilgan gaplardan qaysisida ohang o`zgarishi orqali farqli fikr hosil qilish mumkin?
A. Tog` qushlarining sayrashi qo`ylarning ma’ragan ovozlariga jo`r bo`lmoqda
B. Haligi sumka ko`targan qizini chaqirdi
C. Gulchehra mo`ysafidga nima javob qilishini bilmay, o`zini tramvayga otdi
D. Nima bo`ldi, qizim, nega yig`layapsan
11. Qaysi gapda gapning o`zgargan tartibi ega va kesimga tegishli?
A. Shovulladi tun bo`yi shamol
B. Qaldiroqlar ko`chdi larzakor

C. Men nechuk sevaman O`zbekistonni?!
D. Arra tortar, Nosirning boshi egik, ko`zi nam
12. Qaysi gapda ibora hol vazifasida qo`llangan?
A.Qani endi u hozir yonida bo`lsa, yurt tinchigan, dehqonning og`zi oshga yetib, ro`zg`origa baraka kiritgan vaqtlarni ko`rsa
B. Yulduzni benarvon urgan yigitlar o`shalar
C. Tiyrak ko`zlarining yiltirashidan jiddiy gapga bel bog`laganini angladi
D. Ular o`zlarini qayerga qo`yishini bilmay yugurishadi.
13. Qaysi gapda ibora ega vazifasida qo`llangan?
A. Ayol kishiga qo`l ko`tarish erkak kishining ishi emas
B. Ko`zimning ostiga olib yurgan bir popukday qiz bor
C. Saida uning kecha to`qimi teskari bo`lib yurgani, hozir qildan qiyiq topayotganining sababini darrov fahmladi
D. Qo`li egri odam bir yozda mehnatimni “suv” qildi
14. Qoratoy o`zini tuta olmadi, boyni so`kib, og`zidan bodi kirib, shodi chiqa boshladi. Ushbu gapda qo`llangan iboralar soni va gapdagi vazifasini aniqlang.
A. 2ta; kesim, kesim
B. 3ta; kesim, hol, kesim
C. 4ta; kesim, hol, hol, kesim
D. 1ta; kesim
15. Mahmud majlisda qatnashmagan bo`lsa-da topshiriqni bajardi. Ushbu gapda holning qaysi turi mavjud?
A. sabab holi
B. maqsad holi
C. vaziyat holi
D. o`rin holi
E. to`siqsizlik holi .
16. O`rin-payt kelishigi kelishigi shaklidagi so`zning to`ldiruvchi vazifasida kelishi qaysi qatorda berilgan?
A. Yozda qilingan mehnat o`z natijasini berdi
B. Birlashma idorasi uch qavatli binoda edi
C. Katta chinni kosada suv olib chiqdi
D. Nemis do`stlarimizni Buxoroda uchratdik
E. Ohangni chuqur sukutda tingladilar
17. Chiqish kelishigi shaklidaga so`zning to`ldiruvchi vazifasida kelishi qaysi qatorda berilgan?
A. Anvar bolalikdan otlarni sevardi
B. G`ulomjon uyidan erta chiqib ketgan ekan
C. Sultonovning gapini chin yurakdan qarshiladi
D. Men Farg`onaning bir chekka qishlog`idanman
E. U ham muhabbat zavqidan bahramand bo`ldi
18. Maqsad holini toping.
A. Tarixiy joylarni tomosha qilish maqsadida Samarqandga jo`nadik
B. U uyalganidan qizarib ketdi
C. Bizning mardlar ko`kka parvoz qilmoqda
D. Qizil olma mevasining mo`lligidan hovuzga engashib tushgan

E. Inson amaliy tafakkurni o`rganishga hamisha ehtiyoj sezadi.
19. Qaysi gapda sabab holi berilgan?
A. U ona bilan samimiy salomlashdi
B. Nima uchun achchig`i chiqqanini o`zi ham bilmasdi
C. U sho`xlikni qancha bilsa kattalarga hurmatni shuncha bilar edi
D. Ular atayin aylanma yo`llardan yurdilar
E. Biz u bilan baxt haqida ko`p o`ylar edik.
20. Otlashgan so`z bilan ifodalangan to`ldiruvchini toping.
A. Sen o`zingni maqtama, seni birov maqtasin
B. Chiniqqanga dard yuqmas
C. Kulgu yuzni go`zal qiladi
D. Dardsiz odamdan ijodkor chiqmaydi
E. Ko`rmaganlar ko`rishni orzu qildilar
21. Ko`pdan quyon qochib qutilmas. Ushbu maqolda to`ldiruvchi vazifasida qo`llangan so`z qaysi so`z turkumiga mansub?
A. son
B. sifat
C. ot
D. olmosh
E. ravish
22. Ibora bilan ifodalangan to`ldiruvchi bor gapni toping.
A. Kulganni kulib yengasan
B. Yomonga yondoshma, yaxshidan adashma
C. Urgan kishidan bola nafratlanadi
D. E'tiqodsiz odamdan har qanday qabohatni kutish mumkin
E. Men uning teppa sochi tikka bo`lishini kutmagan edim.
23. Olmosh bilan ifodalangan sifatlovchi-aniqlovchini toping.
A. Har kimning niyati o`zining yo`ldoshi
B. Bu o`lkada har narsa bordir
C. Avval o`z aybingni bil keyin birovdan kul
D. Yaxshi niyatli kishilarning ahdi - shu
E. Kimning ishi to`g`ri bo`lsa u doim bexavotir bo`ladi.
24. Ot bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi qaysi gapda?
A. Bir azobning bir rohati bor
B. Supada qator o`tiribmiz
C. Shu paytda uy eshigi ochildi
D. Zumrad bahorni kim sevmaydi
E. Qorong`ida chuqur ho`rsindim.
25. Aravani quruq olib qochding, do`stim. Gapda nechta gap bo`lagi bor?
A. 1
B. 2
C. 3
D. 4
E. bu gap gap bo`laklariga ajralmaydigan gap hisoblanadi.
26. Men do`kondan shisha idishda yog` olib keldim. Gapdagi aniqlovchi qaysi so`z turkumi bilan ifodalangan?

A. sifat
B. olmosh
C. ot
D. sifatdosh
E. A va D
27. Olmosh bilan ifodalangan vositasiz to`ldiruvchi qatnashgan gapni aniqlang.
A. Usta u deb ko`rdi bu deb ko`rdi bo`lmadi
B. O`zbekning otpuskasi yo uy qurish bilan o`tadi yo to`y qilish bilan o`tadi
C. Qubba o`yini qiyin emas
D. Uning gapi yolg`on dedi bola
E. Ikkovlashib Zebi xolani kabinaga chaqirdik.
28. Vaziyat holi qatnashgan gap qaysi qatorda berilgan?
A. Shu kuni nima yumush berishsa oyog`im olti, qo`lim yetti bo`lib yugurdim
B. Bir mahal tashqarida gurji kuchugimning akillagani eshitildi
C. Nasiva bu gapni jo`rttagi baqirib aytdi
D. Bugun-erta havo ham o`zgarib qolsa kerak
E. A va S
29. Kishilik olmoshining to`ldiruvchi vazifasida kelishi qaysi qatorda berilgan?
A. Siz bir oz dam oling
B. Parizod bo`lgan voqeani unga aytib berdi
C. Shubhasiz, bu – sizning yutug`ingiz
D. Ular bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilmoqdalar
E. Men supaga o`tirdim.
30. Aniqlovchi vazifasida kelgan olmosh qaysi gapda qo`llangan?
A. Shularni odam yaratgan
B. Nimadan gap ochishni bilmay turdi
C. Kimning uyi yaqin
D. Sizni nima qiziqtiradi
E. Hech kimga qalbida nimalar kechayotganini bildirmasdi.
31. Kiyimi qo`pol lekin yangi va puxta edi. Gapdagi sifatlarning sintaktik vazifasini aniqlang.
A. ega
B. to`ldiruvchi
C. kesim
D. aniqlovchi
E. aniqlovchi-kesim
32. Ko`makchi so`zlar bilan qo`llangan vositali to`ldiruvchini aniqlang.
A. Vaqt hamma jarohatlarni davolaydi
B. Baxtsizlik faqat kurash bilan yengiladi
C. Muhayyo bu sodda, beg`ubor bolaga havas bilan qaradi
D. Yoshlik kishiga faqat bir marta beriladi
E. Yoshlikdagi yanglishishlarni kechirmoq kerak.
33. Payt holi qo`llangan gapni aniqlang.
A. Alimardon qayrilib qaraguncha boshqa odamlar uni o`rab olishdi
B. Hech qachon zeriktirmaydigan o`ta topqir odam topilmasa kerak
C. Hazillashayotganda odobni saqlang

D. A va S
E. B va S
34. O`rin holi qaysi javobda berilagnini aniqlang.
A. Yaxshi fikrlarni takrorlash hech qachon ortiqchalik qilmaydi
B. Qayerda aniq bilim bo`lmasa, u joyda farazlar hukm suradi
C. Istak yo`qolgan yerda odam ham ado bo`ladi
D. A va B
E. B vaS
35. Qaysi gapda ravish (vaziyat) holi qo`llangan?
A. O`z burchini bajarishdan mamnun odamgina erkin yashaydi
B. Vaqtni behuda o`tkazma
C. Xurshida boshidan hushi uchib borayotganini his qilib turar, yuragi gursillab urardi
D. A va B
E. A, B va S
36. Sabab holi qaysi gap tarkibida qo`llangan?
A. Bu kitobni o`qiyman deb olib kelgan edim
B. Odam faqat aqli bilan odamdir
C. Siz borki, dunyo husni barkamol
D. G`iyos uyalganidan nima qilishni bilmay qoldi
E. B va D
37. Miqdor (daraja miqdor) holi qaysi gap tarkibida qo`llangan?
A. Buyuk ishlar tez yuzaga chiqmaydi
B. Yangilikka ko`proq e'tibor berilsin
C. Bitta dushmaning ham ko`p, do`stlaring mingta bo`lsa ham kam
D. Odam ikki marta yashamaydi, lekin bir marta yashashni ham bilmaydiganlar bor
E. B va D
38. Otlashgan so`z bilan ifodalangan bo`lak qaysi javobda berilgan?
A. Yaxshi kulgan odam-yaxshi odam
B. Fidokor kishilar quyoshdek zarur
C. Ezgu nom go`zal chehralardan afzalroq
D. Tashqi qiyofani bezayvermasdan ma'naviy olamni bezash kerak
E. Qushlarning chug`urchug`urida ham tashBish ohangi bor.
39. Maqsad holi qo`llangan gapni toping.
A. Juman tezroq yotoqqa, bolalar yoniga chopib borgisi kelib ketdi
B. Tulki qo`rqib ketib qocha boshladi
C. U o`qish niyatida shaharga keldi
D. Luqmoncha vujudi titrab turganidan o`zini murdaday oqarib ketganini bilardi
E. A va S
40. Maqsad ravishdoshi bilan ifodalangan maqsad holi qaysi qatorda berilgan?
A. Dam olishga shifonga to`plandik
B. Bu rasmlarni ukamga ko`rsatayin deb olib keldim
C. Siz bilan bafurja gaplashgani keldim
D. G`iyos Tursunni ko`rmoqchi bo`lib kelgan ekan
E. B va S
41. Shart holi qo`llangan gapni ko`rsating.

A. Bu vazifani hamma bajarishi shart
B. Savar shartta jo`nab qoldi
C. Bugundan tayyorgarlikni boshlasang bemalol ulgirasan
D. Yer yaxshi ishlansa, hosil ham shunga yarasha bo`ladi
E. S va B
42. Gap bo`laklarining o`zgargan tartibi(inversiya) qaysi qatorda berilgan?
A. Yoshlik bilan keksalik orasidagi muddat naqadar qisqa!
B. Uzoq yashamoqchi bo`lsang, kamroq ovqatlan.
C. Odamlarni bir-biridan ajratadigan so`zni aytishddan saqlan.
D. Dunyodagi hamma shodlik, hamma ezguliklarning manbayi mehnatdir.
E. O`yin, qo`shiq, so`zlardan Ko`ngillar titrar asta.
43. Qaysi gapda hol bilan kesimning odatdagi tartibi o`zgargan?
A. O`tov ichida sak qabilalarining oqsoqollari kengash qurib o`tirardilar.
B. Ular muammoni yechish uchun uzoq bosh qotirishdi.
C. Quyosh chiqdi yer yuziga charaqlab.
D. Yaxshilar diydorini ko`rsaydi ko`ngil.
E. S va D.
44. Sabab ravishi bilan ifodalangan sabab holini toping.
A. Bu kishilar doim insoniyat uchun qayg`uradi
B. Yangi chiqqan oy yoyilib ketgan o`roqday ingichka bo`lgani uchun yo`lni yoritmasdi.
C. Mahbuba uning taklifiga noiloj ko`ndi
D. Alisher shu sababli vahimaga tushdi
E.Nima uchun uning bashorati ijobat topmadi.
45. Qaysi gap tarkibida ham vositali ham vositasiz to`ldiruvchi qo`llangan?
A. Fanni ko`pincha bilim bilan yanglishtiradilar
B. Quruq so`z bilan ish bitmas
C. Dehqon kasbini xo`rlamas
D. Tinchlik bilan el ko`karar, yomg`ir bilan yer ko`karar
E. Aql bo`y bilan o`lchanmaydi.
46. Qaysi gapda ikkta vaziyat holi(ravish holi) qo`llangan?
A. Tevarak atrofga hayronlik bilan boqa boshladi
B. Ammo ziyrak qiz bu so`z tagida nimalar borligini darhol anglaydi.
C. U juftsiz holda o`zi tanho yashaydi
D. Har qayer har qayerda o`tinlar ustma-ust qalab qo`yilgan
E. Bu xil jar maydoni kamdan kam uchraydi.
47. Hol va kesimning inversiyasi qaysi gapda kuzatiladi?
A. Bilmaganin o`rganib, odamzod topdi kamol
B. Bir doktor kelganmish Toshkentdan. Shuni chaqirishmoqchi
C. Qanchalik hikmat, haqiqat bor ularda!
D. Esingdami, katta Farg`ona kanalini qurish qanday boshlangani?
E. Kezdim jannat yanglig` bog`larni.
48. Vositasiz to`ldiruvchi qaysi javobda berilgan?
A.Baxt sog`liqqa o`hshaydi: u bor bo`lsa, payqamaysan.
B. Vaqt va suv toshqini hech qachon kutib turmaydi
C.Mehnat odamni yuksaklikka ko`taradi

D. Ikkilanish kuchni yo`qotish demakdir
E. C va D
49. Qaysi gapda sifatlovchi-aniqlovchi ot-kesimga bog`langan?
A. Obodli va oqil odamlarga nisbatan eng arzimas hazilni ham qila ko`rmang
B.Hamma qobilyatlarning sarvari sog`lom fikrdir.
C. Faoliyat bilimlarga olib boradigan yagona yo`ldir
D. Faqat harakatgina ezgulikning qadr-qiymatini belgilaydi

| | |
|---|---|
| **Mashg'ulotga ajratilgan vaqt**– 2 s | **Talabalar soni** – 30 ta |

E. B va C
50. Ibora bilan ifodalangan aniqlovchi qaysi qatorda qo`llangan?
A. Madamin bo`yniga qo`yilgan aybnomadan tamoman hovridan tushdi.
B. Boshimiz oqqan tomonga ketaveramiz
C. Xo`zabekovning g`ururi lat yedi: raislik amaliga tumshuq suqmagan shu mo`ylov qoluvdi
D.Har kim dili tortgan kishi bilan yuradi
E. Bunday aniqlovchi hamma javoblarda qo`llangan.
51. 1.Dunyo dunyo bo`lib yaraldi qachon? 2.Keltirgan gullaringizning qaysi biri chiroyli? 3. Nima-nima oldingiz? 4. Musobaqada g`olib chiqqan kim?Ushbu berilgan gaplarda so`rov olmoshlari qaysi gap bo`lagi vazifasida kelgan?
A. 1.hol; 2.aniqlovchi; 3.to`ldiruvchi; 4.ega;
B. 1.hol; 2.ega; 3.kesim; 4.aniqlovchi;
C. 1.to`ldiruvchi; 2.ega; 3. ega; 4.kesim;
D. 1.hol; 2.ega; 3.to`ldiruvchi; 4.kesim;
E. 1.to`ldiruvchi; 2.ega; 3.kesim; 4.aniqlovchi;

## 10-Mavzu: Gapning uyushiq bo'laklari.

| O'quv mashg'ulotining shakli | Amaliy mashg'ulot |
|---|---|
| **O'quv mashg'ulotining tuzilishi** | 1. Tashkiliy qism.<br>2. Savol-javob asosida talabalar bilimini aniqlash va mustahkamlash<br>3. Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimini tekshirish va mustahkamlash.<br>4. Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimini aniqlash va baholash.<br>5. Texnologiyasi orqali talabalar bilimini baholash va mustahkamlash<br>6. Mustaqil ish asosida talabalar bilimini tekshirish va baholash.<br>7. Test texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash<br>8. Mavzuni yakunlash. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi** | Talabalarning «Gapning uyushiq bo'laklari" mavzusidan ma`ruza mashg'ulotida olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikma va malakalarini tekshirish va mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1.Tashkiliyqism.<br>2.Savol-javobasosidatalabalarbiliminianiqlashvamustahkamlash<br>3.Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimini tekshirish va mustahkamlash.<br>4.Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimini aniqlash va baholash.<br>5.Blits texnologiyasi orqali talabalar bilimini baholash va mustahkamlash<br>6.Mustaqil ish asosida talabalar bilimini tekshirish va baholash.<br>7. Test texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash<br>8.Mavzuni yakunlash. | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>1) auditoriyaningsanitariyaholati, davomat, mavzu, uygaberilgantopshiriqlaraniqlanadi, guruhjurnalirasmiylashtiriladi;<br>2) talabalar «Gapninguyushiqbo'laklari» mavzusiyuzasidan 1-ilovadaberilgansavollargajavobberadilar, munozaradaishtiroketadilar;<br>3) talabalar «Gapninguyushiqbo'laklari» mavzusiyuzasidan 2-ilovadaberilganmashqlarnibajaradilar, bir-birlariningjavoblarinito'ldiradilar;<br>4) talabalar «Gapninguyushiqbo'laklari» mavzusiyuzasidan 3-ilovadaberilgannamunaasosidao'zmustaqilishlarinihimoyaqiladilar, munosaradaishtiroketadilar;<br>5) talabalar «Gapninguyushiqbo'laklari» mavzusiyuzasidan 4-ilovadaberilganblitssavollarigajavobberadilar;<br>6) talabalar «Gapninguyushiqbo'laklari» avzusiyuzasidan 5- |

| | |
|---|---|
| | ilovadaberilganmustaqilishniamalgaoshiradilar;<br>7) talabalar «Gapninguyushiqbo'laklari» mavzusiyuzasidan 6-ilovadaberilgantestsavollarigajavobberadilar<br>8) mavzu 7-ilovaga asosan yakunlanadi. |
| **Ta`lim metodi** | Aqliy hujum, darslik bilan ishlash, suhbat, "Blits" , test texnologiyalari |
| **Ta`limni tashkil etish shakli** | Amaliy, ommaviy,individual. |
| **Didaktik vositalar** | Darslik, ukuv kullanma, tarqatma materiallar, slayd-prezentatsiya |
| **Ta`limni tashkil etish sharoiti** | Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona |
| **Nazorat** | Test O'z-o'zini nazorat qilish, refleksiya |

**Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi**

| **osqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| **1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da`vat bosqichi) (5 minut)** | 1.Tashkiliy qism. | 1.Auditoriyaningsanitariyaholati, davomat, mavzu, uygaberilgantopshiriqlaraniqlanadi, guruhjurnalirasmiylashtiriladi; |
| **2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (70 minut)** | 1.Savol-javob asosida talabalar bilimini aniqlash va mustahkamlash<br>2.Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimini tekshirish va mustahkamlash.<br>3.Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimini aniqlash | 1) talabalar «Gapning uyushiq bo'laklari» mavzusi yuzasidan 1-ilovada berilgan savollarga javob beradilar, munozarada ishtirok etadilar;<br>2) talabalar «Gapning uyushiq bo'laklari» mavzusi yuzasidan 2-ilovada berilgan mashqlarni bajaradilar, bir-birlarining javoblarini to'ldiradilar;<br>3) talabalar «Gapning uyushiq bo'laklari» mavzusi yuzasidan 3-ilovada berilgan namuna asosida o'z mustaqil ishlarini himoya qiladilar, munosarada ishtirok etadilar;<br>4) talabalar «Gapning uyushiq bo'laklari» mavzusi yuzasidan 4-ilovada berilgan blits savollariga |

| | | |
|---|---|---|
| | va baholash.<br><br>4.Blits texnologiyasi orqali talabalar bilimini baholash va mustahkamlash<br>5.Mustaqil ish asosida talabalar bilimini tekshirish va baholash.<br>6. Test texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash | javob beradilar;<br>5) talabalar «Gapning uyushiq bo'laklari» avzusi yuzasidan 5-ilovada berilgan mustaqil ishni amalga oshiradilar;<br>6) talabalar «Gapning uyushiq bo'laklari» mavzusi yuzasidan 6-ilovada berilgan test savollariga javob beradilar |
| **3-bosqich. YAkuniy (Fikrlash bosqichi) (5 minut)** | 8.Mashg'ulotni yakunlash. | Mashg'ulot 7-ilovaga asosan yakunlanadi.. |

**1-ilova**

**.Talabalarbilimiquyidagisavollarasosidaaniqlanibvamustahkamlanibbaholanadi:**

1. Uyushiqbo'lakdebnimagaaytiladi?
2. Uyushiqbo'lakligapdebqandaygaplargaaytamiz?
3. Gapningqaysibo'loaklariuyushibkelishimumkin?
4. Egasi uyushgan gapni misollar yordamida tushuntirib bering.
5. Kesimi ushgan gapni misollar yordamida tushuntirib bering.
6. Aniqlovchi uyushib kelgan gapni misollar yordamida tushuntirib bering.
7. To'ldiruvchi uyushib kelgan gapni misollar yordamida asoslab bering.
8. Xol uyushib kelgan gapni misollar yordamida tushuntirib bering.
9. Uyushiq bo'laklar o'zaro qanday grammatik vositalar yordamida bog'lanadi?
10. Uyushiq bo'laklar orasiga qanday tinish belgilari qo'yiladi?
11. Uyushiq bo'laklarga turli qo'shimchalar qanday tartibda qo'shilishini misollar yordamida tushuntirib bering.

**2-ilova.Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimini tekshirish va mustahkamlash.**

365-mashq. O'qing. Kesimi uyushgan gaplarni ko'chiring, eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizing, kesimning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

1. Andrash Sabo xushmuomala, sertakalluf, yoqimtoy, xushsuhbat edi. (S. Kalmikov.) 2. Quruvchilar uchun... shaharcha qurildi; oziq-ovqat palatkalari, baraklar, oshxonalar, choy-xonalar, qizilburchaklar, kutubxonalar, ambulatoriyalar, kasalxonalar, omborlar, magazinlar barpo qilindi. (N. Biryukov.) 3. Kun salqin va izg'irin. (S. B.) 4. Hammaning dilida bir-biridan yaxshi, tez, toza, ko'p paxta terish tuyg'usi. (A. Muhiddin.) 5. Ko'l harakatsiz, shu`lador, kimsasiz. (CH. Ayt.) 6. "Komiljon bilan Tatyanani chaqiringlar!" — dedi u qabulxonadagi xodimasiga. (I. R.) 7. To'tixon xatni ko'zlariga surtar, o'par, hidlar edi. (S. Ahm.) 8. Ochiqqan, toliqqan otliqlarga o'tgan-ketganlar hayron bo'lib qarashardi. (L. Bat.) 9. Naimshoh... SHakar bahodirni izzat-hurmat bilan kutib oldi va mehmonxonaga boshlab kirdi. (S. Ulug'zoda.)

366-mashq. O'qing, to'ldiruvchisi uyushib kelgan gaplarni topib, uyushiq to'ldiruvchilarni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birikma tarzida ko'chiring, to'ldiruvchining turini ustiga yozib qo'ying.

1. O'tgan yili Madaminxo'ja xirmonida yoqilgan umid chirog'i qalbiga na surur berdi va na nur! (M.I.) 2. U erda Saodatni yaxshi kutib oladilar, yuvib-taraydilar, kiyintiradilar. (S. Z.) 3. Qo'biz adirlar orqasiga yonboshlayotgan quyosh haqida, har yoqqa salqinlik taratayotgan mayin shabada haqida, yo'l yoqalab kelgan ko'm-ko'k yavshon va sap-sariq chalovlarning sekin-sekin tebranib gul changlarini to'kayotgani haqida kuylardi. (CH. Ayt.) 4. Beso'naqayroq yuzli, qora ko'zli bu yigit aqlli ko'rinardi. (V. Karpov.) 5. O'razqulga ko'rsatilgan hurmatlar uchun, ziyofatlar uchun, qarzlar uchun, va`dalar uchun hisoblashadigan payt keldi. (CH. Ayt.) 6. Birdan uyini, qizini, shiyponini ko'rgisi kelib ketdi. (S. Z.) 7. Bularning oralarida shoiralar, g'azalxonlar, sozanda, qiziqchi va raqqosalar bo'lardi. (N. S.)

367-mashq. Uyushiq aniqlovchilarni topib, aniqlanmish bilan birga ko'chiring; so'rog'i, turi va qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

1. Ey, tim qora sochli, ko'zlaridan nur yog'ilib turuvchi murabbiya! Qadamlaringga hasanot! (Fodil as-Siboiy.)2. YOmon, yaxshi ish yo'q, hamma ish yaxshi! Bizda halol mehnat odamning naqshi! (U.) 3. Katta, dehqonga foydali, o'z ko'ngliga yoqadigan ish qilmoqchi edi u. (S. Nurov.) 4. Qancha-qancha to'qnashuvlar, yangi tashvishlar, quvonch, ikkilanish, muvaffaqiyatlar, mag'lubiyatlar va kurashlar kutadi bizni. (J. Abd.) 5. Bo'm-bo'sh, jimjit ko'chalardan yolg'iz ketdim. (O. YO.) 6. Zebo va barno bu qizning jasorati odamlar nazarida chindan ham hayron qolarli edi. (S. Ulug'zoda.) 7. Tashqari gullarga ko'milgan, sadarayhonlar, qashqargul va atirgullarning hidi havoda anqirdi. (O.) 8. Yo'lchi uchun Petrov... butun hayoti va kurashi bilan muallim bo'ldi. (O.)

368-mashq. O'qing. Uyushgan va uyushmagan sifatlovchilarni aniqlang, ular orasidagi farqni tushuntiring.

1. Uning mehnatda chiniqqan qoramtir yuzida, jonli, tiyrak yirik ko'zlarida bolalarcha ma`sumlik jilvalanardi. (O.) 2. YUrtda adolatli davlat, odil va ilmparvar hukmdor ko'rmoq orzusida bo'lgan Navoiy Husayn Boyqarodan ko'p narsa umid qilar edi. (O.) 3. Hozir Mirzacho'lga borgan har bir kishi u erdagi yangi, obod shaharlarni, ko'p qavatli muhtasham binolarni, hashamatli uy-joylarni, har ikki tomoni ko'm-ko'k daraxtzorlar bilan qoplangan keng va tekis asfalt yo'llarni ko'radi. (A. Po'lat.) 4. Mulozimlar uning yuvosh, lekin jussasi juda kelishgan yo'rg'a qorabayir otini ko'ndalang qilishdi. (O.) 5. CHol katta zarang tovoqda lim to'la tariq olib chiqib, toza supurilgan keng sahnga sochdi. (O.)

369-mashq. O'qing. Uyushgan hollarni aniqlab, o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birikma tarzida ko'chiring; tagiga chizib, ustiga turini yozib qo'ying.

1. Korolyov mayorni... dov yurakligi, sof dil va rostgo'yligi uchun yaxshi ko'rardi. (A. CHakovskiy.) 2. YOng`in tutuni barra o'tlar ustida, endi nish urib chiqqan ekinlar ustida, daraxtlari kurtak chiqargan bog`lar ustida, ko'pirib-hayqirib oqayotgan bo'tana soylar ustida suzib yurardi. (S. B.) 3. Bo'g`iq shovqin suv orqali aniq o'tib, dahshatli va dabdabali eshitilar edi. (J. Vern.) 4. Lekin hozir qahramonlar minglab, o'n minglab chiqyapti. (A. CHakovskiy.) 5. YAna qo'rquvdan va tanholikdan yuragim o'ynay boshladi. (Samim ash-SHarif.) 6. Dengizday chayqalib, daryoday toshib, Ko'hna qirg`oqlardan ko'pirib toshib, SHarqirab, yarqirab, barq urib, serzavq Qalbimga to'ldirib hayajon va shavq Hayot chaqiradi meni yoniga! (U.)

370-mashq. O'qing. Umumlashtiruvchi so'z qatnashgan uyushiq bo'lakli gaplarni topib, qanday bo'lak uyushganligini ayting.

1. Traktorlarning tarillashi, tog`-tog` xarsang tosh, tuproq uyumlarining qulashi, vahimali gumburlashlar — bularning hammasi haqiqiy jang maydonini eslatardi. (J. Abd.) 2. Bu erda hamma narsa: qizil daraxtdan ishlangan panel ham, ko'rkam va qulay mebellar ham, billur qandil va qimmatbaho matodan tikilgan darparda, polga to'shalgan mayin turk gilami kishida taassurot qoldirishga mo'ljallangan. (V. Egorov.) 3. Uning yurish-turishi, kafedra oldida so'zlash usullariga taqlid qiluvchilar ham ko'p. (J. Abd.) 4. Ziyofatga Hirotning eng ilg`or kishilari: olimlar, shoirlar, hofizlar, mashshoqlar, xattotlar, teri ishlaydigan va kimxob to'qiydigan mashhur hunarmand ustalar, muqovasozlar va egarsozlar to'planishgan edi. (L. Bat.) 5. Men hamma narsani: charchoqni ham, yor-do'stlarimni ham, kollektsiyalarimni ham unutdim. (J. Vern.) 6. SHu daqiqalarda uning fikru xayolini uch narsa band qilgan edi: farzandlarining bemorligi, Olim mo-jarosi, Norzoda bilan munosabati. (F. Niyoziy.) 7. U minglarcha yilgi madaniyatni, asrlarning fikr boyligini qamragan shoir edi. (O.)

371-mashq. O'qing. Uyushiq bo'lakli gaplarni aniqlab, qanday bo'lak uyushganini, ularning o'zaro bog`lanishini ayting. Tegishli tinish belgilarini qo'ygan holda ko'chirib, uyushiq bo'laklar tagiga chizing.

1. Bu kengashda har kim o'z fikrini mulohazasini ko'ngliga tugib yurgan dardini bamaylixotir hech kimning fikri bilan hisoblashmasdan xavotir olmasdan tap tortmasdan aytdi istagan taklifini qildi. (A. Q.) 2. Nozimjon yoshligidan mehnatkash, sezgir, erga va molga mehr qo'yib o'sdi. (S. Nurov.) 3. Stol atrofida majlis hay`ati kotib bola rayijrokom vakili va zavod direktori Hikmat Hatamov o'tirishibdi. (O.YO.) 4. Uchastka uchun ham grafik plan ish sifati odamlarga to'g`ri maosh taqsimlash uchun ham kollektiv o'rtasidagi ahillikka g`ubor qo'nmasligi uchun ham turish-turmush emishlar kishilarnnng ruhi-ra`yini ko'tarish uchun ham birinchi galda u javobgar! (J. Abd.) 5. Suv er elektr bular hayot bahoriga yangi go'zallik va yangi nash`a bag`ishlovchi kuchlar edi. (O.)

**3-ilova.Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimini aniqlanadi va baholanadi.**

**Namuna:** Birdan uyini, qizini, shiyponini ko'rgisi kelib ketdi. (Saida Zunnunovadan olingan.) Mazkur gapda vositasiz to'ldiruvchi uyushib kelgan. Uyushiq bo'laklar o'zaro ohang yordamida bog`langan. So'z o'zgartuvchi qo'shimchalar har bo'lakka alohida tarzda qo'shilgan.Uyushiq bo'laklar ko'rgisi kelib ketdi – fe`l kesimga bog`lanib kelgan.

**4-ilova.Blits texnologiyasi orqali talabalar bilimini baholash va mustahkamlash**

| № | Savolllar mazmuni | Talaba javobi | To'g`ri javob | Javoblar mazmuni |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Kesimiuyushibkelgangapnianiiqlang. | | | Bog`lovchilar va ohang |
| 2 | Ega uyushib kelgan gapni toping. | | | Birni kessang, o'nni ek. |
